

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Maktabgacha ta’lim kafedrası

ONA TILI VA ADABIYOT

fanining

ONA TILI qismidan

ma’ruzalar matni

BUXORO – 2018

## **1-mavzu. Tilshunoslik va til haqida umumiy ma'lumot**

Reja:

1. Tilshunoslik fani haqida.
2. Tilning tabiati va vazifalari.
3. Til va jamiyat.
4. Til va tafakkur.
5. Til – ramziy tizim.

Tilshunoslik fani haqida

Ma'lumki, hozirgi zamon fanlari tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topgan:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.

### **4. Matematika fanlari.1**

Tilshunoslik fani kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga kiradi. "Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan" 2. Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan bog'liq.

Tilshunoslik – ko'p qirrali fan. U fan sifatida umumiy va xususiy, nazariy va amaliy tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi. Umumiy tilshunoslikning maqsadi: 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; 2) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o'rganuvchi sohalarni belgilash; 3) tillarning tasnifini yaratish; 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.

---

1 I. A. Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2001, 11-bet.

2 A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002, 107-bet.

Xususiy tilshunoslik – alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, o‘zbek tilshunosligi - o‘zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi - qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi – rus tili haqidagi fan va h.k.

O‘z-o‘zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma’lum bir konkret tilga xos bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani o‘rgansa, amaliy tilshunoslik lingvistik bilimlarni amalda qo‘llash bilan shug‘ullanadi.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi «nutq-lison» tamoyilidan «lison-nutq» tamoyili asosida ish ko‘rishga jadal o‘tmoqda. Boshqacha aytganda, o‘zbek substantzial tilshunosligi aniqlagan lisoniy umumiyliklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga jiddiy kirishmoqda. Lisonning amaliy voqelanishi, undan amaliy foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi quyidagi zamonaviy yo‘nalishlar ish boshlamoqda:

1. Sotsiolingvistika.
2. Psixolingvistika.
3. Pragmalingvistika.
4. Lingvokognitologiya.
5. Lingvokul’turologiya.
6. Neyrolingvistika.
7. Kompyuter lingvistikasi.
8. Korpus lingvistikasi.

#### Tilning tabiati va vazifalari

Til kishilarning o‘zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo‘lgan ehtiyoj natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy hodisadir.

Til paydo bo‘lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a‘zolari bo‘lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa

hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 80-90-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ldi.

Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu Qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir.

Til jamiyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kommunikativ vazifa – axborotni uzatish va qabul qilish vazifasi. Bu tilning eng muhim vazifasidir.
2. Ma'rifiy vazifa – insonga bilim berish vositasi bo'lib xizmat qilish. Mavjudotning mohiyatini, haqiqatini bilish “ma'rifat” deyiladi. Tilning ta'limiy ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oliy martabasini ham o'z ichiga oladi.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsani bilishi kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Shuning uchun biz ta'limni tilsiz tasavvur ham qila olmaymiz.

Tilning ma'rifiy ahamiyati quyidagilardan iborat :

1. Til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan taraqqiyot ta'minlanadi.
2. Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hatto kelgusiga oid ma'lumotlarni ham

olamiz. Koinotning hamma yeridagi ma'lumotni so'z bilan ifodalab, bilmaganga bildirish mumkin.

3. Har bir o'quvchi maktabda qanchadan qancha bilim oladi. Shu bilimlarni olishga til tufayli muyassar bo'ladi. Aks holda har bir o'rgatilayotgan narsani, hech bo'lmaganda uning suratini o'quvchiga ko'rsatish kerak bo'lar edi. Bu albatta juda ko'p vaqt va joyni talab qilar edi.

4. Biz til tufayli sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz. Ko'rinishi, shakli bor narsalarning aksi ongimizga o'rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so'z shaklida o'zlashtiramiz. Xuddi shuningdek, mavjudotning ko'rinmas ichki jihatlarini ham so'z shaklida o'zlashtiramiz va til vositasi bilan o'zgalarga tushuntiramiz.

5. Tilni o'rganish va o'rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. So'z yordamida biz mavjudotni o'rganib umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalarini o'rganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tug'diradi.

6. Til tufayli biz haq bilan nohaqni, yaxshi bilan yomonni bir-biridan farqlashni o'rganamiz.

3. Badiiy vazifa. Badiiylik go'zallikning nutqiy ko'rinishidir. Borliqda go'zallikning ko'rinishlari juda ko'p. Butun mavjudotning, xususan insonning tuzilishi, yurish-turishida qanchadan qancha yetuklik, jumladan go'zallik bor. Ammo tabiiy go'zallikdan tashqari yana inson vujudga keltiradigan sun'iy go'zallik ham bor. Hunarmand-u san'atkorlar buyumlarga, inshootlarga go'zal tus beradilar. Usta dehqonlar go'zal bog'-u rog'larni vujudaga keltiradilar. Kuychilar kuy, ashulachilar ashula, rassomlar rasm, haykaltaroshlar haykal yaratadilar. Mana shularning hammasi va ularning go'zalligi til vositasida aks ettiriladi. Bu tilning go'zallikni aks ettirishdagi xizmatidir. Ammo tilning o'zi ham go'zallik moddasi sifatida so'z ustalari tomonidan va umuman xalq tarafidan foydalaniladi. Chunki til yetuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir.

Demak, tilning badiiy vazifasi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2. Tilning o‘zi go‘zallikni vujudga keltiradi. Badiiylik deb ataluvchi nutq husni so‘zlarning bir-biriga tovush yo ma’no jihatidan yoxud har ikki jihatdan munosibligidan vujudga keladi.

Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi millionlab so‘zga chechan kishilar tilning badiiy imkoniyatining mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdan foydalanadilar va shu bilan o‘quvchi yoki tinglovchiga ham lazzat bag‘ishlaydilar.

Badiiylikning ikkinchi ko‘rinishiga misol keltiramiz. Hammamizga ma’lumki, bir fikrni juda ko‘p variantda aytish mumkin. Shulardan birini olaylik, “Qalovini topsang o‘tin yaxshi yonadi” deyish mumkin, ko‘p martalab shunday deyilgan ham bo‘lishi kerak. Bu gapda hech qanday kamchilik yo‘q, chunki u til qoidalariga muvofiq tuzilgan va o‘z vazifasini to‘la ado etadigan shakldadir. Biroq inson ta’bi bu bilan to‘la ravishda qoniqmaydi. Uning ta’bidagi go‘zallikka bo‘lgan ehtiyoj shu gapni go‘zallashtirishni talab qila boshlaydi. Shu talab bilan o‘tin so‘zini qor so‘zi bilan almashtiradi-da, “Qalovini topsang qor ham yonadi” deydi. Shu bilan u mazkur gapga go‘zal tus beradi. Eshitganlarga bu yoqadi. Kishi o‘ziga yoqqan narsani yo‘qotmaslikka harakat qiladi xalq buni maqol qilib asrab yuradi. Bu jumlaning yoqimli, go‘zal qilgan narsa, birinchidan qor so‘zining qalov so‘ziga uyg‘unligi, ya’ni tovushdoshligi, ikkinchidan qorning olovga zidligi, uchinchidan bo‘rttirish, ya’ni mubolag‘a borligidir.

4. Inson hayotini dasturlash va boshqarish vazifasi. Til olamni tartibga soluvchi va boshqaruvchi kibernetik<sup>3</sup> tizimdir. Til olamni tartibga soladi va uni to‘la boshqaradi. U faqat insonni emas, hatto hayotni ham boshqaradi. Inson hayotida yuz beradigan voqealar uning ongidagi fikr va obrazlarga hamda odam ularni qaysi so‘zlar bilan ifodalashiga to‘la muvofiq keladi. Tilmiz voqeligimizni belgilaydi, shakllantiradi, undan keyin tasvirlaydi. So‘zlarimiz atrof olamni tasvirlabgina qolmay, balki avvalo uni yozadi. Boshqacha qilib aytganda, biz til yordamida o‘zimiz yashayotgan olamni yaratamiz.

Xo‘sh, qanday qilib nutqimiz va fikrlarimiz o‘zimiz va atrof olamga ta’sir qiladi? So‘z hayotga obrazni chorlaydi. Obraz o‘z navbatida insonning his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq. His-tuyg‘ular esa hayotda voqelanadigan harakatni vujudga keltiradi. Shunday zanjir hosil bo‘ladi:

So‘z → obraz → his-tuyg‘u → harakat → hayot

---

<sup>3</sup> Kibernetik – kibernetikakaga oid. Kibernetika axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shug‘ullanadigan fan. Kibernetik tizimlarga kompyuter, inson miyasi, kishilik jamiyati misol bo‘la oladi.

Insonning ongi va qalbida soʻzlar bilan ifodalangan ijobiy yoki salbiy dasturlar boʻladi. Ijobiy dasturlarga misol:

- Olam adolatli.
- Koinot toʻkin-sochin.
- Odamlar mehribon.
- Men ota-onamdan minnatdorman.
- Men oʻzinga ishonaman.
- Men kuchliman.
- Hamma kishi menga yordam beradi.

Salbiy dasturlarga misol:

- Olam adolatsiz.
- Hamma yoqda firibgarlar.
- Hamma odam dushman.
- Hamma narsa pulga bogʻliq.
- Vaqtim yoʻq.
- Pulim yoʻq.
- Men buni hazm qilolmayman.

Salbiy dasturlar inson hayotiga oʻz mazmuniga muvofiq noxush voqealarni jalb qiladi va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ijobiy dasturlar esa baxt-saodat va salomatlik garovidir. Shuning uchun har bir odam ongidagi salbiy dasturlarni aniqlab, ularni ijobiy dasturga aylantirishi lozim.

Tilning tuzilishi

Til tuzilishiga koʻra murakkab hodisa boʻlib, u bir-biri bilan uzviy bogʻlangan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lugʻat boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko'rsatkichlarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning lug'at boyligini tashkil qiladi.

Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning grammatik qurilishi belgilaydi.

Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatik qurilishi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bo'lishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi.

### Til va jamiyat

Jamiyat kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmuidir. Bu hamkorlik kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'daniy sohalarda, moddiy ishlab va mehnat jarayonidagi uzviy birligidan iboratdir. Inson jamiyatdan tashqarida yashayolmaydi, balki jamiyatda tug'iladi, kamol topadi, yashaydi va rivoj topadi. Umuman inson tushunchasi jamiyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun sotsiologiya va iqtisodiyotda insonning ta'riflansa, jamiyat inson orqali ta'riflanadi – bu ikki tushuncha bir-biridan ajralmasdir. Inson va jamiyat o'zaro dialeklik butun bo'lak munosabatlarida turgan butunliklardir – inson jamiyatning bir bo'lagi, tarkibiy qism bo'lganligi uchun ham insondir. O'z navbatida jamiyat insonlarni xilma-xil munosabatlar bilan birlashtirilganligi sababli jamiyatdir: biz turnalar va bo'rilar to'ldasini jamiyat deb ayta olmaymiz.

Jamiyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri tildir. Til jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi eng muhim omillardan biridir. Tilshunoslik bo'yicha fanlardan sizga ma'lumki, tilning o'zi murakkab hodisa bo'lib, u:

a) ma'lum jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy va majburiy bo'lgan UMIS tabiatli imkoniyatlar majmuasidan iborat bo'lgan lison,

b) bu imkoniyatlarning bevosita voqealanishini tashkil etadigan AHVO tabiatli nutq,

d) shu imkoniyatlarning yuzaga chiqish shart-sharoitlari va shakllarini belgilovchi me'yor kabi tomonlarning dialektik birligidir. Kishi o'z tafakkur tarziga, farqlash qobiliyati va imkoniyatlariga qarab so'zlaydi-lisoniy imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu uning bilim va ma'naviy saviyasiga hayotiy

ko‘nikma va tajriba, dunyoqarashlariga bog‘liq. Qolaversa, har bir inson xarakteri va didi, ma‘naviy olami, tafakkur ko‘lami-yu madaniy saviyasi, ichki ruhiy dunyosi va iste‘dodi, yashash muhiti, jamiyatning taraqqiyot darajasi kabi yuzlab omillar ta‘sirida turlicha nutqqa ega dir, ya‘ni linoniy imkoniyatlardan turli daraja, saviya va maqsadlarda foydalanadilar va so‘zlovchining nutqidan uning madaniy saviyasi, ijtimoiy mavqei ,tafakkur tarzini sezish qiyin emas. Bu omilni alisher navoiy «Muhokamatul lug‘atayn»da alohida ta‘kidlab o‘tadi. Xalqi-miz ham «Suratiga emas, siyratiga boq» maqolida insonning tashqi qiyofasiga emas, ichki olamiga e‘tibor berishi lozimligini ta‘kidlaydi. Yus Hos Hojib «Qutadg‘u bilig»da tilning mohiyatiga bag‘ishlangan boblarida so‘z insonning ichki olamini – saviyasi va ruhiyatini, tafakkur tarzini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita deb baholaydi. Xuddi shunday ta‘rifni til va nutqqa – faqat XVIII va undan keyingi asrlarda Yevropaning buyuk olimlari Frans Bopp, Avgust Shleyxer, Yakob Grimm, German Paul, Vilgelm Gulboldt, Karl Marks, Ferdinand de Sossur kabilar ham takrorlashdi. Inson va til (nutq qobiliyati) qanday bir-biridan ajralmas bo‘lsa, til va jamiyat ham shundaydir.

Til – ijtimoiy hodisa ekan, hamisha jamiyat bilan birga rivojlanishdadir. Tilning davriy va mintaqaviy bo‘linishi va o‘zgarishi sizga dialektologiya, arxeologiya, til tarixi o‘quv fanlaridan ma‘lum.Lekin bir jamiyatning o‘zidagi har qanday holat – hatto bir hudud va davrda jins, yosh, kasb-korga ko‘ra bo‘linishlar ham tilda o‘zini namoyon qiladi.

V. Zveginsevning fikricha, jamiyatning ijtimoiy tafovutiga ko‘ra til hodisalari 3 guruhga bo‘linadi:

- 1.Tilning ijtimoiy va maxsus ishlatilishi.
2. Maxsus tillarning yaratilishi.
3. Ommaviy (milliy) tilning ijtimoiy va kasbiy faqlanishi

A.Samoylovich esa oltoy turklari tilidagi ayol leksikasi va erkak leksikasi paralle-lizmi haqida shunday qiziqarli ma‘lumot keltiradi:

| Umumiy shakl | Ayollar nutqida | Erkaklar nutqida |
|--------------|-----------------|------------------|
| Bo‘ri        | uluchi          | poro             |

|       |       |      |
|-------|-------|------|
| Bola  | uran  | bola |
| Tovuq | uchar | qush |
| Tish  | azu   | tish |
| Ot    | unaa  | at   |

Tilda sinonimiyani vujudga keltiruvchi va ijtimoiy hodisalar ta'sirida ro'y beradigan hodisalardan yana biri argo, jargo, iboralar, tabu va evfemizmlardir. Tilimizda ko'kidan, kabutar, malax, soqqa kabi so'zlar jargonlar bo'lib muayyan ijtimoiy qatlam nutqiga xosdir. Kishilar dunyoqarashi, tushuncha va e'tiqodlariga ko'ra so'z va tushunchalarga yangi ma'no berish hodisasi uchraydi. Masalan: ilon – arg'amchi; o'lmoq – vafot etmoq, dunyodan ko'z yummoq, olamdan o'tmoq, dunyodan rixlat qilmoq, fano bo'lmoq, foniyl dunyodan boqiyga safar qilmoq v.h.; pes bo'lmoq-oqarmoq; tug'moq – yengil bo'lmoq, xlos bo'lmoq, ko'zi yorimoq v.h. Bu tarzda qo'llanishlarning ba'zilar etika, madaniyat bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilar qo'rquv, irim (go'yoki ilonning nomini yoki pes kasalini (narsa nomini) atash shu narsani chaqirish bilan bilan teng kabi shomoniy qarash)larga asoslanadi.

Tilning ijtimoiy o'ziga xos ko'rinishlari haqida gapirganda, bunday xoslanish avvalo leksikada – semantika, frazeologiya va stilistikada sodir bo'lishini unutmaslik kerak. Bunday xoslanish leksikada shu darajada kuchliki, ayni bir jamiyatning nafaqat erkag-u ayollari, balki yosh-u keksalarning, avom va zodagonlarning so'zlari, uslublari farqlidir.

Jamiyatning tarkibiy qismi, o'ziga xos subutiy belgilardan biri madaniyatdir. Mada-niyat muayyan tarixiy davrda xalq va millatning mehnat, turmush va badiiy sohalarni o'ziga qamrab oluvchi ma'naviy tushunchadir. Til – madaniyat belgisi. Tilsiz madaniyat bo'lmaydi. Til va madaniyat o'zaro uyg'unlikda rivojlanadi. Ko'pgina olimlar jamiyatning madaniyat darajasi bilan uning tilini baholasa, boshqa bir guruh til orqali ijtimoiy madaniyatni belgilaydi. Har ikkala guruh ham o'zicha haqdir, zero ki tarixiy, tugab ketgan, lekin tili va yodgorliklari saqlab qolingani jamiyatning madaniyatini, ruhiyatini, olamni tushinish tarzini biz uning til vositasida bemalol tiklay olganimizdek, yuksak madaniyatga ega jamiyat tili haqida ham madaniyati orqali aniq e'fifmmgk hosil qilamiz. Bu haqda V. Zveginsev shunday yozadi: "Tilshunoslik qoloq madaniyatli xalqlarning tilida jins (umumiy) tushunchasini ifodalovchi so'zlar yo'qligi (masalan, umuman daraxt yoki hayvonni bildiruvchi so'zlar yo'q lekin ularning tur va zotlarini ifodalavchi

keng tarmoqlangan nomlar majmui mavjud) va sozlarni o'ta xususiy belgilariga ko'ra tasniflovchi formantlar mavjudligi haqida boy material to'plagan".

Tilimiz, nutqimiz – madaniyatimiz, ma'naviy olamimiz ko'zgusi. Shuning uchun tili-miz qanchalik go'zal, be takror, samimiy bo'lsa, madaniy saviyamiz ham shunga ko'ra anglashiladi. Har bir xalqning o'z madaniy muhiti va tafakkuriga mos ravishda lisoniy imkoniyatlari mavjud.

Fan taraqqiyoti, siyosiy va iqtisodiy sharoit ham tilda namoyon bo'ladi. Kundan-kunga yangi so'z va tushunchalar paydo bo'lmoqda, maxsus va sun'iy tillar yaratilmoqda, sohaviy va ilmiy stilistika rivojlanmoqda. Madaniyat – insoniy ong mahsuli ekan, u til bilan dialektik aloqada, birlikdadir.

Til rivojlanishining tashqi (ekstralingvistik) omillari deganda tilning jamiyat – birinchi navbatda uning madaniyati bilan bog'liq ravishda taraqqiyoti tushuniladi. Jamiyat va uning madaniyati rivojlangan bo'lsa unda so'z san'atkorlari tomonidan ishlangan, pardozi va jilo berilgan adabiy til ham ustuvor bo'ladi.

Jamiyatda fanlarning taraqqiyoti uning tilida ilmiy atamalarning, murakkab ilmiy tushunchalarni, jarayon va tavsiflarni ifodalovchi so'zlar va uslubning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Tilning qo'llanish sohasi keskin kengayadi, u uzluksiz rivojlanadi, yangi-yangi so'z va tushunchalar bilan boyiydi.

Jamiyatning siyosiy tuzumi, ishlab chiqarishning yetakchi usuli ham tilning taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, ibtidoiy tabiiy-ovchilik va ko'chmanchi chorvachilik xo'jalik usuli yetakchilik qilgan davrda tillarning qorishuvi, o'zaro yaqinlashuvi kuchli bo'ladi, keskin shevaviy farqlar sezilmaydi. Aksincha, uzoq shahar madaniyati, o'troq dehqonchilik xo'jalik tarzi mahalliy shevalardagi farqlarni chuqur-lashtiradi. Bu shu darajaga borib yetishi mumkinki bir tilning ikki shevasi vakili bir-birini tushuna olmasligi mumkin. Xitoy tili shevalarida xuddi shu holatni kuzatish mumkin. O'zbek, ozarbayjon, turk, uyg'ur kabi turkiy tillarning sershevaligi, shevalararo kuchli farqlarning mavjudligi ayni shu hodisa bilan bog'liq.

Bozor iqtisodiyoti, sanoat ishlab chiqarish usuli, fan va taraqqiyoti, ta'lim va madaniyat rivoji, matbuotning xilma-xil vositalarning ommalashuvi ma'lum bir xalq-ning turli mintaqa va hududlarini, demak, tillarini ham yaqinlashtiradi; jamiyatda me'yorlashtirilgan, san'atkor va olimlar tomonidan ishlangan shevalardan yuqori turadigan koyni – adabiy tilning keng ommalashivuga sabab bo'ldi. Shuning uchun sersheva bo'lganiga qaramay fransuz, nemis, ingliz tillarida axborot vositalarida so'zlashuv nutqida ham, jonli muloqot va suhbatlarda ham shevaviy fonetik va leksik farqlar sezilmaydi – ommaning madaniy saviyasi

yuksak va hamma adabiy me'yor-larga rioya qilish ko'nikmasiga ega. Bu davrda adabiy til maktab, matbuot, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot, ishlab chiqarish orqali sheva farqlarining yo'qolishiga, adabiy tilning keng ommalashishi va me'yorlashishiga olib keladi.

Jamiyat tilning rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Bu holat ko'pincha jamiyatda nomilliy mafkura hukmronligi davrda yuz berdi. Bunday davrlarni xalqimiz IX–XI, XII–XV asrlarda, XX asrning 40–80-yillarda boshidan o'tkazdi. Malumki, turkiy xalqlarning islom dinining qabul qilinishida somiy(arab) eroniy xalqlarning ta'sir va tayziqi kuchlidir. Shu sababli IX-X asrlarda hukmron doira orasida arab va fors tilida so'zlash, ilmiy-badiiy asarlarni ham shu tillarda yozish avj oldi. Turkiy til qo'pol deb tahqirlandi. Bu davrlarda turkiy til ko'chmanchi-sahroiylarning so'zlashuv tili, o'choqboshi tili bo'lib qoladi. XI asrda qoraxoniylar davlatining yuksalishi bilan maydonga turkiy til bahodiri – Mahmud Qoshg'ariy chiqadi. Olim “Devonu lug'otit turk” asarida turkiy tilning arab tili bilan poygada chopayotganda arab tilidan o'zib ketayotgan uloqchi otga qiyoslaydi. XI–XII asrlarda turkiy adabiy tilning mavqeyi tiklandi. U davrdan bizgacha shoh asarlar yetib keldi. XIII–XV asrlarda turkiy til tazyiqqa uchraydi va XV asrda yana bir turkiy bahodir – Alisher Navoiy maydonga chiqadi-yu, qalami bilan jahonni zabt etib, XIX asrning o'rtalarigacha hukmronligini davom ettiradi.

XX asrning 40-yillarida o'lkamizda rus tilining tazyiqi kuchaydi. Bu ta'sir yildan-yilga oshib, 80-yillarda “zamonaviy va madaniyatli” o'zbeklar o'z ona tillarida gapi-rishga uyaladigan bo'lishdi. Tilimiz yana o'choqboshi tilga aylanishiga sal qoldi. 1988-1989-yillarda o'zbek milliy tili haq-huquqlarini tiklash uchun rosmiyan kurash boshladi. Bu harakat 1989-yilning 21-oktabrida davlat tilidagi qonunning qabul qilinishi va tilimiz taraqqiyotiga yangi taraqqiyot davri – milliy istiqlol davrining boshlanishi bilan amalga oshdi.

Til – taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa

Til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin.

O'zbek tili - o'zbek millatining tili, o'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o'zbek adabiy tilining mavqei beqiyos darajada o'sdi,

xizmat doirasi kengaydi, lugʻat tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta oʻzgarishlar yuz berdi.

Oʻzbek milliy tili hozirgi oʻzbek millatiga mansub boʻlgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U oʻzbek millatining shakllanishi bilan bevosita bogʻliq. Oʻzbek millati shakllangunga qadar u urugʻ tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi.

Oʻzbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lugʻat tarkibida jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan soʻzlar va boshqa tillardan qabul qilingan soʻzlar hisobiga boyib borishi koʻzga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xoʻjaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi koʻpgina oʻzgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi oʻzbek tili leksikasining koʻpgina yangi soʻzlar hisobiga hamda boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar hisobiga boyishiga sabab boʻldi. Masalan: broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes va h. Ayrim oʻzbekcha soʻzlarning maʼnosida oʻzgarishlar roʻy berib, ular boshqa maʼnolarda qoʻllana boshladi. Masalan: ishbilarmon va tadbirkor soʻzlari ilgari sifat turkumiga mansub boʻlib, belgi ifodalagan boʻlsa, hozirgi paytda bu soʻzlar ot turkumiga oʻtdi va shaxs maʼnosini ifodalaydigan boʻldi. Bu jarayonlarning barchasi oʻzbek tili lugʻat boyligini yangi pogʻonaga koʻtardi.

Oʻzbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham maʼlum oʻzgarishlar sodir boʻldi.

Jumladan, fonetik tizimda, oʻzlashma soʻzlarda oʻzbek tiliga xos boʻlmagan boʻgʻinning yangi turlari (soʻz boshida va soʻz oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo boʻldi: sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress kabi. Shuningdek, oʻzlashma soʻzlarda ikki unlining oʻzbek tili uchun xos boʻlmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema kabi.

Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim koʻmakchilarning maʼnosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va koʻmakchili boshqaruv meʼyorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan soʻz birikmalari koʻproq qoʻllana boshladi.

Oʻzbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bogʻliq ravishda davom etadi.

## Til va tafakkur

«Tafakkur-obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati»(O'TIL) bo'lib fikrlash jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va tushunchalarga asoslanadi. Tafakkur inson sezgi organlari va hislari yordamida aniqlangan belgilarni idrokda yanada mustahkamlabgina qolmay, ularning ichki xususiyatlarini, qonuniyatlarini, mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Muayyan mantiqiy bilish-voqelikni inson ongida haqqoniy (adekvat) va puxta tasavvur etilishida asosiy ro'l o'ynaydi. «Tafakkur yordami bilan voqelikning

umumiy tomonlarini aks ettirish orqali biz yakka, konkret predmetlar mohiyatini ham bilib olamiz. Tafakkur orqali biror narsani bilish uchun avvalo u haqda tushuncha hosil qilish zarur. Ongimizda predmet haqida tushuncha hosil qilishda umumiy qonun va tushunchalardan foydalaniladi. Masalan, suv molekulasida vodorod va kislorod atomlaridan iborat bo'lgan murakkab kimyoviy modda ekanligini bilamiz. Bu o'rinda «murakkab kimyoviy modda», «vodorod» va boshqa shu kabi tushunchalardan foydalanib, hodisani umumiy qonunlarga moslashtiramiz.»

Tafakkur va fikrlash jarayoni bilish nazariyasi, psixologiya va nevrofziologiya, shuningdek kibernetikada aqliy amaliyotlarni texnik modelashtirish masalalari bilan bo'g'liq shakllarda o'rganiladi. Tafakkur individual (subyektiv) va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Har bir inson o'ziga xos fikrlash qobiliyatiga ega, lekin u hech qachon jamiyat ongi, qoidalari va tafakkuridan ayri holda yashay olmaydi.

Biz tafakkurning til bilan zich aloqadorligi xususidagi ta'kidni takror va takror eslatib o'tishimiz zarur. Tafakkur til shaklida voqelanadi, tilning o'zi tafakkur hamdir. Aniqlik, hech birimiz o'z fikrlash qobiliyatimizni tilsiz tasavvur etolmaymiz - til vositasida biz o'ylaymiz, fikrlaymiz. Biologik nuqtai nazardan odam fikrlovchi hayvon, ya'ni tafakkur qobiliyati insonni hayvondan ajratadi. Tafakkur esa til, so'z orqali yuzaga chiqadi. Shu bois Mir Alisher:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

deb so'zni shuncha ulug'laydilar.

O'TILda «til» tushunchasiga quyidagi izoh keltiriladi: «Fikr ifodalash va o'zaro aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan tovushlar, so'zlar va grammatik vositalar sistemasi.» Bu ta'rifda tilning kommunikativ vazifasiga urg'u beriladi. Boshqa manbalarda esa tilning abstratik, umumlashgan gnoseologik munosabati ham

e'tiborga olinadi.»YAzik nerazrivno lsvyazan s mishleniem sotsial'nim sredstvom xraneniya i peredachi informatsiib odnim iz sredstv upravleniya chelovecheskim povedeniem(SES) Umuman olganda, til va tafukkur muammosi juda keng qamrovli masala hisoblanadi, bu boradi yaratilgan ko'plab tadqiqotlar yorqin dalildir.

Tilsiz tafakkur bo'lmaydi. Biz istagan predmet, voqea yo hodisa haqida til vositasisiz, hech bo'lmaganda undovlarsiz o'z fikrimizni , tushunchalarimizni ifodalay olmaymiz. Obyektiv voqelik inson ongida aks etar ekan, u so'zlar orqali belgilanadi, so'zlarda shakllantiriladi va til-ong xazinasining bo'lim va bo'limchalarida istagan vaqtda osonlikcha topish va foydalanish uchun eng qulay tarzda joylashtiriladi, muhrlanadi. Misol uchun yog'ayotgan qorga qarab:Qor yog'yapti yoki Qor singari birikmalar tasavvurimizdan o'tadi. Demak, til birliklari nafaqat « Qor yog'yapti.» kabi fikrni yetkazish, uzatish uchun, balki uni tafakkurda aks ettirish, qabul qilish shakllantirish va xotirada saqlashga xizmat qilmoqda. Bizning tafakkurimiz shu darajada til bilan birikib, bir-biriga singib, omuxtalashib ketganki, ularni ajratishga, ya'ni fikrlash , so'zlash jarayonlarin, shuningdek ichki nutq imkoniyatlarini farqlashga, ularni tildan ajratishga hojat sezilmaydi . Insonning go'daklik umrining oxirgi kunigacha oladigan ta'limi so'z va til vositasida amalgam oshadi. Shuning uchun olimlar tilning ma'rifiy va ta'limiy – inson tafakkuri mahsulining avloddan-avlodga yetkazish vazifasini alohida ajratadilar. Haqiqatdan ham, biz ta'limni tilsiz tasavvur eta olmaymiz. Demak, til bilish jarayoning muhim sharti.

Diqqatga sazovor yana bir jihat borki, tafakkursiz til ham mavjud emas. Agar biz o'ylamay og'zimizga kelgan so'zlarni tizaversak (masalan: g'adur , gadur, bubak, baban v.h), bu biz uchun ham, hech qanday ma'no kasb etmaydi, ya'ni muayyan tushunchani , tasavvurni hosil qila olmaydi. Hatto, valdirash, alahsirashday tuyiladi, xolos. Demak, bu til ham nutq ham emas! Shuning uchun Alisher Navoiy bundan qaryib olti yuz yil muqaddam «Muhokamatul lug'atayn» asarida: «alfoz iborotdin murod ma'nidur»,-deb tildan ma'no tafakkur ekanligini qisqa va purma'no darj etgan edilar. Til va tafakkur ajralmas ekanligini oddiygina bir misolda ko'rsatish mumkin. Biror tanishingizni ismi esingizdan chiqsa , uni atashga qiynalasiz , har xil belgilarni sanaysiz (Zilola-oppoq, kulcha yuzli, ko'k koftali, tilla sirg'asi bor v.h), baribir ismini eslamaguncha aniq ifodalay olmaysiz. Yoki aksincha ma'nosini bilmaydigan so'zni bermalol o'qiysiz, lekin ma'nosini tushunmaysiz. Xuddi shunday bilmagan tilda (xorijiy , notanish tilda) xatni o'qish (yoki nutqni eshitish ham).Siz o'qiy olasiz ,lekin mutlaqo hech narsani tushunmaysiz. Bu til siz uchun na tafakkurga ta'sir etishi, na axborot uzatish, fikr bildirish, ilg'ash funksiyasini bajara oladi. Demak, bu notanish til siz uchun til

ham, tafakkur ham bo‘la olmaydi. Mana shuning uchun , o‘zga bir tilni egallash boshqa xalqning tafakkur tarzini o‘zlashtirish demakdir.

Til va tafakkurning ajralmasligi , lekin bir narsa emasligi, har bir xalqning tafakkur tarzining o‘ziga xosligi va bu uning tilida o‘zining yorqin aksini topishini Mir Alisher mazkur asarida turkiy va forsiy tillarning leksikasi va grammatik tizimini taqqoslash orqali isbotlab bergan edi. Turkiy til leksik va grammatik boyliklarining zamiri sifatida Mir Alisher «turk sortdan tez-fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq»lik asosini ko‘radi, buni turkiy tilda mavjud bo‘lib forsiy tilda o‘zining muqobillariga ega bo‘lmagan yuzlab so‘zlar va qator grammatik shakllarning ma’no va vazifalarini qiyoslash bilan isbotlaydi. Bunndan biz til va tafakkur ajralmas bo‘lsa-da, bir narsa emasligiga qanoat hosil qilamiz.

Xullas, til va tafakkur munosabati o‘zaro dialektik munosabatda bo‘lib, birgalikda rivojlanish qonuniyatlariga amal qiladi. Demak, dialektik aloqadorlikdagi bu ikki hodisa ajralmas, bir-birini taqozo etuvchi murakkab butunlikdir, shuning uchun ularni o‘rganuvchi fan sohalari ham zich aloqador, lekin bir emas. Tafakkur tarzini mantiq fani, tilni esa tilshunoslik(lingvistika)o‘rganadi. Siz bu fanlarning har birini alohida-alohida o‘rganasiz.

Til – ramziy tizim

Ramz tushunchasi keng ma’noli bo‘lib, turli ma’nolarda qo‘llaniladi. Olimlar tomo-nidan ramz atamasiga ta’rif berish har xildir Ba’zi bir olimlar ramz – kim uchundir nimanidir (xususiyat yoki munosabatni ) almashtira oluvchi, biror nimaning qulaylik uchun o‘rnini egallovchi narsa deb hisoblasa (masalan, J.Birs), boshqa bir nuqtayi nazar egalari “boshqa bir narsalarni o‘zining tabiiy xususiyatlari orqali emas, balki insonlar tomonidan kelishilganlik, qabul qilinganlik asosida anglatish uchun yaratilgan mod-diylik” sifatida talqin qiladilar. Qomusiy adabiyotlarda esa ramz (rus znak,.ingilizcha-singe, nem.-Ziechen) tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

1. Ramz (znak) – moddiy (material) qabul qilinadigan narsa bo‘lib, hissiy bilish jarayonida va odamlar orasidagi munosabatda biror bir predmet yoki predmetning muayyan xususiyati, munosabatini ifodalash hamda axborot saqlash va uning ma’lum bir komponentini uzatish uchun xizmat qiladi.

2. Ramz (znak)-boshqa bir predmetning, belgi yoki munosabatning vakili sifatida namoyon bo‘luvchi va axborot (informatsiya, bilim)ga ega bo‘lish, saqlash, qayta ish-lash va uzatish uchun ishlatiladigan moddiy predmet (hodisa)».

3. Ramz (znak) boshqa bir narsa, voqea hodisa harakatni atash, ifodalash, undan xabar berishga xizmat etuvchi va bevosita kuzatishda berilgan (sezgi organlariga ta'sir etadigan) moddiylik.

Odatda ramz ishora, belgi va timsol (simvol) tushunchalariga sinonim tarzida ishla-tiladi. Ammo ular orasida ma'lum farqlar mavjud. Belgi asosan predmetning ma'lum xususiyati, muhim, ajralib turuvchi sifatida bo'lsa, timsol muayyan bir g'oyaning, ideal hodisaning moddiylashtirilgan ifodalanishi, narsaning o'zi emas, balki uni eslatib turuvchi, ko'z oldimizda gavdalanitiruvchi ma'nosiga ega bo'lib, unda ko'pincha ko'ta-rinkilik, tantanavorlik bo'yog'i, qo'shimcha ma'nosi xosdir: Kabutar – tinchlik timsoli. Ramz esa biror bir predmet, voqea hodisa va xususiyatga ishora qiluvchi, anglatuvchi, uning o'rnida kela oluvchi, uni muloqot jarayonida almashtira oluvchi moddiylik bo'lib, timsol atamasiga xos bo'lgan bo'yoqlardan xolidir.

Fanda, jumladan tilshunoslikda yana bitta atama - ishora so'zi ham, ba'zan shartli belgi so'z birikmasi ham shu ma'noda qo'llaniladi. Bu atamalarning qo'llanishidagi farq keskin emas, bib-birini bimalol almashtira oladi. Biz asosan ramz atamasidan foydalanamiz. Chunki bu so'zda biz uchun ifodalanishi zarur bo'lgan ma'no- "narsaning (ataluvchi, nomlanuvchining) o'zi emas, balki boshqa, lekin uni eslatuvchi moddiylik" tushunchasi boshqa atamalardan ko'ra yorqinroqdir. Ramz muayyan mazmunni, g'oyani boshqalarga yetkazish vazifasini bajaradi. Chunonchi, yo'l chetidagi qoshiq, vilka tasvirli ramz yaqin yerda oshxona, tamaddi qilish imkoniyatini mavjud joyni bildiradi – oshxona ramzidir.

Ramz uchun umumiy ontologik (tabiiy, zotiy) xususiyat o'zi sezilib boshqa narsa haqida axborot (diqqat: narsaning o'zini emas!) berishdir. Ana shunday ikki tomonli moddiylik ramz sanaladi. Ramzning ikki tomonliligi uning -a)moddiy (material), tashqi, zohiriy, ochiq darakchi (ifodalovchi) tomon va b)ma'noviy (mazmuniy, ideal), ichki, botiniy – xabar (ifodalanmish) tomonlardan iborat bo'lishida namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, istagan ism, nom shartli belgi, u ixtiyoriy shu bilan birga jamiyat uchun majburiydir. Bunda istalgan predmet yoki xususiyat istalgan predmet, hodisaning ramzi bo'lib kelishi mumkin. Misol uchun, svetofo'r chiroqlari ma'lum vazifani bajaradi. Qizil chiroq to'xtash, yo'lning berkligi ma'nosini bildiradi. Ammo bu qizil rang «to'xtamoq» ma'nosini ifodalaydi degani emas. Qizil rangning o'zi to'xtash ma'nosi bilan hech qanday zotiy, tabiiy aloqada emas. Bizda qizil rang kishilar ongida turlicha g'oyalarni-jo'shqinlik, qon, yoshlik, sevgi v.h. bildirga olishi mumkin. Bundan tashqari, semaforning «to'xtash» ma'nosini anglatuvchi chirog'i sifatida istalgan rang olinishi mumkin edi, lekin

jamiyatimizda shu rang mana shu ma'noda qo'llaniladi, ijtimoiy kelishilgan va yo'lovchilar uchun majburiy, qat'iydir. Bu yerda darakchi va xabar orasida bo'g'lanishning ixtiyorligi va ijtimoiy majburligi yorqin namoyon bo'ladi.

Yoki yana bir misol. Yo'tal, odatda shamollash yoki tumovning belgisi. Bu tabiiy, biologik ramz. Yo'talni shartli-ijtimoiy ramzga aylantirish mumkin. Masalan ikki kishi (Rahimjon, Salimjon) o'zaro kelishib, shartlashmoqda. Rahimjon:

– Quyosh botishi bilan boraman.

– Xonamga kirayotganda, yoningda hech kim bo'lmasa, 3 marta yo'talib kir. Sen ekanligingni bilaman va o'rnimdan turaman.

Bu holda kasallikning tabiiy ramz-belgisi bo'lgan yo'tal tamoman boshqa ijtimoiy vazifada – ma'lum bir kishi uchun ma'lum bir kishi kelayotganligini ifodalash uchun sun'iy ijtimoiy ramziy qo'llanilmoqda.

Istagan sun'iy ijtimoiy ramz ma'lum bir jamiyatdagina (yuqoridagi misolda ikki o'zaro shartlashgan kishilar Rahimjon va Karimjon orasida) va faqat boshqa bir ramz bilan bog'lanib butunlik-sistema tuzgandagina belgilangan belgilangan bir vazifani bajara oladi va yashay oladi. Yuqoridagi misolda ham yo'tal ramzi yo'talning eshitil-masligi ham bir xil ahamiyatga ega. Shuning uchun sun'iy ijtimoiy ramzlarning ya-shash tarzi ma'lum bir butunliklarda, sistemalarda birlashishdir. Bunday sistemalar – ramziy sistema deyiladi.

Demak, istalgan narsa yoki harakat ma'lum bir ramziy tizimda sun'iy ijtimoiy ramz sifatida istagan turdagi voqea-hodisa, g'oyaning darakchisi, xabarchisi sifatida voqealanishi mumkin. Bu esa jamiyat uchun juda ulkan va qulay imkoniyatlar yaratib beradi – bitta oddiygina ramzda juda katta miqdordagi axborotni hech qanday zid-diyatsiz mujassamlashtirish-kodlashtirish, turli tuman shakllada unga ishlov berish, saqlash, qabul qilishga yo'l ochadi. Jamiyatimizda bu masalalar bilan shug'ullanuvchi va ommaviy yutug'i zamonaviy kompyuterlar bo'lgan maxsus fan – semiotika fani mavjuddir. Sizga maktabdanoq tanish bo'lgan informatika fani mana shu semiotikaning bir tarmog'idir.

Faqat matematika fani doirasida yana o'ndan ortiq ramziy tizimlarni sanash mumkin. Shuning uchun ayta olamizki, ramziy tizimlar har qadamda uchraydi va bu tizimlar ichida eng ommaviy, eng kengtarqalgan va eng kattasi tilimizdir. Tilimiz ham ramziy sistema bo'lib, shu tizim qonuniyatlari asosida yashaydi, ishlaydi va rivojlanadi. Shu sababli tilni o'rganuvchi fan – tilshunoslikni Ferdinand

de Sossur semiotikaning bir tarmog‘i deb tasniflangan edi. Endi shu masalaga to‘xtalamiz.

“Til g‘oyalarni ifodalovchi ramzlar sistemasi, nutqiy qobiliyatning ijtimoiy mahsuli, ijtimoiy jamoa tomonidan hosil qilingan zaruriy ramzlar majmuidir”, – degan edi tilshunos Ferdinand de Sossur. Haqiqatan ham, mohiyatga e‘tibor tabiiy til o‘zining xususiyatlari bilan ramzlar tizimini eslatadi. Chunonchi, voqelikdagi bitta predmetni, masalan, har kim va har kun foydalanadigan suyuqlik - suvni olaylik. O‘zbek bu suyuqlikni suv deb, tojik ob deb, rus voda deb, arab mo‘ deb, ingliz watter deb v.h. ataydi. Nega bir xil suyuqlikni besh xalq besh xil nomlaydi? Buning sababi shuki, narsaning nomi bilan narsaning o‘zi orasida hech qanday tabiiy-ontologik bog‘lanish yo‘q. Aks holda, bir denotatning nomi turli tilda bir xil bo‘lardi.

Til har bir jamiyat uchun «azaldan tayyor», qabul qilinishi umumiy, majburiy bo‘lgan avlodlar merosi hisoblanadi. Jamiyat a‘zolari tilning qanday paydo bo‘lganini, uni kim yaratgan-u, kim tuzganini, undagi ramzlarni kim hosil qilganini kabi masalalar bilan, tabiiyki, qiziqmaydi. Kundalik hayotimizda, jamoadoshlarimizga: «Nega bu predmet nomi shunday(masalan, kitob)?» degan savolni hech kim bermaydi. Jamiyat a‘zolari tilni «qanday bo‘lsa, shundayligicha» qabul qilib ko‘nikishgan. Ular ramzlarning ichki xususiyati, tarixi v.h. bilan qiziqishqishga yoki bir ramz o‘rnida boshqa ramzni qo‘llashga ehtiyoj sezmaydi. Hatto o‘zgartirmoqchi bo‘lsa ham, o‘zgartira olmaydilar: til alhida kishilarning farmoni va xoxishiga bo‘ysunmaydi.

Tilning qurilish birliklari bo‘lmish fonema, morfema, leksema va qoliplarning fone-madan tashqari barchasi ramzdir. Chunonchi, -lar unsurining tashqi darakchi tomoni tilda ma’lum fonemalarning barqaror butunligi bolsa, uning ichki – xabar tomoni o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan son kategoryasining ko‘plik shakli uchun xos bo‘lgan ma’nolarni ifodalash va vazifalarni bajarishdir. -lar unsurida bu ikki tomonning bog‘lanishi zotiy va tabiiy emas; jamiyatdan bu bog‘lanishni tayyor holda qabul qildik va unga rioya qilamiz. Demak, bu unsurda tomonlarning bog‘lanishi shartli, konvensionaldir va -lar ramz mohiyatiga ega.

Leksemaning ramziy tabiati yuqorida ko‘rib suv so‘zi misolida ko‘rsatiladi. Qolip-lar (qurilmalar) esa tilda morfema va leksemalar asosida tuziladi va qurilish materiali ramziy mohiyatga ega bo‘lgach, qurilmalar ham shunday mohiyatga ega bo‘lishi shart.

Inson insonligining muhim belgilaridan bo‘lgan til mohiyat va qurilish jihatdan ramziy tizim. Lekin u boshqa ramziy tizimlardan keskin farq qiladi. O‘tgan asrning

bosh va o'rtalarida (Sossur va ilk sutruktalizm davrida ) tilning ramziy tizim ekanligiga alohida urg'u berilar-bu o'sha davrda tub yangilik edi. Hozir esa tilning boshqa ramziy tizimlardan farqiga urg'u berish asridir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tabiiy til barcha ramziy tizimlardan ustun, chunki u istalgan sun'iy ramziy tizimni almashtira olishi mumkin. Aslida barcha ramziy tizimlar lisoniy tizim asosida shakllanadi, ular-ning asosida tabiiy til yotadi. Tabiiy tizimlar birlamchi-ikkilamchilik asosida tasnif etishda til birlamchi, qolgan barcha sun'iy ramziy tizimlar uchun asos ularni almashtira oladigan tizim sifatida tasnif etiladi, ikkilamchi ramziy tizimlar qulaylik uchun sof pragmatik maqsadlarni ko'zlab tuziladi. Chunonchi:  $2a^2 + b^2 - c^3 = 0$  tenglamasida  $2a^2$  xonasini lisoniy ifodalaydigan bo'lsak, u quyidagi shaklga ega bo'ladi: "ma'lum bir sonning o'zini o'ziga ko'paytmasining ikki baravari".

Bu sakkiz so'zli ibora oldida  $2a^2$  afzalligini isbotlash kerak bo'lmas?

Til istagan sun'iy ramziy tizimni almashtira oladi, lekin biror bir boshqa ramziy tizim, qanchalik mukammal bo'lmasin, tilni almashtira olmaydi.

Til shunday ramziy tizimki, ma'lum bir jamiyatning barcha-barcha a'zolarining bar-cha faoliyat turlari uchun umumiy va majburiydir. Qolgan ramziy tizimlar jamiyatning alohida guruhlar uchun, ayrim faoliyat turlari uchun xoslangandir.


Til o'z-o'zidan rivojlanish, o'zgarish, ta'sirga berilish, jamiyat talablari asosida yangilanish, biologik organik sistemalar singari ehtiyojlarga moslashish, zaruriyatni qondirish, yetishmaydiganni to'ldirish xususiyatlariga ega, boshqa ramziy tizimlarda esa muqimlik xos, ular faqat tabiiy til asosida, ya'ni inson ongi va faoliyati orqali yangilanishi, o'zgarishi, rivojlanishi mumkin.

Til shunday ramziy tizimki, uning birliklariga darakchi va xabar nomutanosibliigi (asimmetrik dualizm) xususiyati xosdir.

Tilshunoslikda lisoniy ramz tomonlari darakchi (ifodalovchi) va ifodalanmish unsurlardan iborat deb sanaladi. Chunonchi, darakchi: k-i-t-o-b (harf yoki tovushlar tizmasi, uning ruhiy obrazi), xabar: «kitob» tushunchasi, tushuncha-borliqdagi voqelik «kitob» predmeti bilan aloqadorligi sababli lisoniy ramz, uning tomonlarining borliq va ong birliklari bilan bog'lanishlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Lisoniy ramz

/ \



Bunday bog‘lanish nafaqat lisonoy, balki istagan turdagi semiotik sistemalar uchun xosdir. Faqat nolisoniy ramziy tizimlarda ramzning ong va borliq birliklari bilan bog‘lanishi tushuncha orqali emas, balki til orqalidir – bu tizimlarda chizmdagi tu-shuncha o‘rnini til vositasida ifodalanishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir axborot egallaydi. Shuning uchun til birlamchi, qolgan barcha ramziy sistemalar ikkilamchi sana-ladi: istagan tizim ramzlari bilan ifodalanadigan axborot til vositalari bilan ifodalash mumkin, lekin tilni hech bir boshqa tizim to‘la-to‘kis almashti a olmaydi.

Til ramzlarining boshqa semiotik belgilardan yana bir qator farqlari mavjud .Bular ichida quyidagi jihatlarni alohida ko‘rsatish mumkin:

Til ramzlari uchun ommaviylik xos; ular shu tilda so‘zlovchi barcha kishilar uchun umumiydir. Boshqa ramziy tizimlar shu jamiyatning ma’lumbir guruhlari uchun xizmat qiladi.

Istalgan ramziy tizimning o‘rnini bosa oladi, zero ramziy tizimlar tilga tayanib yaratiladi.

Lisoniy ramz uchun assimetrik dualism hodisasi xos bo‘lib, u boshqa tizimlarda uchramaydi.

Lisoniy ramz o‘z-o‘zidan rivojlana boradi boshqa ramzlar o‘zgarishi insoning bevosita faol ishtiroki natijasida amalga oshadi.

Lisoniy ramzda barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘zaro muvozanatda turadi.

### Milliy (umumxalq) til va adabiy til

Qayerda yashashidan qat’i nazar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o‘zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so‘kish, qarg‘ish so‘zlari), varvarizm (tilda o‘rinsiz ishlatilgan chet so‘zlar) kabi guruh so‘zlarni qamrab oladi. Milliy tilning ma’lum qoidalariga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan,

olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqalashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud.

Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (ya'ni tovush), leksik (ya'ni so'z) va grammatik (ya'ni qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi. Xalq shevalarining faqat og'zaki shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlar lahja deb ataladi (dialekt so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi).

### Adabiy tilning belgilari

Til ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib adabiy til uning tarixiy-madaniy ko'rinishidir. Adabiy til millatning barcha vakiliga xizmat qilishi va ijtimoiy hayotning barcha sohasida qo'llanishi bilan lahja va shevalardan ustun turadi.

Adabiy tilning muhim belgilari quyidagilardan iborat:

1. Me'yoriylik. Til me'yori til vositalarini qo'llash qoidalari tizimidir. Til me'yori til tizimining barcha sathini qamrab oladi. Shunga ko'ra to'g'ri talaffuz me'yori, to'g'ri yozish me'yori, leksik me'yor va grammatik me'yor kabilar farqlanadi.

2. Umummajburiylik. Umummajburiylik deganda jamiyatning barcha a'zosi tomonidan adabiy til qo'llanishining majburiyligi, adabiy til me'yorlariga hammaning barobar rioya qilishi tushuniladi.

3. Kodifikatsiya. Bu til me'yorlarining ilmiy tavsifi bo'lib, amalga oshirilgan ish lug'at, qo'llanma va darsliklarda qayd qilinadi.

4. Og'zaki va yozma shaklning mavjudligi. Sheva va lahjadan farqli ravishda adabiy til og'zaki shakldan tashqari yozma shaklga ham ega bo'ladi.

5. Ko'pvazifalilik. Adabiy til istalgan faoliyat sohasining kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga qodir.

## 6. Uslubiylik. Adabiy til til tarmoqlangan vazifafiy uslublarga ega bo‘ladi.

### O‘zbek tili - Davlat tili

Davlat tili – har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti negizida vujudga kelgan, o‘zini anglash, milliy ong va tafakkurning in’ikosi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy – ma’naviy bog‘liqlik vositasi, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar yakdilligini ifoda etadigan, davlat doirasida va davlatlararo munosabatlarda o‘zaro muloqot vositasi hisoblangan, qonuniy maqomga ega bo‘lgan hamda qonun bilan himoyalangan rasmiy til.

Davlat tili odatda uch yo‘l bilan belgilanadi:

1.Tarixiy an’ana asosida muayyan davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillaridan birini umum til deb tan oladi.U, ko‘pincha, shu davlatdagi eng ko‘psonli millatning tili bo‘ladi.

2.Hukumat,prezident, parlament yoki rahbar organlar tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan biri davlatning rasmiy tili deb e’lon qilinadi.Davlat organlari,hukumat idoralari va rasmiy tashkilotlarda yozishmalar faqat shu tilda qabul qilinadi yoki jo‘natiladi, shuningdek, barcha muzokara, muhokama, majlis, sessiya, konferensiya, congress va shu kabi yig‘inlar ana shu rasmiy tilda o‘tkaziladi.

3.Davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qollanilishi shart deb e’lon qilingan til. Angliya , Kanada, Yaponiya, Xitoy,AQSh, Shetsiya, Norvegiya davlatlarida hech qaysi til davlat tili deb e’lon qilinmagan bo‘lsada, lekin ularda azaldan mamlakat aholisining ko‘p qismini tashkil qilgan xalqning tili davlat tili, rasmiy til sifatida tan olingan.Gvineya,Gana, Kongo kabi sobiq mustamlaka davlatlarida rasmiy til sifatida sobiq mustamlakachilar tili, masalan, ingliz yoki fransuz tili qabul qilingan.

Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi jarayoni oson kechmagan. Prezidentimizning qat’iyati va oqilona sa’y-harakatlari tufayli 1989-yil 21-oktabrda mamlakatimizda o‘zbek tili Davlat tili deb e’lon qilindi.

Shu tariqa ,xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Konstitutsiyamizda Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘I, gerbi, madhiyasi,

Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q. Xalqsiz esa til ham bo‘lmaydi. Bular egizak tushuncha bo‘lib, biridan birini ayirib bo‘lmaydi, ular ayirib qo‘yilsa, ikkisi ham o‘zligini yo‘qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo‘shilib ketsada, uning tili o‘lik tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytib o‘tish lozimki, birgina “til” so‘zi misolida ham tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini yaqqol ko‘rish mumkin. Til rivojining hozirgi holati o‘z sohibi bo‘lgan millat yoki elatning tadrijiy ravnaqi, bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, jamiyatning qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekani, iqtisodi, madaniyati, fani va ma’naviyati kabi omillarga bog‘liq.

Biz uchun esa o‘z ona tilimiz bo‘lmish o‘zbek tili azizu mo‘tabar ekani shubhasiz. Bu esa barchamizning tilimiz sofliqi, uni asrab-avaylash va takomillashtirish uchun mas’ul ekanimizni anglatadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida Prezident Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida davlat tiliga huquqiy maqom berish masalasi kun tartibiga qo‘yildi va 1989-yil 21-oktabr kuni «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida»gi alohida qonuni qabul qilindi.

Har yili 21-oktabr yurtimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. Bu yil ham turli jamoat muassasalarida, maktablarda, kutub-xonalarda, klinikalarda tegishlicha tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Qonunga asosan eng muhim qadriyatlardan biri hisoblangan til qonun darajasida huquqiy asosga ega bo‘ldi. Bu qonun bilan o‘zbek millatining ma’naviyatini, ruhiyatini, qadrini ko‘rsatadigan muhim omil, ya’ni tilning maqomi huquqiy mustahkamlandi. Mazkur huquqiy asos orqali yangi shakllanayotgan davlatning, hukumatning, uning yangi rahbarining elga, yurtga nisbatan e’tibori, ehtiromi namoyon etildi.

Til har bir millatning ulkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq, har bir elat, o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega. Tilda ana shu tilning ijodkori bo‘lgan xalq, elatning tarixi va madaniyati aks etadi. Ayni zamonda til ijtimoiy taraqqiyotda ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o‘zligining ajralmas belgisidir.

O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir. U O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili hisoblanadi. O‘zbek xalqining milliy madaniyati va o‘ziga xosligini

ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, mazkur tilning davlat tili maqomidek salohiyatini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish muhim vazifadir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda o'zbek adabiy tilini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'zbek tili davlat tili, davlat ramzi, milliy madaniyat va ma'naviyatni ifodalovchi hamda ularni kelajak avlodga yetkazuvchi muhim muloqot vositasi darajasiga ko'tarildi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar, muzokaralarda tilimiz keng qo'llanilayotgani, xorijdagi ko'plab universitetlar, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar safi tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda nafaqat o'zbek tili, balki boshqa millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hurmat qilinishi milliy qonunchiligimizda aks etgan. Uning amaliy isbotini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasidagi quyidagi norma misolida ko'rish mumkin: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

«O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida qayd etilishicha, davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi. Bu orqali davlat o'zbek tilini asrash, boyitish va rivojlantirishda mas'ullikni o'z zimmasiga olgan. Shu asosda yurtimizda o'zbek tilining boyitish va takomillashtirishga doir ko'plab ilmiy izlanishlar, loyihalar olib borilmoqda, turli sohalarga oid lug'atlar, ilmiy risolalar muntazam nashr etilmoqda. Ayni paytda mamlakatimizdagi barcha nashriyot matbaa-ijodiy uylari tomonidan ona tilimizning jozibasini bor bo'y-basti bilan namoyon etishga doir nashrlar chop etilib, kitobxonlar e'tiboriga havola etilayotganini alohida qayd etish lozim.

Shuningdek, yuqoridagi Qonunning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinishi va e'lon qilinishi belgilangan. Mazkur norma «Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida»gi Qonun 26-moddasining to'rtinchi qismida yanada aniqlashtirilgan. Unga asosan, «qonun loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan

Qonunchilik palatasiga davlat tilida kiritiladi». Ushbu normalarning ijrosi amalda ta'minlanayotganini hozirgi kunda Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalari misolida yoki Oliy Majlisda qabul qilinayotgan qonunlar o'zbek tilida qizg'in muhokama etilayotganligida ko'rish mumkin

### O'zbek adabiy tili va shevalari

Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Shevalarning bir-biriga yaqin bo'l-gan guruhlar lahja deb ataladi (dialekt so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.). Jumladan, o'zbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

- 1) so'z oxiridagi k tovushi y tarzida aytiladi: elak - elay, terak - teray
- 2) o lashish yuz beradi: aka - oka, nahor – nohor.
- 3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishigi qo'shimchasi -ni ishlatiladi: ukamni(ng) daftari.

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

- 1) y o'rnida j ishlatiladi: yo'l - jo'l, yo'q - jo'q.
- 2) g' o'rnida v ishlatiladi: tog' - tov, sog' - sov va b.
- 3) so'z oxirida k, q tovushlari tushiriladi: quru(q), sari(q).

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

- 1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: at (hayvon), aad (ism).

2) t tovushi d, k esa g tarzida aytiladi: tog‘ - dog‘ , keldi - galdi.

3) -ning qo‘shimchasi –ing tarzida, -ga qo‘shimchasi esa -a, -na tarzida aytiladi: yorimga – yorima, alina (qo‘liga).

O‘zbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi hozirgi o‘zbek milliy adabiy tilining me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan deb, odatda, alohida ajratiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek xalqining shakllanishida qarluq etnik tarkibi Qoraxoniylar davridan boshlab alohida mavqega ega edi.

O‘zbek tili bu lahjasining nomlanishida (qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi) bir muncha anglashilmovchilik mavjud. Birinchidan, bu atamadagi [chigil] so‘zi ortiqcha, chunki chigillar qarluqlarning bir bo‘g‘ini, xolos. Bu bo‘g‘in qanchalik katta va, Koshg‘ariy so‘ziga ko‘ra, ahamiyatli bo‘lmasin, qarluq toifasiga mansub.

Ikkinchidan, atama tarkibidagi [uyg‘ur] so‘zining ham qadimgi uyg‘urlarga hech qanday aloqasi yo‘q. Bu atama o‘zbek tili bilan birgalikda turkiy tillar g‘arbiy hun tarmog‘ining qarluq guruhiga mansub bo‘lgan hozirgi uyg‘ur tiliga ishora qiladi, xolos. Shuning uchun hozirgi o‘zbek milliy adabiy tili me'yorlarining bu lahja xususiyati bilan yaqinligi bejiz emas. Lahjaning qayta nomlanishida tarixchi va shevashunoslarning xulosasi zarur.

A.K.Borovkov qayd qilib o‘tganidek, o‘zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi. Buning bosh sababi shundaki, hozirgi o‘zbek milliy adabiy tili uzoq adabiy ishlov an'anasining (jumladan, eski turkiy, eski o‘zbek, yangi o‘zbek adabiy tillarining) bevosita davomi va XX asrda u (yozuv va adabiy ishlov an'anasiga ega bo‘lmagan xalqlarda bo‘lganidek) tamoman yangi bir hodisa sifatida yuzaga kelmagan: milliy adabiy til kamida ming yillik adabiy ishlov mahsuli. Ikkinchidan, o‘zbek tilining barcha lahjalari o‘zbek tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo‘shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchliroq bo‘lsa, boshqa sohada o‘zga bir shevalar guruhining ta'siri ko‘proq seziladi. Masalan, Andijon, Farg‘ona shevalarida o‘zbek tiliga xos eng ko‘p tarqalgan grammatik shakllardan birini – hozirgi zamon fe'lining [-yap] affiksi vositasida yasaluvchi shaklini bergan deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq lahjalarida ham aynan shunday qo‘llanadi. Shunisi xarakterliki, bir qarashda adabiy tildan birmuncha uzoqroq deb tasavvur qilinadigan qipchoq lahjasi morfologiyasi singarmonizmdan, ya'ni fonetik o‘ziga xoslikdan xoli olinsa, adabiy til morfologiyasi bilan qariyb bir xil. Yoki adabiy tilga fonetik jihatdan asos deyilgan Toshkent shevasida [x] va [h] tovushlari, qaratqich va tushum kelishiklari shakllari farqlanmaydi. Qipchoq shevalarida esa ular qat'iy ajratiladi. Qipchoq

shevalarining adabiy til lugʻatini, xususan, uning chorvachilik atamalari tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, [qirqim], [oʻtov], [toʻl], [sarimoy], [chakki], [chalop], [uloq], [sovliq] kabi umumiy va chorvachilik atamalari, [quyruq], [bovur], [patir], [tovoq], [kulchatoy], [lochira] singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan.

Adabiy tilning rivojlanishiga oʻzbek tilining oʻgʻuz lahjasi ham maʼlum darajada hissa qoʻshgan. Buning uchun adabiy tildagi [yoshulli], [oʻgʻlon], [buyon], [qaydin], [qoragoʻz] kabi qator soʻzlarni misol sifatida keltirish kifoya.

Demak, oʻzbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida tayanch manba boʻlgan tarixiy anʼana bilan bir qatorda barcha lahja va shevalarning oʻziga xos oʻrni bor.

## **2- MAVZU. FONETIKAGA KIRISH**

### **Reja:**

#### **1. Fonetikaning predmeti va vazifalari.**

#### **2. Fonetika fanining turlari.**

#### **3. Fonetik birliklar**

Fonetikaning predmeti tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari bo'g'in, urg'u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi: a) tovush, urg'u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; g) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetist-fonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish.

Har qanday tilning fonetik birliklari dastlab ikki guruhga—segment va supersegment birliklarga bo'linadi: a) segment birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. Bunday birliklar so'z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq (gorizontal) yo'nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: kitob so'zidagi 5ta tovush (k,i,t,o,b) va ikkita bo'g'in (ki-tob) segment birliklar, demak, shu so'z tarkibidagi qismlar sanaladi; b) supersegment birliklarga urg'u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa (M.Mirtojiyev) deb nomlash hollari ham uchraydi.

Fonetik birliklar til tizimida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1)shakllantiruvchi vazifa (ruscha: obrazuyushaya funktsiya). Bunda fonetik birliklarning so'z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida qurilish materiali sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Chunonchi, paxta so'zining tarkib topishida 5 ta tovush (p, a, x, t, a), ikkita bo'g'in (pax-ta) va bitta so'z urg'usi (paxta) "qurilish materiali" vazifasida qatnashgan, bu birliklarning shu tartibda

joylashtirilishidan paxta soʻzining tovush qiyofasi - fonetik soʻz shakllangan. Ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida ustama hodisa sifatida qatnashadi: darak soʻroq va buyruq gaplarning oʻziga xos intonatsiyalari, sheʼriy misralardagi ohang tovlanishlari bunga misol boʻladi;

2) tanituvchi vazifa (ruscha: opoznavatelʼnaya funktsiya). Bunda fonetik soʻz tarkibidagi fonetik birliklarning shu soʻzni va uning maʼnosini "tanib olish" va "eslab qolish" uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi: soʻz va uning maʼnosi (yoxud morfema va uning maʼnosi) shu soʻzning (yoki morfemaning) fonetik qobigʻi tufayligina inson xotirasida doimiy yashaydi. Masalan, inson paxta soʻzini (fonetik soʻzni) eshitganda yoki oʻqiganda, uning xotirasida "gʻoʻza oʻsimligining oq tolali yumshoq mahsuli", taxta soʻzini eshitganda yoki oʻqiganda esa "gʻoʻladan uzunasiga tilib olingan yassi yogʻoch boʻlagi" esga keladi, bu hol har bir soʻzning fonetik qobigʻi bilan shu soʻzning mazmun planidagi maʼnolar oʻrtasida doimiy aloqa borligidan (shakl va mazmun birligidan) dalolat beradi. Koʻpchilik soʻzlarning fonetik tarkibi oʻzaro farqli boʻlishini hisobga olsak, bunday farqlar soʻz maʼnolarini tafovutlash uchun xizmat qilishi ham maʼlum boʻladi: "qishloq" ni "pishloq"dan, "gʻoʻza"ni "koʻza"dan, "uy"ni "kuy"dan farqlash imkoni yaratiladi. Demak, soʻz va grammatik formalar oʻzining tovush materiyasi tufayligina nutqda maʼlum ahamiyat kasb etadi. Tovushgina soʻz yoki soʻz shaklini eshituvchi uchun borliq tusiga kiritadi.

Fonetika fani tilning tovush tomonini turli usulda va turli maqsadlarda oʻrganadi, shunga koʻra uning quyidagi turlari oʻzaro farqlanadi:

1. Umumiy fonetika. Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy boʻlgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik-fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari fonema tiplariga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (ziddiyatlar) va korrelyatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos boʻlgan bunday nazariy masalalarni koʻrish umumiy fonetika predmeti sanaladi.

2. Xususiy fonetika. Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida maʼlumot beradi: oʻzbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini oʻrganishda umumiy fonetika xulosalariga, shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida toʻplangan tajribalarga tayanadi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

a) tavsifiy fonetika. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻlanmay) oʻrganiladi. Xususan, "Hozirgi oʻzbek adabiy tili fonetikasi" ham aslida tavsifiy fonetikadir, chunki unda oʻzbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud boʻlgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urgʻu, boʻgʻin va hokazolar) hozirgi oʻzbek tilida qanday boʻlsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bogʻlanmay) oʻrganiladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining tavsifiy fonetikasi "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" kursi boʻyicha nashr etilgan koʻpchilik darsliklarda, shuningdek, "Uzbekskiy yazik" (Reshetov V.V., 1959 g.), "Osnovi fonetiki i grammatiki uzbekskogo yazika" (Reshetov V.V., 1965 g.), "Obshaya xarakteristika osobennostey uzbekskogo vokalizma" (Reshetov V.V., 1949 g.), "Foneticheskaya sistema uzbekskogo literaturnogo yazika" ADD (Maxmudov A., 1980 g.), "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" dan metodik koʻrsatmalar va konspektiv kurs: fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya (Tursunova T., Jamolxonov H., 1981y.), "Oʻzbek tili fonetikasi" (Mirtojiyev M.M., 1991y., 1-nashri; 1998y., 2-nashri), "Hozirgi oʻzbek adabiy tili". Maʼruzalar matni (Jamolxonov H., 2000 y.) kabi ishlarda hamda "Sochetanie glasnix i soglasnix v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike" (I. Ishaev, 1985 g.), "Reduktsiya glasnix v uzbekskom yazike: tip, funktsiya, programmirovaniye" (S. Atamirzaeva, X. Yuldasheva, D. Mamatov, 1985 g.) kabi maqolalarda bayon etilgan;

b) tarixiy fonetika. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻlab oʻrganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik- fonologik tizimida yuz bergan tarixiy oʻzgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. Shunga koʻra u diaxron fonetika deb ham yuritiladi.

3. Qiyosiy fonetika. Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Oʻzbek va rus tillari fonetikasini qiyosan oʻrganish rus maktablarida oʻzbek tilini, oʻzbek maktablarida esa rus tilini oʻqitish uslubiyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan, shuningdek, oʻzbek-rus bilingvizmi (ikki tilliligi) masalalarini, bunday bilingvizmning har ikkala til strukturasi va sistemasiga taʼsirini aniqlash pozitsiyasidan foydalidir.

4. Eksperimental (instrumental) fonetika. Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlari maxsus asboblari (pnevmoqraf, ossilograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho‘ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo‘lish o‘rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlari tavsiflashda foydalaniladi.

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda so‘zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so‘zlar va shu so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ta‘minlovchi grammatik vositalar (qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar) ma‘lum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: Biz ulug‘ayyomni mana shu cho‘lda kutib olyapmiz (Y. Shamsharov). Bu gapni tuzishda biz, ulug‘, ayyom, mana, shu, cho‘l, kutib, olmoq so‘zlari, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta‘minlovchi –ni (tushim kelishigi qo‘shimchasi), –yap (zamon ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimcha), –miz (shaxs-son qo‘shimchasi) qo‘shimchalari qatnashgan; har bir so‘z va qo‘shimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, biz – b, i, z; ulug‘ – u, l, u, g‘; –ni – n, i; –da – d, a kabi) shakllandi.

Ko‘rinadiki, nutq tovushlari so‘z va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

Fonologiya so‘zi tarjima qilinganda “tovush haqidagi ta‘limot” degan ma‘noni bildiradi (phone – tovush, logos – ta‘limot). Bu bo‘limda tovushlarning so‘z va morfemalar ma‘nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo‘limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta‘bir joiz bo‘lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o‘rganiladi.

## Tovush va fonema

Tovush bilan fonemani o‘zaro farqlash zarur. Tovush nutqning fonetik jihatdan bo‘linmaydigan eng kichik birligidir, u ma‘no ifodalamaydi, lekin har qanday so‘z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, a, d, m, o tovushlarini ma‘lum bir tartibda talaffuz qilish orqali odam, omad, moda singari boshqa-boshqa ma‘nodagi so‘zlar hosil qilinadi. So‘zlar tovush tarkibiga ko‘ra turlicha bo‘ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar: ot – ol, ol – oq, oq – osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – og‘, og‘ – ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, ko‘za – g‘o‘za kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko‘ra farq qiladigan so‘zlar. Masalan: qo‘y – yo‘q (birinchi so‘z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so‘zning oxirida qo‘llanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so‘zlar: o‘lka – yo‘lka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, o‘roq - so‘roq kabi.

Demak, so‘zlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, to‘rt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil bo‘ladi.

Fonema so‘z ma’nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: bal - bel –bil –bol – bo‘l so‘zlari tarkibidagi a, e, i, o, o‘ tovushlari so‘z ma’nolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor so‘zlari tarkibidagi birinchi tovushlar ( b, d, z, k, n, t, x, ch, q ) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor: 1. Akustikasi (eshitilishi). 2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi). 3. Ma’no farqlashi (ba’zi darsliklarda “lingvistik tomoni” deyiladi)<sup>4</sup> .

Bular ichida fonemaning ma’no ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

## Fonetik akustika

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o‘pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo‘ladigan ovoz va nutq organlarida hosil bo‘ladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida ko‘yidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi ma’lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko‘ra har xil chiqishidir: un paychalari ko‘p tebransa, tovush baland bo‘ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi ma’lum kenglikdagi maydondan ma’lum vaqtda o‘tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov

---

4 Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 1992, 15-bet.

shunday yozadi: “Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm<sup>2</sup> maydondan 1 sekundda o‘tadigan energiya miqdoridir”<sup>5</sup> Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog‘liq: tebranish kengligi katta bo‘lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo‘lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil bo‘ladi. Tovushlarning tembri og‘iz bo‘shlig‘i va burun bo‘shlig‘ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo‘lishiga bog‘liq.

4. Tovushning cho‘ziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o‘lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho‘ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo‘ladi.

### Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar nutq a‘zolari deb yuritiladi. Artikulyatsiya deganda esa nutq a‘zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq a‘zolariga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: o‘pka, bronxlar (bir juft), nafas yo‘li (traxeya).
2. Bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog‘aylar hamda un paychalari joylashgan.
3. Og‘iz bo‘shlig‘ida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan .
4. Burun bo‘shlig‘i.
5. Markaziy nerv sistemasi.

Nutq a‘zolarining jami nutq apparati deyiladi. Endi har bir nutq a‘zosining vazifasi xususida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘pka inson organizmini kislorod bilan ta‘minlovchi a‘zo ekanligi hammaga ma‘lum. Nutq a‘zosi sifatida esa o‘pka nutq tovushlarining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya‘ni inson nafas olganida o‘pka va undagi bronxlar havoga to‘ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo

---

5 Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.

oqimi nafas yo'li orqali bo'g'izga tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar un paychalarini ushlab turuvchi a'zoldir. Un paychalari esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog' ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). Og'iz bo'shlig'i tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. Til juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. Kichik til ham ayrim tovushlarning (q, g', x) hosil bo'lishida qatnashadi. Lablarning keng ochilishi, cho'chchayishi, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining tishlar orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. M, n, ng tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. Markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.

So'z ma'nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar fonetik vositalar sanaladi. Bunday vositalar qatoriga nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang) kiradi. So'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma'lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o'xshash bo'lgan (omonim) so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlashda urg'u (leksik urg'u) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: olma (predmet, mevaning bir turi), olma (harakat, olmoq fe'lining bo'lishsiz shakli, -ma qo'shimchasini ajratish mumkin); akademik (predmet, ot), akademik (belgi, sifat); gullar (ot, "ko'p gul" ma'nosida), gullar (fe'l, "gullamoq").

Gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda esa ohang (ohang) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: Dars boshlandi. (darak gap) Dars boshlandi? (so'roq gap).

Nutq tovushlari ikki xil: unli tovushlar, undosh tovushlar. Bular quyidagicha farqlanadi: 1) unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undosh tovushlarni hosil qilishda esa o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi; 2) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish mumkin, undoshlarni esa cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi; 3) unli

tovushlar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi, undoshlar talaffuzida esa tovush paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.

## Unli tovushlar va ularning tasnifi

Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim vokalizm deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (a, i, o, u, o', e) uch tomondan tasnif qilinadi:

### 1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra.

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati gorizontal harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) old qator unlilar: a, e, i;

2) orqa qator unlilar: o, o', u.

### 2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra.

Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi vertikal harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, i, u unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; aksincha, a, o tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; e, o' tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rinadiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rta keng) belgilaydi. Shuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1) yuqori tor unlilar: i, u;

2) o'rta keng unlilar: e, o'.

3) quyi keng unlilar: a, o.

### 3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra.

Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya’ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. Shunga ko‘ra unlilar ikki guruhga bo‘linadi:

1) lablangan unlilar: u, o‘, o;

2) lablanmagan unlilar: i, e, a.

Unli tovushlar tasnifini quyidagi jaldvalda aks ettirish mumkin:

| Lablarning ishtirokiga ko‘ra | Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra |            | Tilning vertikal harakatiga ko‘ra |
|------------------------------|-------------------------------------|------------|-----------------------------------|
|                              | Old qator                           | Orqa qator |                                   |
| Lablanmagan                  | I                                   |            | Yuqori tor unlilar                |
| Lablangan                    |                                     | u          |                                   |
| Lablanmagan                  | E                                   |            | O‘rta (keng) unlilar              |
| Lablangan                    |                                     | o‘         |                                   |
| Lablanmagan                  | A                                   |            | Quyi (keng) unlilar               |
| Lablangan                    |                                     | o          |                                   |

### Unli tovushlar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so‘z boshida (ipak), so‘z o‘rtasida (tilak) va so‘z oxirida (tulki) keladi.
- 2) so‘z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: bilan, sira.
- 3) k, g, x undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: qir, G‘irot, oxir.
- 4) cho‘ziq varianti bor: muhim, musiqa.
- 5) e tovushiga moyil varianti bor: mix-mex.

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) soʻz boshida (urmoq), soʻz oʻrtasida (tugun) va soʻz oxirida (urgʻu) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: kuch, gul;
- 3) qulf, gʻulgʻula, tuxum soʻzlarida esa til orqa varianti qoʻllangan.
- 4) i tovushi kabi kuchsizlanishi, yaʼni qisqarishi ham mumkin: tuxum, bulbul, tutun kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) soʻz boshida, soʻzning birinchi boʻgʻinida keladi: eshik, elak, eʼtibor, kel, bet kabi.
- 2) jonli nutqda sheva taʼsirida i tovushiga moyillashadi: deydi – diydi.
- 3) oʻgʻuz shevalarida a tovushiga oʻtish holati ham mavjud: eshik – ashik, deb – dab, kel – gal kabi. Lekin adabiy tilda e tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) soʻz boshida (ari), oʻrtasida (daftar) va soʻz oxirida (qora) keladi.
- 2) q, x, gʻ tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: gʻazab, xabar.
- 3) baʼzi soʻzlarda sheva taʼsirida o tovush kabi aytiladi: baho – boho, shavla – shovla. Adabiy tilda a tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) soʻz boshida (olim), oʻrtasida (toza) va soʻz oxirida (bobo) keladi.

Oʻ unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda soʻzlarning asosan birinchi boʻgʻinida uchraydi: oʻgʻil, boʻri, toʻgʻri, oʻrin, boʻyin.
- 2) oʻzlashma soʻzlarning oxirgi boʻgʻinida ham keladi: roʻbaroʻ, xushroʻy, gulroʻ, kubok, (kuboʻk).
- 3) til oldi varianti ham bor: oʻrik, koʻl, choʻl.

Undosh tovushlar va ularning tasnifi

Undosh tovushlar tizimi tilda konsonantizm deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: b, v, g, d, j (jurnal so'zidagi birinchi tovush), j (joy, jiyda kabi so'zlardagi birinchi tovush), z, y, k, l, m, n, ng (tong so'zidagi oxirgi tovush), p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h. Sirg'aluvchi j, f tojik va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda keladi: foyda, oftob, fabrika, tafakkur, jurnal, ajdar. Undoshlar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undosh tovushlar uch asosiy guruhga bo'linadi:

1) lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar bo'lib, ularga b, p, m, v, f undoshlari kiradi.

Lab undoshlarining ba'zilar ikki lab orasida paydo bo'ladi: ba'zilar esa (masalan, avtobus, avtor, vagon, virus, passiv kabi so'zlardagi v; telefon, kefir, fabrika, fakt, fazo, farmon, fason kabi so'zlardagi f) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra lab undoshlarini ikki turga bo'lish mumkin:

a) lab-lab undoshlari: b, m, p;

b) lab-tish undoshi: v, f.

2) til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil qilinuvchi tovushlar bo'lib, ularga quyidagi undoshlar kiradi: g, d, j (gijda so'zidagi kabi), j (jiyda so'zidagi kabi), z, y, k, l, n, ng (ong), r, s, t, x, ch, sh, q, g' (jami 18 ta).

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi: t, d, n kabi tovushlar tilning old qismi bilan tish va milk orasida; k, g kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; y undoshi tilning o'rta qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; q, g' tovushlari esa til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi orasida (bo'g'izga yaqin joydi) hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari o'z navbatida 4 guruhga bo'linadi.

a) til oldi undoshlari: d, j (jurnal), j (jahon), z, l, n, r, s, t, ch, sh (jami 11 ta );

b) til o'rta undoshi: y;

d) til orqa undoshlari: k, g, ng (jang);

e) chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

3) bo'g'iz undoshi. Bo'g'iz undoshi faqat bitta h tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi (jadvalga qarang).

E s l a t m a : Shuni aytish kerakki, v tovushining lab-lab varianti ham mavjud: ov, qovun, bevosita, birov. Shuningdek f tovushining ham lab-lab varianti bor: vafo, puf, tufurmoq, juft. Tilshunos H.A.Jamolxonov "lab-tish v ni lab-lab v ning fakultativ varianti deb qarash to'g'riroq bo'ladi" degan fikrni bildirgan.<sup>6</sup>

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh tovushlar uch turga bo'linadi:

1) portlovchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro jipslashuvi va o'pkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu nutq a'zolariga ma'lum zarb bilan urilib, portlab o'tishidan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga: b, g, d, j (jo'ja so'zidagi), k, p, t, ch, q undoshlari kiradi. Portlovchi tovushlardan b, p undoshlarini hosil qilishda havo oqimi ikki lab orasidagi to'siqdan, d, j (jajji so'zidagi), t, ch undoshlarini hosil qilishda tilning old qismi bilan tishlar va milk orasidagi to'siqdan, k, g undoshlarini hosil qilishda esa tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasidagi to'siqdan portlab o'tadi. Bu undoshlardan ch, j (jadval so'zidagi) o'ziga xos murakkab artikulyatsiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, ch undoshining hosil bo'lishida tilning old qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, og'iz bo'shlig'iga kelgan havo, asosan, sirg'alib chiqadi. Natijada, to'la bo'lmagan portlash (t + sh = ch kabi) qorishiq (affrikativ portlovchi ham deyiladi) portlovchini vujudga keltiradi. Qorishiq j tovushi esa portlovchi d va sirg'aluvchi j tovushlari oralig'idagi tovushdir, shuning uchun Juma, Jahongir so'zlari rus tilida Djuma, Djaxongir shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi.

a) sof portlovchilar: b, g, d, k, p, t, q;

b) qorishiq portlovchilar: ch, j (jahon)

2) sirg'aluvchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro yaqinlashishi va havo oqimining ana shu nutq a'zolari orasidan sirg'alib chiqishi bilan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga v, j (jurnal, vijdon), z, y, s, f, x, sh, g', h undoshlari kiradi.

---

6 1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 59-bet.

Havo oqimining ikki lab oʻrtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraliqdan sirgʻalib oʻtishi j (jirafa), z, s, sh undoshlarini; til oʻrta qismi bilan qattiq tanglayning oʻrta qismi orasidagi tor oraliqdan sirgʻalib oʻtishi y undoshini; tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi oʻrtasidagi tor oraliqdan sirgʻalib oʻtishi gʻ, x undoshlarini; boʻgʻizdagi un paychalari orasidagi tor oraliqdan sirgʻalib oʻtishi esa h undoshini vujudga keltiradi.

3) portlovchi-sirgʻaluvchi undoshlar (jami 5 ta) bir vaqtning oʻzida ham portlash, ham sirgʻalish jarayonlarining roʻy berishi natijasida hosil boʻladi. Ularga m, n, ng, l, r undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil boʻlish usuliga koʻra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirgʻaluvchilar)dangina emas, oʻzaro ham farq qiladi va uch guruhga boʻlinadi:

a) burun tovushlari: m, n, ng. Bulardan m undoshining hosil boʻlishida oʻpkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi ogʻiz boʻshligʻidan lablarning toʻsqinligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun boʻshligʻidan sirgʻalib chiqadi, n undoshining hosil boʻlishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash roʻy beradi, burun yoʻli ochiq boʻlgani uchun, havo oqimining qolgan qismi burun boʻshligʻi orqali sirgʻalib chiqadi. Tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va havo oqimining bir qismi burun boʻshligʻi orqali sirgʻalib chiqishi ng tovushini vujudga keltiradi.

b) yon tovush l undoshini hosil qilishda til uchi yuqoriga tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirgʻalib oʻtishi uning ogʻiz boʻshligʻidan qisman portlab, qisman sirgʻalib chiqishiga sabab boʻladi.

d) titroq tovush r undoshini hosil qilishda oʻpkadan chiqayotgan havo toʻlqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi esa havo oqimining ogʻiz boʻshligʻidan portlab-sirgʻalib chiqishiga olib keladi.

Demak, portlovchi-sirgʻaluvchi undoshlarning hosil boʻlishida ham portlovchilarga xos boʻlgan ikki aʼzoning jipslashuvi, ham sirgʻaluvchilarga xos boʻlgan ikki nutq aʼzosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun boʻshligʻidan) sirgʻalib oʻtishi sodir boʻladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra undosh tovushlar dastlab ikki turga boʻlinadi:

1) shovqinli undoshlar (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan koʻp yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar boʻlib, bu guruhga b, v, g, d, j (ajdar), j (jiyan), z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, gʻ, h undoshlari kiradi. Shuning

uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga, tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko‘ra, ikkiga bo‘linadi:

a) jarangli undoshlarni (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar shu bilan sonorlardan farq qiladi: v, b, g, d, j (garaj), j (jo‘xori), z, y, g‘ .

b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o‘zidan iborat bo‘lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h. Ba’zi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar hosil bo‘lish o‘rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: b – p, v – f, g – k, d – t, j(qorishiq) – ch, j(sirg‘aluvchi) – sh, z – s, g‘ – x .

2) sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar (jami 5 ta) tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo‘lib, ularga m, n, ng, l, r undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo‘lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi – bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo‘ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin turadi. Ammo bu undoshlar o‘pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo‘ladi.

Undosh tovushlarning tasnifini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

| Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra |           | Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra |                    | Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra |          |                |            |           |                  |
|---------------------------------------|-----------|-----------------------------|--------------------|-----------------------------|----------|----------------|------------|-----------|------------------|
|                                       |           |                             |                    | Lab undoshlari              |          | Til undoshlari |            |           |                  |
|                                       |           |                             |                    | lab-lab                     | lab-tish | til oldi       | til o‘rt a | til orq a | chuq ur til orqa |
| Shovqinlilar                          | Jarangli  | Portlovchilar               | Sof portlov-chilar | B                           |          | d              |            | g         |                  |
|                                       | jarangsiz |                             |                    | P                           |          | t              |            | k         | q                |
|                                       | jarangli  |                             | Qori-              |                             |          | j              |            |           |                  |

|                    |           |                      |                                  |   |    |          |   |    |    |   |
|--------------------|-----------|----------------------|----------------------------------|---|----|----------|---|----|----|---|
|                    | jarangsiz |                      | shiq<br>portlov<br>-chilar       |   |    | ch       |   |    |    |   |
|                    | jarangli  | Sirg'aluv-<br>chilar |                                  | V | v1 | j1, z    | y |    | g' |   |
|                    | jarangsiz |                      |                                  | F | f1 | s,<br>sh |   |    | x  | h |
| Ovozdor (sonor)lar | jarangli  | Sirg'aluvchi-lar     | Buru<br>n<br>tovu<br>sh-<br>lari | M |    | n        |   | ng |    |   |
|                    |           |                      | Yon<br>tovu<br>sh                |   |    | l        |   |    |    |   |
|                    |           |                      | Titro<br>q<br>tovu<br>sh         |   |    | r        |   |    |    |   |

## Undosh tovushlar tavsifi

B tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (bahor), o'rtasida (abadiy) va oxirida (kitob) uchraydi. Bu tovush so'z oxirida kelganda jarangsizlashadi va p tovushi bilan almashadi: maktab – maktap, odob-odop. Bu tovush ko'pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe'l birikib talaffuz qilinganda, v tovushi kabi aytiladi va ba'zan shunday yoziladi: kabob – kavob, qobirg'a - qovurg'a, sabil – savil, qurbaqa – qurvaqa, ko'ra ber – ko'raver kabi.

So'z boshida kelgan b tovushi ayrim shevalarda talaffuz paytida m tovushiga o'tadi: murch > burch (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan b va m tovushlarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: ben – men, bunga – munga va h.

V tovushi – lab-lab va lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovush. Soʻzning boshida (vazifa, vafo), oʻrtasida (sovun, lavlagi, taqvim) va oxirida (oʻtov, birov) kela oladi. Sof oʻzbekcha soʻzlarda bu tovush soʻz boshida deyarli qoʻllanmaydi.

M tovushi - lab-lab, portlovchi-sirgʻaluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (mehr, moʻylov, mulk), oʻrtasida (omon, umr) va oxirida (tom, bodom, qadam) kela oladi.

P tovushi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (pilla, poʻchoq, parda), oʻrtasida (opa, qipiq, toʻpiq) va oxirida (choʻp, top, sop) kela oladi. Koʻp boʻgʻinli soʻzlarning oxirida bu tovush deyarli uchramaydi.

F tovushi - lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovush boʻlib, faqat oʻzbek tiliga arab, fors va rus tillaridan oʻzlashgan soʻzlarning boshida (faqir, oftob, fabrika), oʻrtasida (qofiya, iffat, kofe) va oxirida (sarf, urf) kela oladi. Baʼzi soʻzlarda talaffuzda p tovushi bilan almashadi: foyda > poyda, Farida > Parida. Bunday oʻzgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

**Til undoshlari.** T tovushi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (toʻti, tuxum), oʻrtasi (katta, vatan) va oxirida (savat, qavat, harakat) kela oladi. Oʻzbek milliy tilining oʻgʻuz lahjasiga mansub shevalarda t baʼzan d ga oʻtadi: tuz > duz, oʻt > oʻd kabi. Bu oʻtishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan oʻzlashtirigan soʻzlardagi qoʻsh undoshlar tarkibidagi t tovushi talaffuzda koʻpincha tushib qoladi: gʻisht > gʻish, pastqam > pasqam, taksist > taksis kabi. Bu oʻzgarish yozma nutqda aks etmaydi.

D tovushi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (devor, doʻkon, dala), oʻrtasida (shabada, sodda, toʻda) va oxirida (qasd, hudud, gard ) kela oladi. Soʻz oxirida kelgan d tovushi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va t tovushiga oʻtadi: Asad>Asat, Samarqand>Samarqant, Xoʻjand>Xoʻjant kabi. Bu tovush ham oʻzlashma soʻzlar tarkibidagi qoʻsh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: farzand>farzan, baland>balan.

N tovushi til oldi, portlovchi-sirgʻaluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (nom, nima, nusxa), oʻrtasida (aniq, tiniq) va oxirida (un, toʻn, son) kela oladi. Bu tovush ayrim soʻzlar tarkibida b yoki m tovushlaridan oldin kelganda, shu tovushlar taʼsirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) m tovushiga oʻtadi: manba>mamba, tanbal>tambal, koʻnmadi >koʻmmadi kabi.

S tovushi til oldi, sirgʻaluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh tovush boʻlib, soʻzning boshida (soat, semiz, sabr), oʻrtasida ( asar, mustaqil, osma) va oxirida (tus, mos,

tovus) kela oladi. Bu tovush o'zbek tilidagi eng faol qo'llanadigan tovushlardan biridir.

Z tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (zahar, zehn, zina), o'rtasida (Aziza, andoza, qiziq) va so'z oxirida (tig'iz, qarz, yulduz) kela oladi; bu tovush sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Ayrim so'zlar tarkibida yonidagi jarangsiz tovushlar ta'sirida ko'pincha s tovushiga o'tadi: rizq > risq, tuzsiz>tussis. Bu tovush ba'zi so'zlarda y tovushiga mos kelishi mumkin: sizlamoq>siylamoq, so'zlamoq > so'ylamoq, yozmoq > yoymoq, kabi.

Sh tovushi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (shar, shahar, sholi), o'rtasida (hashar, o'sha) va oxirida (qish, yosh, tashvish) keladi. Bu tovush so'zlarning turli o'rinlarida ko'p qo'llanadi.

J til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushi arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning boshida (janr), o'rtasida (vijdon, sajda, furajka) oxirida (garaj) uchraydi.

Ж til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh tovushi so'zning boshida (jamalak, jabr, jilov), o'rtasida (kajava, ojiz, o'jar) va oxirida (xorij, xiroj, saj) keladi. Bu tovush o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. O'zlashma so'zlar oxirida qo'sh undoshlar tarkibida kelgan ж tovushi ch tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi: mavj>mavch, avj>avch.

Ch tovushi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (chaqa, chigit, chuqur), o'rtasida (achchiq, ochiq, ko'cha) va oxirida (och, uch, kech ) keladi. Ayrim so'zlarda o'zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta'sirida talaffuzda sh tovushiga o'tadi: kechdi>keshti, qochdi>qoshti, sochdi>soshti.

L tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli (sonor) undosh tovush bo'lib, so'z boshida (lagan, latifa, lof), o'rtasida (olis, uloq, belgi ) va oxirida (kasal, kel, yo'l) keladi. Bu tovush so'z o'rtasida kelganda so'zlashuv nutqida ko'pincha tushib qoladi: olsa>osa, kelsa>kesa, bo'lsa>bo'sa, kelgan>kegan.

R tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (randa, rang, ruh), o'rtasida (arra, mo'ri, baraka) va oxirida (bozor, hozir, huzur) keladi. Bu tovush sof o'zbekcha (turkiycha) so'zlar boshida qo'llanmaydi.

Y tovushi til o'rta, sirg'aluvchi va jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (yigit, yo'l, yil), o'rtasida (sayr, qayir) va oxirida (to'y, uy, oy) keladi.

K tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (katta, kim, ko'p), o'rtasida (ikki, aka, uka) va oxirida (tilak, yuk, to'k) keladi. Bu tovush bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda, k tovushi g tovushiga o'tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: malak>malagi, ko'ylak>ko'ylagim.

G tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (gulxan, gilam, go'zal), o'rtasida (tugun, agar, egri) va oxirida (barg, biolog, pedagog) keladi. Bu tovush sof o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. G tovushi bilan boshlanadigan qo'shimchalar k tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda k tovushiga aylanadi: ko'k+ga > ko'kka, boq+gan >boqqan. O'zlashma so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: geologga, biologga.

Ng tovushi til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh tovush bo'lib, so'z boshida mutlaqo uchramaydi. So'z o'rtasida (yangi, bangi) va oxirida (bodring, ong) keladi.

Q tovushi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (qadr, qovoq, qo'l), o'rtasida (oqil, baqir, chuqur ) va oxirida (o'roq, yo'q,) keladi. Bu tovush ayrim ko'p bo'g'inli so'zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilsa, g' tovushiga almashadi: quloq+im>qulog'im, to'yoq+i >tuyog'i. To'qson, maqtov, maqsad kabi so'zlarda esa x tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi.

G' tovushi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (g'azab, g'ildirak, g'o'za), o'rtasida (dag'al, og'ir, o'g'ri) va oxirida (tog', bug', tig' ) keladi.

X tovushi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (xabar, xurjun, xol), o'rtasida (paxta, axir) va oxirida (six, mix) qo'llanadi.

H tovushi bo'g'izda hosil qilinadigan, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush bo'lib, so'z boshida (halol, hikoya, hukumat), o'rtasida (sayohat, ohu) va oxirida (sayyoh, eh) qo'llanadi. Bu tovush asosan arab, fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

### Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi

Ma'lumki, unli tovushlar so'zlarni shakllantirishda yakka holda, qo'sh holatda va ketma-ket holda qo'llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o'zbek tili tabiatiga xos bo'lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o'rinda kelishi yoki bir xil unlining

bir o‘rinda qo‘sh holda qo‘llanishi (poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta’siri, xalqlarning o‘zaro aloqasi tufayli paydo bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ao, oa, oi, ia, io kabi turli unlilarning ketma-ket bir o‘rinda kelish hollari mavjud: jamoat, faol, doira, ...

Bir xil unlilarning aa, uu, ii, oo kabi qo‘sh kelish hollari uchraydi: taalluqli, shuur, badiiy, inshoot. Deyarli barcha undoshlar qo‘sh holatda (g, x, h, g‘ undoshlari bundan mustasno) qo‘llanadi: qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o‘ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to‘qqiz. Bu undoshlar talaffuzda ham qo‘sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so‘zlar hisobiga boyimoqda: musson, Anna, Emma, milliard, affiks. Qo‘sh unlilar so‘zning o‘rtasida (manfaat), so‘z oxirida (mutolaa), qo‘sh undoshlar esa so‘z boshida (ssenariy), o‘rtasida (qattiq) va oxirida (kongress) qo‘llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so‘z oxirida ketma-ket (qator) kelishi qo‘sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o‘zlashdi: daraxt, g‘isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand kabi.

O‘zbek tilida oldin so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo‘q edi, rus tili va boshqa tillarning ta’sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo‘ldi: brom, drezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf kabi.

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi va bu ta’sir tovush o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, yurt so‘ziga o‘rin-payt kelishigi affiksi -da, chiqish kelishigi affiksi –dan qo‘shilganda, so‘z oxiridagi t tovushi affiksdagi d undoshiga ta’sir qilib, uni t tovushiga aylantiradi: yurt+da=yurtta, yurt+dan=yurttan kabi (yozilishi: yurtda, yurtdan). Bir sanoq soniga dona son affiksi –ta qo‘shilganda, affiksdagi t undoshning ta’siri bilan so‘zning oxiridagi r tovushi t ga o‘tadi: bir+ta=bitta kabi.

So‘z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta’sir qilmagan holda ham o‘zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (qanday tartibda joylashganligi); so‘zning boshida yoki oxirida, urg‘uli yo urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, odob, javob, niqob, maktab so‘zlari oxirida kelgan b jarangli undosh talaffuzda jarangsiz p tarzida talaffuz qilinadi; negativ, normativ pozitiv, operativ kabi ruscha-internatsional so‘zlarning oxirida kelgan v jarangli undosh jarangsiz f tarzida; voleybol, olimpiada kabi ruscha-internatsional so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan o unlisi esa a tarzida talaffuz qilinadi: valeybol, alimpiada. Bunday hodisalarning sodir bo‘lishiga

nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'inda urg'uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o'tgan so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo'lishi mumkin.

Demak, nutq tovushlarining o'zgarishi ikki turga bo'linadi.

### **Kombinator o'zgarishlar**

So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish) kombinator o'zgarish deyiladi. Bunga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib oladi. Masalan, xat-ni – xatti (o'zakdagi t tovushi affiks tarkibidagi n ni aynan o'ziga o'xshash tovush – t ga aylantiradi (yozilishi: xatni); ish+ga – ishka (bunda o'zakdagi jarangsiz undosh sh affiks tarkibidagi jarangli undosh g ni o'ziga qisman o'xshatadi, ya'ni jarangsiz k ga aylantiradi (yozilishi: ishga)). Shunga ko'ra assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: a) to'liq assimilyatsiya so'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirishidir: to'k+gan =to'kkan, yet+di=yetti, chiq+gan = chiqqan, tuz+siz=tussiz, o'ris+cha=o'richcha (yozilishi: yetdi, sizni, chiqqan, tuzsiz o'rischa). Bunda tovushlar o'zaro moslashadi; 2) to'liqsiz assimilyatsiya so'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o'ziga qisman o'xshatib olishidir: o'ch+gan=o'chkan, shosh+di=shoshti, tush+ga=tushka ... (bulara jarangsiz ch, sh undoshlari affiks tarkibidagi jarangli g ni jarangsiz k ga, d ni esa t ga aylantirgan; yozilishi: o'chgan, shoshdi, tushga). To'liqsiz assimilyatsiyada ba'zan tovushlar o'r>niga ko'ra ham moslashadi: shanba > shamba. Bunda b lab tovushining ta'sirida n til tovushi lab-lab m tovushiga aylanadi. Demak, to'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar hosil bo'lish usuliga ko'ra qisman moslashish holatiga o'tmaydi. Bunda yonma-yon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra va hosil bo'lish o'rniga ko'ra moslashadi. Oldin kelgan tovush o'zidan keyin kelgan tovushni (masalan, o't+di=o'tti), shuningdek, keyin kelgan tovush o'zidan oldin kelgan tovushni (o'n bir - o'mbir) o'ziga o'xshatishi mumkin. Shunga ko'ra assimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi: 1) progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi: ot+da = otta (yozilishi: otda), bilak+ga – bilakka (yozilishi: bilakka). 2) regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi: tanbur – tambur, yigit+cha = yigichcha, non+voy = novvoy, (yozilishi: tanbur, yigitcha, novvoy).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, zarur – zaril (zarar so'zi tarkibidagi ikkita bir xil r undoshining biri talaffuzda l ga aylangan). Yana qiyoslang: koridor>kalidor, devor>devol, nodon>lodon, biror>biron (yozilishi: zarur, koridor, devor, biror yoki biror, nodon).

3. Metateza so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o'rin almashuvidir. Masalan: daryo – dayro (bunda r va y undoshlarining o'zaro o'rin almashuvi yuz bergan); ahvol – avhol (hv-vh), aylanay – aynalay (ln-nl), tuproq-turpoq (pr-rp); yog'mir-yomg'ir (g'm- mg' ); yozilishi: daryo, ahvol, aylanay, tuproq, yomg'ir.

### Pozitsion o'zgarishlar

Tovushning so'z tarkibidagi o'rni (joylashish tarkibi) uning pozitsiyasini tashkil qiladi. Tovush so'zning turli o'rinlarida kela oladi. Masalan, d undoshi dono, dehqon, doston so'zlarining boshida; abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor so'zlarining o'rtasida; taqlid, obod so'zlarining esa oxirida kelgan. Shu so'zlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, dono, dehqon, doston, abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor...) tarkibidagi d undoshi hech qanday o'zgarishga uchramaydi, ammo taqlid, obod so'zlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz t tarzida (taqlit, obot) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda o'zgarishi – jarangli tovushning jarangsizlanishi uning ma'lum bir pozitsiyada – so'z oxirida kelishi bilan bog'liq. Kosmonavt, kosmodrom, limonad, mikrofon, orkestr so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi a tarzida (kasmanavt, kasmadrom, limanad, arkestr, mikrafon kabi) talaffuz qilinsa, kartoshka, direktor, lektor, diktir, agressor so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi qisqa i tarzida (kartishka, direktir, lektir, diktir, agressir kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional so'zlar tarkibidagi o tovushining goh a, goh i kabi aytilishi ularning urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liqdir.

Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar pozitsion o'zgarishlar deyiladi. Pozitsion o'zgarishlarning quyidagi turlari bor:

1) proteza so'z boshida bitta unlining orttirilishidir. Odatda, aksariyat sonor r tovushidan oldin o' unlisi orttiriladi: ro'mol - o'ramol, ro'za - o'raza. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda i yoki u unlisi orttirilishi mumkin: shkaf-ishkaf, stol-ustol, stul-ustul.

- 2) epenteza soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidir: fikr - fikir, hukm - hukum, uzr - uzur.
- 3) epiteza soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng a tovushining qoʻshilish hodisasidir: disk - diska, bank - banka, tank - tanka, kiosk - kioska kabi.
- 4) prokopa soʻz boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasidir: yigna - igna, yogʻoch - ogʻoch, yirik - iri.
- 5) sinkopa hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: traktor - traktir, direktor - direktir, generator - generatir kabi.
- 6) apakopa soʻz oʻzigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: doʻst - doʻs, xursand - xursan va hokazo.
- 7) sinerezis hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz qilinadi: maorif - mo:rif, saodat - so:dat, qiroat - qiro:t, jamoat - jamo:t.
- 8) reduksiya soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, bir, bil, til soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi i unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi i unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi i unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: bilak, tilak, biroq. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi – ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, burun - burni, boʻyin - boʻyni, egin - egni singari.
- 9) eliziya unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan kabi; d) Abdusalom soʻzining Absalom, Abdujabbor soʻzining Abjabbor, olib kel soʻzining opke tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan

shakli hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakllari hosil boʻladi.

Inson nutqi uzluksiz va toʻxtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni oʻz ichiga oladi. Frazalar, takt, fonetik soʻz, boʻgʻin, tovush ana shunday fonetik birliklardir.

1. Frazalar nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U ohang va fikriy tugallikka ega boʻlganligi uchun koʻpincha gapga teng keladi. Masalan: Dunyoda boladan aziz narsa yoʻq // Boʻlmaydi // Bolalar – kelajagimiz // (Oʻ. Hakimali). Bu nutqiy parchada uchta fraza bor. Frazalar hajm jihatidan har xil boʻlib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq soʻzdan tashkil topishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi fraza beshta, ikkinchisi bitta, uchinchi ikkita soʻzdan tashkil topgan. Yana qiyoslang: Ularning uyi qishloqning eng chekkasida, hovlilari baland togʻning shundoqqina etagida. // Bahavo. // Bogʻlarining ortidan shovullab soy oʻtadi. (Toʻlqin).

2. Takt frazaning bir qismi boʻlib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi soʻz yoki soʻzlar bir bosh urgʻu (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Dunyoda / xushfeʼl, / olijanob, / hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar / juda koʻp (O.Husanov). Bu fraza tarkibida 6 ta takt boʻlib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi taktlar bir soʻzdan, toʻrtinchi takt olti, oltinchi takt esa ikki soʻzdan tashkil topgan.

Fraza baʼzan bir taktga teng boʻladi. Masalan, Kech kuz edi. // Qoʻqqisdan qorasovuq boshlanib, / choʻponlarni tashvishga solib qoʻydi (M.Qoriyev). Bunda birinchi fraza – Kech kuz edi bir taktga tengdir.

3. Fonetik soʻz oʻz urgʻusiga ega boʻlgan soʻz yoki bir urgʻuga birlashadigan (bir urgʻu bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq soʻzshakldir. Takt tarkibidagi fonetik soʻzlar soni undagi soʻzlarning umumiy miqdori bilan emas, urgʻuli soʻzlar miqdori bilan belgilanadi, yaʼni takt ichida urgʻuli soʻz qancha boʻlsa, fonetik soʻz ham shuncha boʻladi: Dashtda / odam aqli shoshadigan / buyuk ishlar / qilinadi // (Y.Shamsharov). Bu fraza tarkibida toʻrtta takt boʻlib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, toʻrtinchi taktda esa bitta fonetik soʻz

qatnashgan. Bu frazadagi soʻzlarning umumiy soni fonetik soʻzlarning umumiy soniga teng.

Mustaqil urgʻuga ega boʻlmagan yordamchi soʻzlar oʻzlari tobe boʻlgan mustaqil soʻz bilan birga bir urgʻuga ega boʻladi va bir fonetik soʻzni tashkil etadi: Dilda saqlangan adovat temir zangiga oʻxshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur). Bunda 14 ta fonetik soʻz boʻlib, bularning ikkitasi (yegani kabi, iztirob bilan) ning tarkibida koʻmakchi soʻzlar qatnashgan.

Bir tushunchani ifodalaydigan qoʻshma soʻzlar ham, tarkibidagi soʻzlarning umumiy miqdoridan qatʼi nazar, bir fonetik soʻz sanaladi: Qoʻpol va dagʻal barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang dillarni rom qilib olgandi. (Toʻlqin) Fraza tarkibidagi rom qilib olgandi boʻlagi bitta fonetik soʻz deb qaraladi.

4. Boʻgʻin oʻpkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir. Unli tovush boʻgʻin hosil qiluvchi tovushdir. Shuning uchun soʻzda nechta unli tovush boʻlsa, boʻgʻinlar soni ham shuncha boʻladi. Masalan, adolat soʻzida uch boʻgʻin bor: a-do-lat. Birinchi boʻgʻin bir tovushdan, ikkinchi boʻgʻin ikki tovushdan, uchinchi boʻgʻin uch tovushdan iborat. Demak, boʻgʻinlar bir tovushli, ikki tovushli va koʻp tovushli boʻlishi mumkin. Chunonchi: o-ta, o-na, a-ka soʻzlarining birinchi boʻgʻini bir tovushdan, ikkinchi boʻgʻini ikki tovushdan, a-dir, o-qil, e-shit, i-dish soʻzlarining ikkinchi boʻgʻini uch tovushdan, a-van-gard, ak-sent, e-le-ment, an-ti-fa-shist, ar-tist, ge-o-graf soʻzlarining oxirgi boʻgʻini toʻrt tovushdan, a-le-bastr, a-git-punkt soʻzlarining oxirgi boʻgʻini besh tovushdan iborat. Boʻgʻinning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi: ona: V – C. Bunda V belgisi lotincha vokalis soʻzidan olingan boʻlib, aslida unli (ovoz) degan maʼnoni bildiradi. C belgisi esa inglizcha constant soʻzidan olingan boʻlib, undosh degan maʼnoni bildiradi. Bir tovushli boʻgʻinlar unli tovushdangina iborat boʻlsa, ikki tovushli va koʻp tovushli boʻgʻinlar unli va undosh tovushlardan tuziladi. Boʻgʻinlar qanday tovushlar bilan boshlanishi va qanday tovushlar bilan tugashiga qarab turlarga ajratiladi. Qanday tovush bilan tugashiga koʻra ikki xil: 1) ochiq boʻgʻin – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan boʻgʻin: o-vo-za, o-i-la, ba-ho, bi-no, de-le-ga-tsi-ya, ja-zi-ra-ma, Ra-hi-ma; 2) yopiq boʻgʻin undosh tovush bilan tugagan boʻgʻin: zarb-dor, zum-rad, id-rok. Boʻgʻinlari qanday tovush bilan boshlanishiga koʻra ham ikki xil boʻladi: 1) berkitilgan boʻgʻin undosh bilan boshlanadi: ta-lab, tinch-lik. 2) berkitilmagan boʻgʻin unli bilan boshlanadi: oʻ-qish, aʻ-lo.

Tarkibidagi bo‘g‘inlar soniga ko‘ra so‘zlar bir bo‘g‘inli (ish, ko‘k, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz); ikki bo‘g‘inli (da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qizil, ik-ki, ol-ti, o‘t-tiz, ni-ma, ham-ma, o‘-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...); ko‘p bo‘g‘inli (qo‘-g‘ir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...) bo‘ladi.

So‘zlarni bo‘g‘inga to‘g‘ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda so‘zning bir qatorga sig‘may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo‘-g‘in asosida ko‘chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she‘r misralari bo‘g‘in soni-ning teng bo‘lishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf o‘quvchilarini savodga o‘rgatish davrida ham asosiy diqqat so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish va yozishga qaratiladi.

5. Tovush nutqning bo‘g‘in (yoki so‘z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo‘linmaydigan birligidir: bola so‘zi 4 ta tovushdan (b,o,l,a) iborat.

## Urg‘u

So‘z bo‘g‘inlaridan birining yoki gap tarkibidagi so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq yoki cho‘ziqroq talaffuz qilinishi urg‘u deb ataladi.

Urg‘u, odatda, bo‘g‘indagi unli tovushga tushadi. So‘z nechta bo‘g‘indan tuzilganligidan qat‘i nazar, unda bitta urg‘u bo‘ladi (gap bo‘laklaridan birini ajratib ko‘rsatish ham xuddi shunday xususiyatga ega). So‘z tarkibidagi urg‘u olgan bo‘g‘in urg‘uli bo‘g‘in, urg‘u olmagan bo‘g‘inlar esa urg‘usiz bo‘g‘in deyiladi. Masalan: Sizlarning matonatli mehnatlaringiz Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi muqaddas g‘alabamizni yaqinlashtirdi. (S. Karomatov) Bu gapdagi har bir so‘z o‘z urg‘usiga ega (chunonchi, «sizlarning» so‘zida uchta bo‘g‘in bo‘lib, oxirgi bo‘g‘in (-ning) urg‘u olgan; «matonatli» so‘zida to‘rtta bo‘g‘in bo‘lib, oxirgi bo‘g‘in (-li) urg‘u olgan va hokazo). Bundan tashqari, shu gap tarkibidagi sizlarning so‘zi boshqa so‘zlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi. Demak, har xil obyektga – so‘z tarkibidagi biror bo‘g‘inga ham, gap tarkibidagi ayrim so‘zga ham urg‘u tushishi mumkin. Shunga ko‘ra, urg‘u ikki turga ajratiladi:

1) so‘z urg‘usi (yoki leksik urg‘u) so‘z bo‘g‘inlaridan biriga tushadigan urg‘udir. Yozuvda urg‘u bo‘g‘indagi unli ustiga qo‘yiladigan maxsus belgi ( ‘ ) orqali ko‘rsatiladi. Masalan: Áslida insón tabiatníng oltindán hám bebahó mo‘jizası -ku! Dunyodá insondán azíz, insondán qimmatlí narsá bórmí o‘zí? (O.Husanov). Leksik urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: a) bog‘liq urg‘u; b) erkin urg‘u.

O'zbek tilida so'z urg'usi asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga (masalan, daftár, ovóz, saríq, burún kabi) tushadi. Shuning uchun so'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'u ham so'z oxiridagi bo'g'inga ko'cha boradi. Masalan: imzó-imzolá-imzolás, paxtá -paxtakór- paxtakorlár. So'zning biror bo'g'ini (masalan, oxirgi) bilan bog'liq bo'lgan urg'u bog'liq urg'u deyiladi.

O'zbek tilining so'z urg'usi, asosan, bog'liq urg'u hisoblanadi. So'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u esa erkin urg'u deyiladi. Bu asosan ruscha-internatsional so'zlarga xos. Masalan, vitamín, abzás, avangárd, batón, operatív, bufét, gigánt (oxirgi bo'g'inida), avantyúra, aviátsiya, proféssor, akrobátika, geólog (o'rtadagi bo'g'inda), áriya, vánna, nóta, máksimum, váxta, síntaksis, áksiya (birinchi bo'g'inda).

Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'usi birinchi bo'g'inga (bárcha, hámma, dóim, áslo, lékin kabi, o'rtadagi bo'g'inga (hamísha, afsúski, albátta) tushadigan so'zlar ham bor. Demak, o'zbek tilida bog'liq urg'u bilan bir qatorda, qisman erkin urg'u ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilida urg'u olmaydigan elementlar ham bor. Masalan: -ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -dir, gina, -oq(-yoq) yuklamalari; o'xshatish ma'nosini ifodalaydigan -day (-dek); -cha shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar; -dir, -man, -san, -miz, -siz kabi kesimlik qo'shimchalari; bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi -ma qo'shimchasi shular jumlasiga kiradi. Leksik urg'u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u, birinchidan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish normalarini belgilaydi; ikkinchidan, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: órgan - organizmning bir qismi, orgán - cholg'u asbobi; uchinchidan, so'z shakllarini ajratishga yordam beradi: qushchá - kichraytish oti, qúshcha - "qushdek" ma'nosini ifodalovchi ravish; tarbiyachimíz (bizning tarbiyachi) - tarbiyachímiz (biz - tarbiyachi).

Demak, leksik urg'u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan bog'liq. Chunki so'zning urg'uli bo'g'ini buzilsa, so'zni tushunish qiyinlashadi.

2) gap urg'usi (yoki mantiqiy urg'u, ma'no urg'usi) gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishidir. Bu urg'u, odatda, individual xarakterga ega bo'lib, so'zlovchi o'zicha muhim sanagan so'zni mantiqiy urg'u bilan talaffuz qiladi va bu bilan tinglovchining e'tiborini shu bo'lak bilan ifodalangan ma'noga tortadi, yoki o'sha bo'lakning ma'nosini bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatadi. Masalan: Ilmda ko'p narsani bilish - olimlik fazilati. (S.Karomatov) gapida mantiqiy urg'u quyidagicha tus olishi mumkin:

- 1) Ilmda (boshqa narsada emas) ko'p narsani bilish - olimlik fazilati.
- 2) Ilmda ko'p

narsani (oz narsani emas) bilish – olimlik fazilati. 3) Ilmda ko‘p narsani bilish (bilmaslik emas) – olimlik fazilati. 4) Ilmda ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati (boshqalarning fazilati emas). Yozuvda mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak kesim oldida keladi.

Urg‘u sifatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) dinamik urg‘u so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi: o‘zbek va rus tili urg‘usi kiradi; 2) musiqiy urg‘u so‘z bo‘g‘inlaridan birining balandroq aytilishidir. yapon, xitoy tillari urg‘usi shunday xususiyatga ega.

### **3-mavzu. O‘zbek adabiy tilining talaffuz me‘yorlari. O‘zbek grafikasi haqida ma’lumot**

Reja:

1. Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot.
2. Unli tovushlar talaffuzi.
3. Undosh tovushlar talaffuzi
4. Ayrim qo‘shimchalar talaffuzi.
5. Boshqa tildan o‘zlashgan ayrim so‘zlar talaffuzi.

Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot. Orfoepiya (yunoncha orthos - "to‘g‘ri" epos-"nutq" demakdir) adabiy talaffuz qoidalari to‘plami bo‘lib, u milliy til doirasida yagona talaffuz me‘yorini belgilaydi. Shunga ko‘ra, orfoepiya adabiy tilning og‘zaki shakli bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbek milliy tilining tarkibi nihoyatda rang-barang va murakkab bo‘lib, u o‘zida uchta yirik lahjani birlashtiradi. Bu lahjalardagi so‘zlar talaffuzi o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik belgilari bilan farqlanadi: 1) qipchoq lahjasida so‘z boshida adabiy tildagi y undoshi o‘rnida j talaffuz qilinadi: yo‘q //jo‘q, yigit//jigit; adabiy tildagi g‘ o‘rnida v undoshi aytiladi: tog‘//tov sog‘//sov; so‘z oxirida k, q undoshlari tushiriladi: kichik//kichchi, qattiq//qatti; 2) o‘g‘uz lahjasida esa so‘z boshida keladigan t, k jarangsiz undoshlari d, g tarzida talaffuz qilinadi: tog‘//dag‘, kel//gal kabi; 3) qarluq - chigil - uyg‘ur lahjasining o‘ziga xos fonetik xususiyatlari so‘z oxiridagi q undoshning g‘ tarzida aytilishi, ba‘zan tushirilishida kuzatiladi: qovoq//qovog‘, shuningdek, bu lahjada

a unlisining o tovushiga o‘zgartirilishi ham kuzatiladi: aka//oka kabi.

O‘zbek lahjalaridagi bu kabi lahjaviy xilma-xilliklar, shubhasiz, adabiy tilning talaffuz me‘yoriga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Ana shunday nutqiy tafovutlarni bartaraf etish, lahjalardagi eng maqsadga muvofiq so‘z shakllarini tanlagan holda qoidalashtirish orfoepiyaning muhim vazifalaridandir.

Albatta, orfoepiya boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar talaffuzi-ni ham qamrab oladi. Xususan, o‘zlashma so‘zlarning orfoepiya qonun-qoidalariga mos ravishda talaffuz qilinishi qoidalashtirilgan. Masalan, fabrika, fakt so‘zlari pabrika, pakt tarzda aytilsa ham, ular asliga muvofiq talaffuz qilinishi lozim.

Adabiy talaffuz me'yorlari tilning tovush tizimi asosida yaratiladi. Bu esa orfoepik me'yorlarni belgilashda tovush tizimi, uning nutqiy jarayonda turlicha o'zgarishini hisobga olishni taqozo etadi.

Ayrim unli va undoshlar orfoepiyasi 1. I unlisi atir, ayrim, bilan kabi so'zlarda qisqa, biyron, siyrak kabi so'zlar tarkibida y undoshdan avval kelganda o'ta cho'ziq; qirq, qir, qiz, kabi so'zlar tarkibida qattiq i tarzida talaffuz qilinadi. Ayrim so'zlarda i o'ta qisqa talaffuz qilinib tushiriladi: qobiliyat//qobilyat, quyidagi //quydagi; azm, adl, ayol so'zlari talaffuzida esa orttiriladi, biroq yozilmaydi.

2. U unlisi, buvi, buloq so'zlarida qisqa; xusumat, quvvat kabi so'zlarda esa cho'ziq talaffuz qilinadi; gul, guvoh, kuyov kabi so'zlarda yumshoq; qum, qurol, g'ussa kabi so'zlarda esa qattiq talaffuz qilinadi.

Ko'rinadiki, unlilarning qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinishi ko'p hollarda yonma-yon kelgan undoshning til oldi yoki orqa ekanligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xususan, q, g', x kabi til orqa undoshlari ishtirok etadigan so'zlarda ular qattiq, boshqa undoshlar (til oldi, sayoz til orqa undoshlari) ishtirok etgan so'zlarda esa yumshoq talaffuz etiladi. Qiyoslang: qo'pol, g'o'za, o'rda, go'dak, do'l, jo'yak, ko'ngil.

3. B, v, g, d, z undoshlari urg'usiz bo'g'inda, so'z oxirida jarangsiz undoshlar yonida kelganda jarangsizlashgan holda talaffuz qilinadi: ketdi//ketti, kitob//kitop, zavod//zavot, barg//bark, aktiv//aktif, peshvoz//peshvos, izhor//ishor.

4. D, s, t, l, n, ch, sh, m undoshlaridan oldin qo'llangan chuqur til orqa, portlovchi q undoshi x tarzida talaffuz qilinadi: naqd//naxt, maqsad//maxsat, vaqt//vaxt, baliqchi//balixchi, oqsoq/oxsog', nuqson// nuxson, qaqshamoq //qaxshamoq, cho'qmor//cho'xmor.

5. K, g, ng undoshlari oldida kelgan n sonori ng, ng' tarzida aytiladi: ko'lanka//ko'langka, ko'tarinki//ko'taringki, dengiz//dengngiz, nonko'r//nongko'r, yong'oq//yongngoq//yongg'oq, to'ng'illamoq//to'ng'g'ilamoq.

6. Ikki unli yonma-yon kelgan so'zlarda ko'pincha y undoshi orttiriladi: oila//oyila, shoir//shoyir, rais/rayis, radio//radiyo kabi.

Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi 1. Tushum kelishik affiksi talaffuzda -di, -ti, -zi, -ri kabi fonetik variantlarga ega bo'ladi: otni//otti, toshni//toshti, gulni//guldi, gapni//gapti//gappi, tuzdi//tuzzi.

2. Men, sen olmoshlariga -ning, -ni, -niki affikslari qo'shilganda qo'shimcha tarkibidagi bitta n undoshi tushiriladi va shunday yoziladi : mening, seni, meniki.

3. U, bu, shu, o'sha kabi olmoshlarga -ga,-da,-dan,-day,-cha affikslari qo'shilganda n undoshi orttirilib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: unga, unda, bundan, shundan, shunday, o'shancha kabi.

4. Oxiri z undoshi bilan tugaydigan sonlarga dona son yasovchi -ta affiksi qo'shilganda z undoshi s tarzida talaffuz qilinadi: to'qqizta // to'qqista, o'ttizta // o'ttista; oxiri z, sh bilan tugaydigan otlarga -siz sifat yasovchi qo'shilganda ham bu undoshlar s tarzida talaffuz etiladi: boshsiz//bossiz, izziz//issiz, ovozsiz//ovossiz; bunday holni oxiri z bilan tugaydigan ba'zi so'zlarga ot yasovchi -chi affiksi qo'shilganda ham kuzatish mumkin: zakazchi//zakaschi, arazchi//araschi, taqrizchi//taqrischi kabi.

5. Tarkibida -n, -in, -lan affiksi bo'lgan so'zlarga -la affikslari qo'shilganda -n, -in, -lan affikslari oxiridagi n undosh m tarzida talaffuz qilinadi: kiyinmoqda//kiyimmoqda, burkanmoqda//burkammoqda, ovqatlendi//ovqallandi.

Tilshunoslik lug'atlarida grafika tushunchasiga ikki xil ta'rif berishadi: 1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi. 2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shug'ullanuvchi amaliy sohasi"<sup>7</sup>. Grafika grekcha grafikos so'zidan olingan bo'lib, yozuv degan ma'noni bildiradi.

Grafika og'zaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

Til va yozuv o'zaro uzviy bog'liq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning bo'lishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat bo'lmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat a'zolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko'p hollarda yozuv tilning o'rnini bosadi. Lekin til va yozuvning o'ziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni yetkazishda masofa jihatidan

---

<sup>7</sup> A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 33-bet.

chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'rnini bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga mixxat nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V–IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatilgan. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha so'g'd yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar runik yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun run (runik) yozuvlari yoki dulbarchin deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy xorazmiy va so'g'd yozuvlari yaratilgan. Xorazmiy yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-

yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari uyg'ur yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan boshlab arab yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit-turk" nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan lotin alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940-yildan boshlab esa rus (kirill) grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993 yil 2-3 sentyabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi<sup>8</sup>. Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10) Ll(11)  
Mm(12) Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21)  
Xx(22) Yy(23) Zz(24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh(27) Ch ch(28) Ng ng(29).

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi alfavit deyiladi.

## Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi

Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi

---

<sup>8</sup> "Qalqon" jurnali, 2004-yil, 7-son.

qisqartma soʻzlarni toʻgʻri oʻqish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan: BMT – be – em – te.

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, эе, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ыы, Ээ, Юю, Яя, Ўў, Ққ, Ғғ, Ҳҳ.

Bu alifboda 10 ta unli harf (а, о, и, у, ў, э, ё, ё, ю, я) boʻlib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bulardan toʻrttasi (е, ё, ю, я) yolashgan (grafema) tovushlar boʻlib, ularning 2 holati farqlanadi:

1. Baʼzi soʻzlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta boʻgʻinni hosil qiladigan va bir tovushni (а, и, е, о) ifoda etadigan holati: тер-тер, сюжет-сюжет, сентябр-сентябр, режиссёр-режиссёр kabi.

2. Soʻz boshida va boʻgʻin boshida kelib, ikki tovushni (уе, уи, уа, уо) ifoda etadigan holati: ёстик - йостик, юрак - йурак, куюш - куйош, январ - йанвар va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga oʻzbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (ў, қ, ғ, х) qoʻshilgan. Kirill yozuvida 2 ta belgi (ъ, ы) boʻlib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (ъ) unlidan keyin kelganda oʻsha unlining choʻziq aytilishi (маъно, эълон kabi), undoshdan keyin kelganda boʻgʻinlarning ajratib aytilishini (суръат, журъат kabi); yumshatish belgisi (ы) esa ruscha-internatsional soʻzlarda oʻzidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (альыбом, циркуыль) xizmat qiladi.

Alfavitdagi ж harfi 2 tovushni, portlovchi ж (жайрон) va sirgʻaluvchi ж (журнал) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi н va г harflari alohida н va г tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (нг) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (тонг, бодринг kabi).

**Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar.** 1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl boʻlib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi oʻzbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (Jj harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun Jj ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi j (d+j) tovushini (joʻja, jayron, avj kabi) va 2) sirgʻaluvchi j tovushini (jurnal, jirafa) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: ng, sh, ch. Ular soʻz tarkibida ajratilmaydi va boʻlinmas bir tovushni ifoda etadi: ng sayoz til orqa, portlovchi-sirgʻaluvchi, sonor undosh tovushini (tong, ohang, chang. manglay), ch til oldi,

qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (charos, tinch, sinch, choynak), sh til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undoshni (shabada, shar, shahar, toshqin, bosh) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo'linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (a, o, u, i, o', e). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko'rsatiladi (b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Harflarning alfavit taritibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug'atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro'yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilari: (.) (,) (?) (!) (: ) (;) (...) («») (–), ( ) – qavs, (') ham qo'llanadi. Urg'u (') belgisi so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo'yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og'zaki nutqning fikrini to'liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so'zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho'ziq aytilishini (a'lo, e'tibor, iste'mol); 2) so'zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo'g'in bilan keyingi bo'g'inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so'z ma'nolarini farqlab beradi (ta'na – malomat, tana – organism); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: Is'hoq.

#### **4-mavzu: O‘zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari va qoidalari**

##### **Reja:**

##### **1.Orfografiya haqida ma'lumot.**

##### **2.O‘zbek orfografiyasining asosiy tamoyillari.**

##### **3.Hozirgi o‘zbek imlosining asosiy qoidalari.**

Orfografiya grekcha orphos ( to‘g‘ri ) va grapho (yozaman) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «to‘g‘ ri yozaman» degan ma‘noni bildiradi.

Jamiyatning har bir a‘zosidan to‘g‘ri so‘zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O‘quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo‘lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo‘lib, u tildagi o‘zak-negiz va qo‘shimchalarni yagona tarzda to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir.

Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an‘anaviy va differentsiatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o‘zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil bo‘yicha so‘zlar, so‘z tarkibidagi qo‘shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o‘shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo‘shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) son so‘ziga fe‘l yasovchi -a qo‘shimchasi qo‘shish bilan yasalgan so‘z sona emas, sana tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Yosh, ot so‘zlariga fe‘l yasovchi -a qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan yasalgan yosha, ota so‘zlari yasha, ata tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Ong so‘ziga fe‘l yasovchi -la qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan so‘z onгла emas, angla tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi. 2) o‘yin so‘ziga -a fe‘l yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan yasalgan so‘z o‘yna tarzida (i tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi; 3) sariq, ulug‘ so‘zlariga fe‘l yasovchi –ay qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan yasalgan so‘z sarg‘ay, ulg‘ay tarzida aytiladi va shunday yoziladi; 4) o‘qi, tani, tashi kabi fe‘l formalariga –v qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan so‘z tashuv, o‘quv, tanuv tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 5) tara, bo‘ya so‘zlariga ot yasovchi –q qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan so‘z taroq, bo‘yoq tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 6) q va k tovushi

bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda q tovushi g‘, k tovushi g tovushiga almashadi va shunday yoziladi: taroq+i= tarog‘i, kurak+i=kuragi, istak+i=istagi, o‘rtoq+i=o‘rtog‘i.

I z o h: q va k undoshi bilan tugagan ayrim so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda q va k tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: ishtiroki, ishtiyoqi, zavqi, shavqi, choki, cheki.

7) og‘iz, qorin, o‘rin, singil, ko‘ngil, burun, shahar kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi i, u, a unlilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: og‘iz+im=og‘zim, qorin+im=qornim, o‘rin+im=o‘rnim, singil+im=singlim, ko‘ngil+im=ko‘nglim, burun+im=burnim, shahar+im=shahrim (bu so‘z shaharim tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) adabiy tilda jo‘nalish kelishigining –ga qo‘shimchasi shakli qabul qilingan. Ba‘zan bu shakl –ka, -qa tarzida eshitiladi. Masalan: bilakka, go‘dakka, qishloqqa, toqqa kabi. Ko‘rinib turibdiki, so‘z q yoki k undoshi bilan tugaganda jo‘nalish kelishigi –qa, -ka shaklini olyapti. Og‘zaki talaffuzda so‘z qanday tovushlardan tashkil topgan bo‘lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti.

9) q va k undoshi bilan tugagan fe‘l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi – gach qo‘shimchasining –qach va –kach variantlari qo‘shilib, chiqqach, ekkach tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) rus tilidan o‘zlashgan kiosk, disk so‘zlari o‘zbek tilida kioska, diska tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) o‘zlashma rama, para, minuta, sekunda, konfeta kabi so‘zlarning oxiridagi a unlisi o‘zbek tili og‘zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (rom, par, sekund, minut, konfet kabi).

12) o‘zlashma shyotka, podnos so‘zlari esa cho‘tka, patnis tarzida aytiladi va yoziladi.

13) u, bu, shu, o‘sha olmoshlariga –da, -dan, -ga, -gacha, -cha qo‘shimchalari qo‘shilganda i tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, undan, ungacha va hokazo.

14) zachyot, syujet, sentyabr so‘zlari og‘zaki nutqda zachot, sujet, sentabr tarzida talaffuz qilinadi va talaffuzga mos shaklda yoziladi.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida umumiylikni vujudga keltiradi.

Demak, fonetik tamoyilga ko'ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo'llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlarning tarkibiy qismlari: o'zak-negiz va qo'shimchalari og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, ya'ni og'zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Bu tamoyil so'z o'zagini, unga qo'shiladigan qo'shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham beradi. Bu tamoyilga ko'ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O'zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya'ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh harflar imlosi hamda asos va qo'shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan: 1) uzum, uzuk, tugun, turmush kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida u kelsa, keyingi bo'g'inida u unlisi i tarzida aytilsa ham, u yoziladi. 2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (b, d, v, g, j(jim), j(juri), g', z) so'z oxirida jarangsiz (p, t, f, k, ch, sh, s) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: maktab, ozod; 3) shanba, sunbul, manba, vatanparvar kabi so'zlar o'rtasida kelgan n undoshi o'zidan keyin kelgan b, n, m undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og'zaki talaffuzda shamba, sumbul, mamba kabi m tarzida aytilsa ham, n shaklida yoziladi. 4) do'st, go'sht, to'rt, Toshkent kabi so'zlarda so'z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi; 5) pastqam so'zi o'rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (st) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi; 6) -lar ko'plik qo'shimchasi so'z oxirida kelganda, og'zaki nutqda -la tarzida aytilsa ham, yozuvda -lar shaklida yoziladi. 7) uch, to'rt sonlariga -ta, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, ushta, uchchala, to'rttala tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: uchta, uchala, to'rtala kabi.

Shuningdek, qo'shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya'ni kelishik qo'shimchalari og'zaki nutqda maktabta, ishtan tarzida aytilsa ham, maktabda, ishdan; fe'llardagi -di shaxs-son hamda yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi -ti tarzida (aytipti, aytti) aytilsa ham, aytibdi, aytdi kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o'zbek orfografiyasining asosiy va yetakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta'minlaydi.

Demak, morfologik tamoyilga ko'ra so'zning tovush tarkibi og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'i nazar o'zining morfologik shaklini o'zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an'anaviy tamoyil ( tarixiy-an'anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoki o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. Manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita a yoziladi.

2. Mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inida a og'zaki nutqda qisqa i tarzida aytilsa ham, an'anaga ko'ra a yoziladi.

3. Tadbir, tatbiq so'zlarining birinchi bo'g'ini oxiridagi d va t undoshlari bir xil t tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda d va t undosh harflari saqlanadi.

4. Dorboz, torozibon kabi so'zlardagi fors-tojik tilidan o'zlashgan –boz, -bon qo'shimchalari og'zaki nutqda –voz, -von tarzida aytilsa ham, uning an'anaviy shakli yozuvda saqlanadi.

5. An'anaviy tamoyil taqozo, hokazo kabi so'zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi o va a unlilari ba'zan a, ba'zan o unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan o (taqozo), a (hokazo) yozib kelingani uchun hozir ham yoziladi.

6. Ocherk, tonna kabi so'zlarining urg'uli bo'g'inida o unlisi o'zbek tilidagi o' unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi.

7. Direktor, traktor, ekspeditor kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi o unlisi og'zaki nutqda qisqa i unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi.

8. Motor, otryad, limonad, konsert, konspekt kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi talaffuzda a unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi o unlisi bilan yoziladi.

9. Zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr so'zlari og'zaki nutqda zachot, sujet, rejissor, sentabr tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi.

10. Rayon, mayor, Nyu-York so'zlaridagi yo harfiy birikmasi og'zaki nutqda yo' tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o'sha tildagi an'ana saqlanadi.

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi –r (-ar) ning –ur shakli ishlatilgan. Bu shakl ba'zan hozirgi she'riyatda ham saqlanadi.

### Ba'zan tirnoqlar bezagi uchun

Sahardan shomgacha qilursiz toqat,

Ammo eringizni kutgali nechun

Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)

Mazkur she'rdagi maqsad ma'nosini ifodalovchi –gani qo'shimchasi –gali tarzida qo'llangan.

Eski o'zbek tilida chiqish kelishigi –din ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi –dan o'rnida qo'llaniladi: Sendin o'zgani desam...

So'roq ma'nosini ifodalash uchun –mi yuklamasi ba'zan –mu tarzida, ya'ni qadimgi shaklda qo'llanadi. Masalan:

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differensiatsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi. Masalan:

1. Urg'u vositasida farqlash: atlás - mato, material. Átlas - geografik atlas, xarita. Akadémik - ot, akademík - sifat (masalan, akademík litsey).
2. Unlining cho'ziq-qisqaligi orqali farqlash (bunday so'zlarda unlining cho'ziqligini tutuq belgisi ta'minlaydi, demak bunday so'zlarning shakli va ma'nosi tutuq belgisiga ko'ra farqlanadi): tana – ta'na, surat – sur'at, qala – qal'a kabi.
3. Boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so'z ma'nosini farqlash: xol (yuzdagi xol) – hol (ahvol, holat).

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg'aluvchi j tovushi bilan qorishiq portlovchi j tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan

berilishi (jo‘ja-gijda kabi), sayoz til orqa –ng tovushini ifodalovchi harflar birikmasi ng hamda n va g tovushlarini ifodalovchi n va g harflari yonma-yon kelganda ham n va g talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: ko‘ngil – bitta tovush, senga - ikkita tovush.

Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan:

1. Ayrim harflar imlosi;
2. O‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi;
3. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari imlosi;
4. Bo‘g‘in ko‘chirilishi;
5. Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvining imlosiga doir qoidalari tasdiqlandi. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlardan iborat:

Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.

Asos va qo‘shimchalar imlosi.

Qo‘shib yozish.

Ajratib yozish.

Chiziqcha bilan yozish.

Bosh harflar bilan yozish.

Ko‘chirish qoidalari.

Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o‘rtasida quyidagi ayrim o‘zgarishlar mavjud:

1) juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelgan yuklamalar o‘zi bog‘langan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi: dost-u dushman, kecha-yu kunduz;

2) yil, oyni ko‘rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo‘yiladi: 1995-yil 24-avgust, 1993- yil 2-sentabr;

3) kirilchadagi ts harfi so‘z boshida va oxirida s harfi bilan beriladi: tsirk – sirk, abzats – abzas. So‘z o‘rtasida unlidan keyin ts harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa s harfi bilan beriladi: litsey – litsey, aktsiya – aksiya.

4) -ga qo'shimchasi g' tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda morfologik yozuv bo'yicha asliga muvofiq yoziladi: bog'+ga= bog'ga, tog'+ga= tog'ga.

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko'p chet tili so'zlari endilikda fonetik yozuv bo'yicha yoziladigan bo'ldi (bu o'zgarish asosan tarkibida yo, yu, ya harflari qatnashgan so'zlarga tegishlidir) : sentabr (sentyabr'), oktabr (oktyabr'), budjet (byudjet), rejissor(rejissyor), likor (likyor).

6) ayrim so'zlar esa oldin fonetik yozuv bo'yicha yozilgan bo'lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko'ra yoziladigan bo'ldi: ertalabki emas ertalabgi.

## 5-mavzu. Leksikologiya. Frazzeologiya

### Reja:

**1.Leksikologiyaning predmeti haqida tushuncha.**

**2.O'zbek leksikologiyasi tarixidan.**

**3.Hozirgi o'zbek leksikologiyasi.**

**4.Iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari**

**Leksikologiyaning predmeti haqida tushuncha.** Leksikologiya o'zbek tili kursining lug'at tarkibi (leksikasi)ni o'rganadigan bo'limidir.

Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi leksika deyiladi. Bu so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil etadi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) ichki va 2) tashqi tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi semasiologiya<sup>9</sup> deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, semasiologiya so'z hamda turg'un iboralarning ma'no xususiyatlarini tekshiradi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi etimologiya<sup>10</sup> deb yuritiladi. U tilning lug'at tarkibidagi so'z va iboralarning tarixan kelib chiqishini, yasama so'zlarning va boshqa tillardan kirgan so'zlarning ma'noli qismlarini izohlaydi. Demak, etimologiya so'zning ikki tomonini ham, ya'ni ichki – ma'no tomonini hamda tashqi – tovush tomonini ham tahlil qiladi.

Leksikologiya tashqi tomondan lug'at tarkibining hozirgi ahvolini, tilning lug'at tarkibida sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni: so'zlarning qo'llanish darajasini, ba'zi so'zlarning eskirib iste'moldan chiqib ketishini (sekretar, oblast kabi), fan, madaniyat va texnikaning uzluksiz rivojlanishi bilan tilning yangi so'zlar hisobiga boyishini, ba'zi so'zlar ma'nosida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni (ma'no ko'chish hodisasini) o'rganadi.

---

9 Semasiologiya – grekcha semasio – «belgi», «tamg'a» va logos – «ta'limot» ma'nolarini bildiradi.

10 Etimologiya – grekcha etymon – «haqiqat», logos – «ta'minot» ma'nolarini ifodalaydi.

Leksikologiyaning yana bir sohasi leksikografiya<sup>11</sup> deb yuritiladi. Leksikografiyaning vazifasi tildagi soʻzlarni yozma ravishda toʻplashdir. Leksikografiya soʻz va iboralarni maʼlum bir sohalar boʻyicha toʻplab, muayyan tartibda keltiradi (alifbo tartibiga soladi) va lugʻat kitoblari shaklida nashr etadi.

Leksikologiya tilning fonetika va grammatika boʻlimlari bilan bevosita bogʻliq. Fonetika nutq tovushlarini oʻrganadi. Leksika shu tovushlar asosida shakllanadigan soʻzni, grammatika oʻz qonun-qoidalarini asosida soʻzlarni oʻzaro bogʻlaydi va tilni fikr ifodalash uchun tayyorlaydi. Demak, tovush boʻlmasa, soʻz boʻlmaydi, soʻz boʻlmasa grammatikaning ham boʻlishi mumkin emas.

Maʼlumki, soʻzlovchi tilning lugʻat tarkibidan maqsadiga muvofiq tarzda foydalanadi. Bu leksikologiyaning uslubiyat bilan oʻzaro bogʻliq ekanini bildiradi.

Lugʻat tarkibi shu tilda soʻzlashuvchi xalqlarning moddiy va maʼnaviy madaniyat tarixi bilan bogʻliq. Shuning uchun leksikologiya tarix, arxeologiya, adabiyot, falsafa kabi ijtimoiy fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

Tilning lugʻat tarkibi va uni tashkil etuvchi soʻzlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan oʻrganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Avvalo, lugʻat tarkibini tashkil qiluvchi har qanday soʻz maʼnoga ega boʻladi. Ana shu maʼnosi nuqtayi nazaridan soʻzlar oʻziga xosliklarga ega. Soʻzning maʼnosi (semantikasi) va u bilan bogʻliq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya boʻlimi shugʻullanadi.

2. Har qanday tilning taraqqiyotida uning eng oʻzgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Til taraqqiyoti jarayonida lugʻat tarkibi yangi-yangi soʻzlar hisobiga boyib borish bilan birga, undagi ayrim soʻzlar eskiradi, shuningdek, isteʼmoldan chiqib boradi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham oʻrganiladi.

3. Lugʻat tarkibidagi soʻzlar isteʼmol darajasiga koʻra umumiylikka yoki chegaralanganlikka egaligi bilan ham oʻzaro farqlanadi. Maʼlum soʻzlar umumxalq isteʼmolida boʻlsa ( masalan, non, suv, katta, yugurmoq va b.), ayrim soʻzlarning isteʼmol doirasi maʼlum jihatdan chegaralangan boʻladi. Masalan, dialektal soʻzlar hududiy jihatdan chegaralangan boʻladi (kallapoʻsh – doʻppi, istamoq – qidirmoq, moyak – tuxum, eshik – hovli, uy); terminlar ijtimoiy nuqtayi nazardan

---

<sup>11</sup> Leksikografiya – grekcha lexikos – «lugʻat» va grapho – «yozaman» degan maʼnoni bildiradi.

chegaralangan, ya'ni ma'lum kasb-hunar sohasidagi kishilar nutqida qo'llanish bilan chegaralangan bo'ladi ( Masalan, urg'u, leksika, affiks – tilshunoslikka oid terminlar; hujayra, sitoplazma, xromosoma – biologiyaga oid terminlar; voleybol, gol, nokaut, futbol – sportga oid terminlar va h. k.). Leksikologiya lug'at tarkibini ana shu nuqtayi nazaridan ham o'rganadi.

4. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lagan munosabatiga ko'ra ham o'zaro farqlanadi. Ma'lum so'zlar nutq turlariga, uslubga betaraf munosabatda bo'lsa (quchoq, bechora, osmon, ichmoq va b.), ayrim so'zlar nutq uslubining ma'lum turiga xos bo'ladi (og'ush – badiiy uslubga xos, boyoqish – oddiy nutqqa xos, samo – badiiy uslubga xos, adib – kitobiy uslubga xos va h.k.). Leksikologiyada so'zlarning ana shu xususiyati ham o'rganiladi.

5. Har bir so'z tovush qiyofasi va ma'nosiga ega, ya'ni shakl va mazmunga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar ana shu shakl va mazmuni jihatidan turlicha munosabatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, chaqqon, epchil, chechan, abjir, chapdast, so'zlarining shakli har xil, ma'nosi bir xil (sinonim); o't (olov), o't (maysa), o't (harakat) so'zlarining shakli bir xil, ma'nosi har xil (omonim) va h.k. Leksikologiyada so'zlar ana shunday munosabatlari nuqtayi nazaridan ham o'rganiladi.

O'zbek leksikologiyasi tarixidan

So'z va uning ma'nolari haqida o'zbek tilshunosligi tarixida juda uzoq davrlardan buyon fikr yuritib kelingan. Lekin o'zbek tilining bir necha sathdan iborat bir butunlik ekanligi, o'zbek tili tizimida leksik sathning o'rni va tilshunoslikning leksik birliklarni o'rganuvchi alohida bo'limi mavjudligi, bu bo'limning boshqa bo'limlar bilan munosabati kabi masalalar, umuman, leksikologiya o'zbek tilshunosligining tarkibiy qismi va bir yo'nalishi sifatida XX asrning o'rtalaridan boshlab shakllandi.

O'zbek tili leksikologiyasining shakllanishida Faxri Kamolning "Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar" rukni ostida chop etilgan "O'zbek tili leksikasi" va Y. D. Pinxasovning "Hozirgi o'zbek tili leksikasi" risolalari hamda "Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar" rukni bilan e'lon qilingan barcha risolalarni o'zida jamlagan "Hozirgi zamon o'zbek tili" asari katta ahamiyatga ega bo'ldi<sup>12</sup>.

Bu asarlarda o'zbek tilshunosligi tarixida ilk marta leksikologiya o'zbek tilshunosligining alohida bo'limi ekanligi, uning o'rganish obyekti, maqsadi va vazifalari, tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan munosabati belgilandi.

---

<sup>12</sup> Hozirgi zamon o'zbek tili. T., O'zFan, 1957.

Soʻzning leksik va grammatik maʼnosi bir-biridan ajratildi. Shuningdek hali oʻzbek tili leksikologiyasida soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnosi farqlanmasdan turib, bu asarda soʻzlarning kontekst bilan bogʻliq maʼnolari haqida fikr yuritiladi. Koʻp soʻzlar oʻzining asosiy maʼnolari bilan cheklanib qolmay, turli kontekstda turlicha maʼno va maʼno ottenkalariga ega boʻlishi haqida gap boradi. Bundan tashqari soʻzlarning koʻp maʼnoliligi, oʻz va koʻchma maʼnolari haqida maʼlumot beriladi. Lekin koʻp maʼnolilikning turlari koʻrsatilmaydi. Shuningdek, omonimlar, sinonimlar, antonimlar haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Faxri Kamol oʻzbek tili leksikologiyasi boʻyicha kuzatishlarini davom ettirdi. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” kitobining leksikologiya qismi Faxri Kamol tomonidan yozildi. Unda leksikologiya oldingilaridan birmuncha kengaytirildi. Soʻzlarning leksik-semantik guruhlari haqida ilk maʼlumot berildi. Maʼno kategoriyasi atamasi kiritildi va bu atama ostida polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari oʻrganildi<sup>13</sup>.

Omonimlar, sinonimlarning ichki koʻrinishlari haqida batafsil maʼlumot berildi. Omonimlar ichki tuzilish va tashqi koʻrinish belgisiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) leksik omonimlar; 2) grammatik omonimlar; 3) morfologik omonimlar (omomo-rfemalar); 4) fonetik omonimlar (omofonemalar); 5) grafik omonimlar (omograf yoki omogrammalar). Omonimlarning bunday boʻlinishida muayyan tamoyilga boʻusunish va yetarli ilmiy dalillash alomatlari boʻlmasa ham, omoleksemalar farqining yoritilishi katta ahamiyatga ega boʻdi.

Sinonimlar ham tuzilish belgisiga koʻra ideografik, emotsional, ekspressiv-stilistik kabi turlarga ajratildi va ularning bir-biridan farqli belgilari aniqlandi. Oʻzbek leksikologiyasida ilk bor leksik dubletlar haqida maʼlumot berildi. Keyinchalik M. Mirtojiyev, I. Qoʻchqortoyev, A. Hojiyev, B. Isabekov, R. Shukuroarning leksik omonim, sinonim va antonimlar tadqiqiga bagʻishlangan maxsus asarlari maydonga keldi. Bu asarlar oʻzbek tili leksikologiyasining yanada takomillashuvi uchun xizmat qildi.

Faxri Kamol oʻzbek tili leksikasining rivoji, uning tarixiy qatlamlari, unda umumturkiy, oʻzbek, fors-tojik, arab, rus va boshqa tillarga doir soʻzlarning oʻrni haqida dastlabki maʼlumotni berga bsoʻlsa, oʻzbek tili leksikasining tarixiy qatlamlari va har bir qatlamni oʻrganishga bagʻishlangan maxsus tadqiqotning

---

13 Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I. Fonetika, Leksikologiya, Morfologiya. T., “Fan”, 1966, 114 – 149-betlar.

vujudga kelishi<sup>14</sup> o'zbek leksikologiyasining takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, Faxri Kamol so'zlarning ko'chma ma'nolari haqida boshlang'ich ma'lumot bergan bo'lsa ham, ko'chma ma'no turlari, ularning hosil bo'lish yo'llari yoritilmagan edi. Ana shu muammoni yoritishga M. Mirtojiyev va T. Aliqulovlar bel bog'ladi. M. Mirtojiyevning "O'zbek tilida polisemiya" I. Shukurovning "O'zbek tilida troplar" asarlarining yaratilishi bu muammoni yohritishda katta voqea bo'ldi. Shuningdek, ko'chimlarning u yoki bu turini tadqiq etishga bag'ishlangan alohida tadqiqotlarning dunyoga kelishi o'zbek tili leksemalarining ko'chma ma'nolarini chuqurroq o'rganish, metafora, metonimiya kabi hodisalarning lingvistik mohiyatini ochib berish uchun katta xizmat qildi.

Oltmishinchi yillrda o'zbek onomastikasi alohida yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Uning shakllanida E. Begmatovning xizmati katta bo'ldi. Prof. Z. Do'simov, T. Nafasov, N. Husanov tadqiqotlari bu yo'nalishni yana ham rivojlantirdi.

O'zbek tili leksikologologiyasi bo'yicha erishilgan yutuqlarning sintezi sifatida "O'zbek tili leksikologologiyasi" kitobi maydonga keldi.

70 – 80- yillardan boshlab o'zbek tilshunosligiga sistemaviy-struktur tilshunoslik qo'lga kiritgan yutuqlar, uning tadqiq metodlari kirib keldi. O'zbek tilshunosligida ham uzviy (komponent) tahlil metodlari qo'llanila boshlandi. Bu birinchi navbatda leksikologiyada namoyon bo'ldi. Natijada o'zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi bosqichga – nazariy bosqichga, leksikani ma'lum leksik-semantik guruhlardan (LSG) tashkil topgan butunlik, leksik birliklarni muayyan ma'no elementlarining munosabatidan tashkil topgan tizim sifatida o'rganish bosqichiga ko'tarila bordi. Bu bilan o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy (nazariy) leksikologiyasiga o'tila boshlandi. Bu jarayonni professor Sh. Rahmatullayev va uning shogirdi I. Qo'chqortoyev boshlab berdi. Xususan, U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining leksikologiya qismi o'zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy leksikologiyaga o'tish davri, leksikologiyaning bu ikki yo'nalishi o'rtasidagi ko'prik sanaladi. Chunki unda tavsifiy leksikologiya an'analari davom ettirilgan va takomillashtirilgan bo'lishi bilan birga, sistemaviy leksikologiyaning asosiy belgilaridan bo'lgan uzviy tahlil usuli joriy etilgan.

---

14 Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T., "Fan", 1985.

Leksemalar leksik ma'nosining semik tahlili joriy etilishi, har bir leksemaning leksik ma'nosi bir necha semadan tashkil topishi, shu bilan leksemaning leksik ma'nosi muayyan tuzilishga ega bo'lishi va bu tuzilish ideografik, uslubiyl, turkumlik semalarini o'z ichiga olinishining e'tirof etilishi bilan an'anaviy ko'p ma'noli leksemalarni boshqacha nomlashga to'g'ri keldi. Shuning uchun Sh. Rahmatullayev bunday leksemalarni polisemem leksemalar, bunday hodisani esa polisemiya deb nomladi.

Leksikologiyaning tavsifiy bosqichdan nazariy bosqichga ko'tarilishida I. Qo'chqortoyev tadqiqotlari katta rol o'ynadi<sup>15</sup>. Bu asarda muallif F. de Sosurning tilning belgilar stemasi ekanligi haqidagi ta'limotiga asoslanib, o'zbek tilshunosligi tarixida birinchilardan bo'lib lug'at tarkibini sistemaviy-struktur o'rganish muammosini ko'tarib chiqdi va o'zbek tilidagi nutq fe'llari misolida leksemalarning sistemaviy tabiatini yoritib berdi. R. Rasulovning holat fe'llarining uzviy (komponent) tahliliga bag'ishlangan tadqiqoti o'zbek sistemaviy leksikologiyasining shakllanishida mustahkam poydevor yaratdi.

O'zbek leksikologiyasining yuqori bosqichga ko'tarilishida jahon sistemaviy-struktur tilshunosligining eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassamlantirgan va o'zbek tilshunoslari erishgan yutuqlarni sintezlashtirgan "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari"<sup>16</sup> kitobining yuzaga kelishi katta voqea bo'ldi. Asarda sistemaviy tilshunoslikning asosiy tushunchalarini izchil bayon qilib berish, lingvistik oppozitsiyalar va ularning leksik sathda namoyon bo'lishi, leksemaning boshqa til birliklari tizimida tutgan o'rni, uning shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi bayon qilinadi. Bu asarda leksema sememasining tarkibi yoritib berildi. Uning tarkibidagi uch xil sema: 1) atash semasi; 2) ifoda semasi; 3) vazifa semasi (funktional semalar) alohida-alohida bayon qilindi. Bir sememali va ko'p sememali leksemalarni ajratishda mualliflar, an'anaviy leksikologiyadan farqli ravishda, distributiv lingvistika yutuqlaridan foydalangan holda, barqaror birliklar va nutqiy ko'rinish, erkin (o'xshash) va bog'liq (noo'xshash) qurshov tushunchasiga asoslandilar. Leksemalarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlarining yoritilishi hamda ularning leksik-semantik guruhlarga leksik-tematik (mavzuviy) to'dalarga ajratilishi, leksik-semantik guruh a'zolarining markaz-qurshovdan tashkil topishi, bu guruhda leksemalar orasida graduonimik, giponimik (jins-tur), partonimik (butun-bo'lak), iyerarxik (pog'ona-

---

15 Qo'chqortoyev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. T., "Fan", 1977; Shu muallif. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. Т., «Ўқитувчи», 1977.

16 Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., "O'qituvchi", 1995.

viy) munosabatlar kabi qator masalalarning yoritilishi bilan o'zbek leksikologiyasini turkiyshunoslikda yuqori pog'onaga olib chiqdi.


Leksikologiya leksikaga til tizimidagi ichki tizim (sistema) sifatida qaraydi. Shuningdek, o'zaro ma'noviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birliklar yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qoraladi. Shu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabati ochiladi. Masalan, olma, o'rik, nok kabi ho'l meva nomi bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomi boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi – kichik tizimchalardan tashkil topgan “meva-sabzavot nomi” tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab davom etaveradi.

Leksik tizimda har so'zning ma'nosi u mansub bo'lgan lug'aviy ma'no guruhidagi boshqa so'zlar bilan munosabati orqali ochiladi. Masalan, ota, ona, aka, uka, opa, singil so'zlari “qon-qarindoshlik” lug'aviy ma'no guruhini tashkil qiladi. Bu guruhdagi aka so'zining ma'nosi quyidagicha: qon-qarindosh, bir avlod, erkak, mendan katta. Bu so'z bir avlod degan ma'no bilan ota, ona so'zlaridan, erkak degan ma'no bilan opa, singil so'zlaridan, mendan katta degan ma'no bilan uka so'zidan farqlanadi. Qon-qarindosh degan ma'nosi bilan esa bu qatordagi boshqa so'zlar bilan bir guruhga birlashadi.

Leksik tizim, yuqorida aytilganidek, pog'onali qurilishga ega. Ya'ni leksik tizimning o'zi murakkab bo'lib, bir necha tarkibiy qismning birikishidan tarkib topadi. Har bir tarkibiy qism esa o'z navbatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Binobarin, bularning har ikkisi ham murakkab bo'lib, bu jarayon, alohida, yakka so'zgacha davom etadi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil, yordamchi va undov so'zlarga bo'linadi. O'z navbatida mustaqil so'zlar ishora ma'noli so'zlar – olmoshlar va atash, nomlash vazifasini atovchi so'zlarga ajraladi. Atovchi so'zlar o'z navbatida ot, sifat, son, fe'l, ravishga bo'linadi. Ularning har biri, o'z navbatida, yana o'nlab mavzu guruhlariga, bularning har biri esa yana ham kichikroq ma'no guruhlariga – alohida, yakka so'zga yetib kelguncha pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi.

Leksik tizimlarning bunday pog'onali (bosqichli) qurilishi leksema sememasi tarkibidagi semalarning birlashtiruvchi va farqlaovchi bo'linish dialektikasi bilan, nisbiyligi bilan uzviy bog'liqdir. Muayyan leksik tizim muayyan sema (ma'noning tarkibiy qismi) asosida tashkil topadi. Bu sema leksik tizim uchun birlashtiruvchi sema hisoblanadi. Ayni vaqtda u (sema) o'zi birlashtiruvchi leksik tizimni o'ziga nisbatan yuqorida joylashgan tizimdan va o'zi bilan bir pog'onada joylashgan boshqa tizimdan farqlab turadi. U farqlovchi sema vazifasini bajaradi.

Leksik tizimdagi kichik tizimlar va ular tarkibidagi so'zlarni giponimiya, partonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi ma'noviy munosabatlar o'zaro bog'lab turadi. Quyidagi chizmada leksik tizimning bo'linishi ot so'ziga yo'naltirilgan holda tasvirlangan.



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, bunday pog‘onali qurilishda har bir bosqich pastki bosqichga nisbatan katta, yuqori bosqichga nisbatan esa kichik hisoblanadi. Shu bois leksik tizimlarga nisbatan katta tizim (makrotizim) va kichik tizim (mikrotizim) atamaları ko‘p ishlatiladi. Ayni vaqtda katta tizim va kichik tizim tushunchalari hamisha nisbiy bo‘ladi. Chunki muayyan bosqichda muayyan tizim yuqorida joylashganidan kichik (ya‘ni unga nisbatan kichik tizim, mikrotizim), pastda joylashganidan esa katta (ya‘ni katta tizim, makrotizim)dir. Hatto o‘zbek tilining butun lug‘at tarkibi tilning atovchi (nomlovchi) birliklari (leksemalar, so‘z yasash vositalalari, so‘z birikmalari hosil qilish qoliplari, murakkab atamalar, iboralar va h.k.)ga nisbatan kichik tizimdir.

So‘z va uning belgilari. Leksikologiyani asosiy birligi so‘zdir. So‘zga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: borliqdagi narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat kabilarni nomlovchi til birligi so‘z deyiladi. Masalan, oltin so‘zi sariq rangli qimmatbaho metallning nomi, sariq so‘zi rangning nomi, o‘n so‘zi muayyan miqdorning nomi, yurmoq so‘zi ma‘lum harkatning nomi, do‘stlik so‘zi ma‘lum munosabatning nomi. Demak, so‘z mohiyatan nom ekan.

So‘z murakkab til birligi bo‘lib, quyidagi belgilarga ega:

1. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni nomlaydi, ya‘ni nominativ vazifa bajaradi. Biroq so‘z borliqdagi har qanday alohida narsani emas, bir turga mansub narsalar haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, tosh so‘zi “yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan, qattiq, mo‘rt tog‘ jinsi” degan tushunchani bildiradi va bu so‘z bilan borliqdagi har qanday toshni nomlash mumkin.

2. Har bir so‘z tovush qobig‘iga ega. Masalan, bola so‘zi b, o, l, a tovushlar tizmasidan iborat. So‘zning fonetik o‘ziga xosligi shundan iboratki, uning ichiga boshqa til birligini kiritib bo‘lmaydi. Masalan, belkurak so‘zining qismlari orasiga boshqa so‘z kiritib bo‘lmaydi. Bel bog‘lash so‘z birikmasining orasiga esa so‘z kiritib, belni mahkam bog‘lash so‘z birikmasi zanjirini hosil qilish mumkin.

3. So‘z nutqda turli-tuman grammatik ma‘nolarni ifodalash uchun shu ma‘nolarga xos shakllarda qo‘llanadi. Boshqacha aytganda, so‘zlar shakl yasash tizimiga ham ega: kitob+lar+im, ishchi+lar+imiz+ga, o‘qi+yap+ti+lar.

4. Alohida olingan so‘z muayyan tushunchani ifodalasa, gap tarkibida ma‘lum gap bo‘lagi, ya‘ni fikrning bir qismini ifodalaydi. Masalan, Bog‘da bulbul sayrayapti gapida bog‘da so‘zi hol, bulbul so‘zi ega, sayrayapti so‘zi kesim vazifasini bajaryapti, mazmunan esa bog‘da so‘zi ish-harakatning o‘rnini, bulbul

soʻzi ish-harakatning bajaruvchisini, sayrayapti soʻzi esa bajaavchining ish-harakatini hukm tarzida ifodalayapti.

Soʻzning lugʻaviy maʼnosi. Soʻzning muhim belgisi maʼnoga egaligidir. Soʻz maʼnosida borliqdagi biror narsa-hodisa haqidagi tushuncha aks etadi. Tushuncha tafakkur birligi boʻlib, narsa va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi fikr shaklidir. Tushunchaning sezgi, idrok va tasavvurdan farqi shundaki, u konkret belgi va jihatlarni emas, eng umumiy, eng umumiy belgilarnigina saqlab qoladi. Tushuncha uchun umumiylik xos. Masalan, borliqda turli-tuman daraxt mavjud. Ular bir-biridan bargi, tanasining rangi, shakli, boʻyi, mevali-mevasizligi va boshqa belgilari bilan farq qiladi. Biroq ongimizdagi daraxt tushunchasi “yoʻgʻon tanali, shoxlab oʻsadigan koʻp yillik oʻsimlik” degan umumlashma tasavvurdan iborat. Bu tushunchada daraxtlarning eng muhim belgilari umumlashtirilgan boʻlib, unda borliqdagi alohida daraxtlarning konkret, muhim boʻlmagan belgilari (bargining shakli, tanasining rangi, shakli, boʻyi, mevali-mevasizligi) aks etmagan.

Kishining fikrlashi tushuncha asosida vujudga keladi. Shu maʼnoda, soʻz – tushunchaning tildagi ifodasi. Soʻz tushunchaning moddiy qobigʻini shakllantiruvchi va ichida saqlab turuvchi “idish”ni tashkil etsa, tushuncha soʻzning mazmun tomonini – maʼnosini tashkil etadi.

Tushuncha va soʻz orasidagi izchil aloqa – nihoyatda keng masala. Bunda jamiyat, milliylik va voqelik munosabatlari katta taʼsir koʻrsatadi. Masalan, biz (oʻzbeklar) qor tushunchasini bir soʻz bilan ataymiz, eskimoslar esa taxminan 10 xil soʻz bilan qor turlarini farqlaydi va aksincha biz otning 50 dan ortiq turini alohida-alohida soʻz bilan farqlaymiz. Oʻzbek uchun ot va uning turlarini anglatuvchi baytal, biya, aygʻir, qulun, toy, gʻoʻnan, doʻnan kabi tafakkur birliklari (biz bu soʻzlarning maʼnosini nazarda tutaymiz) tushunchadir. Demak, tushuncha milliy xususiyatga ham ega.

Yuqorida aytilganlar soʻz va tushuncha biri ikkinchisini talab etadigan, bir-birisiz mavjud boʻla olmaydigan dialektik munosabatdagi birliklar ekanligidan dalolat beradi. Shunday yaqin aloqa va bogʻlanishda boʻlgani holda soʻz tushunchaga, tushuncha esa soʻzga teng emas va ularning har birining oʻziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, soʻz ikki tomonlama birlik boʻlib, tashqi – moddiy hamda ichki – mazmun tomonlaridan iborat. Shu tufayli soʻzni leksikologiyada mazmun tomonidan, fonetika, morfologiyada ifoda tomondan tekshirishga imkon bor. Tushuncha esa bir tomonlama birlik boʻlib, u abstraksiya, umumlashtirishdan

iborat. Shuning uchun ham tushunchaning tashqi tuzilishini o'rganib bo'lmaydi. So'z esa o'zining ma'nosi bilangina tushuncha bilan bog'lanadi. Tushuncha ongimizda faqat mazmun tomondan tizim hosil qiladi, so'z esa semantik sistemaga ham, grammatik, leksik, morfologik, uslubiy tizimlarga ham kiradi. Shu asosda so'z va tushuncha orasidagi birinchi farqni: So'z ikki tomonli lisoniy birlik, tushuncha esa bir tomonli bo'lib, tafakkur birligidir deb berishimiz mumkin.

Ikkinchidan, so'zlar mustaqil, yordamchi va so'z-gaplarga ajraladi, tushuncha bilan bog'liqlik esa mustaqil so'zlarning bir qismiga – olmosh turkumidan boshqa so'zlarga xosdir. Yordamchi so'zlar, olmoshlar tushuncha bilan bog'lanmagan. Undov, modal, taqlid va taklif-ishora (chunonchi, oh, albatta, tiq-tiq, ma) so'zlarning tushuncha bilan bog'langanligi munozaralidir. Bundan tashqari, tushuncha faqat so'z bilan emas, so'z birikmasi va so'z birikmasi zanjiri bilan ham ifodalanadi. Shu asosda so'z va tushuncha orasidagi ikkinchi farqni: Hamma so'z ham tushunchaning shakli emas, tushunchaning shakli faqat so'z emas deb berishimiz mumkin. Shu asosda tushunchaga tavsif berganda “Tushuncha so'z bilan ham (olim), so'z qo'shilmasi bilan ham (Abu Nasr Forobiy), so'z birikmasi bilan ham (Muallimi soniy, Sharq Aristoteli) ifodalanadi” deyish mumkin. Shuning uchun sof mantiqiy nuqtayi nazardan urg'ochi ot – baytal, qulunli ot – biya, onaning akasi – tog'a ayni bir tushunchaning ikki xil shaklidir. Lekin ularni sinonim deb atash mumkin emas, chunki ulardan biri so'z, ikkinchisi so'z birikmasi bo'lib, turli lisoniy sath birliklaridir.

Uchinchidan, tilda ayni bir tushuncha nafaqat turli sath birliklari bilan, ayni bir sathning bir necha birligi bilan berilishi mumkin (sinonimiya). Chunonchi, kichik – mayda, o'rganmoq – o'zlashtirmoq, o'lmoq – vafot etmoq va aksincha, ayni bir so'z bir necha tushunchani ifodalashi mumkin (ko'p ma'nolilik): o'rik – meva, o'rik – daraxt.

Shu asosda so'z va tushuncha orasidagi uchinchi farqni “Bir tushuncha bir necha so'z bilan va bir necha tushuncha ayni bir so'z bilan ifodalanishi mumkin” deb berishimiz mumkin.

To'rtinchidan, tushuncha tafakkur birligi, borliq lohidaliklari va munosabatlaridagi umumiy va muhim tomonlarning ongdagi in'ikosi bo'lib, baholash, unga kimningdir munosabati, qo'shimcha (yondosh, hamroh) ma'nolar xos emas; u baho ma'nosidan xolidir. So'z esa, aksincha, konnotativ (qo'shimcha uslubiy) ma'no bo'yog'isiz bo'lmaydi. Chunonchi, turq-angor-aft-bashara-YUZ-chehra-jamol-oraz-ruxsor qatoridagi yuz so'zi bo'yoqsiz emas, balki neytral bo'yoqlidir. Shu xususiyat asosida to'rtinchi farqni “Tushuncha uchun qo'shimcha

ma'no xos emas, so'z esa qo'shimcha ma'nosiz bo'lmaydi", - deb ifodalashimiz mumkin.

Beshinchidan, tuhsuncha tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarishi, hatto o'z aksiga o'tishi va bu so'zga ta'sir etmasligi, shuning aksi sifatida so'z tamoman o'garib, tushunchaga mutlaqo ta'sir etmasligi mumkin. Birinchi holatni biz Birinchi holatni biz Yer va Quyosh haqidagi bundan yuz yil oldingi va bugungi tushunchalarimizning qiyosida ko'rsak<sup>17</sup>, ikkinchi holatni bundan yigirma yil oldin ishlatilgan oblast, rayon so'zlarining viloyat, tuman so'zlari bilan osongina almashinganida ko'ramiz. Shu asosda so'z va tushuncha orasidagi beshinchi farqni "So'z o'zgarib, tushuncha o'zgarmasligi va, aksincha, tushuncha o'zgarib so'z o'zgarmasligi mumkin" deb ifodalashimiz mumkin.

So'z va tushuncha orasidagi munosabatni ko'rib o'tdik. Endi shu asosda so'z ma'nosiga ta'rif beramiz. So'zning borliqdagi biror (bir turdagi) narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat haqidagi tushunchani ifodalashi uning ma'nosi deyiladi. Masalan, gilam so'zining ma'nosi "odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihozi".

So'zning ma'nosi murakkab bo'lib, uning bir necha turi mavjud. Eng avvalo ma'noning lug'aviy (leksik) va grammatik ma'no turini farqlash kerak.

So'zning borliqdagi qanday narsa, belgi, miqdor, harakat, munosabat haqidagi tushunchani ifodalashi uning lug'aviy ma'nosi deyiladi. Masalan, atala – "qizdirilgan yog'ga qovurilgan un solib, suv qo'shib pishiriladigan suyuq ovqat", arang – "katta qiyinchilik bilan, zo'rg'a", archmoq – "po'stini, qobig'ini olmoq, po'chog'ini tozalamoq". So'zlarning lug'aviy ma'nosi izohli lug'atda qayd etiladi. So'zning leksik ma'nosi uning o'zak, negizida bo'ladi. Ba'zi bir so'zda lug'aviy ma'no bo'lmaydi: lekin, bilan, ammo, uchun, sari kabi. Faqat mustaqil so'zgina atash ma'nosiga ega. Olmosh bundan mustasno. U o'zi ishora qiladigan so'zning atash ma'nosiga ishora qiladi.

Grammatik ma'no deganda nima tushuniladi?

So'zning biror so'z turkumiga xos belgisi, so'z birikmasi va gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi xususiyati grammatik ma'no deyiladi. Chunonchi, "Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydi" gapini olsak, "Bolalar" so'zida 2 xil ma'no ajralib turadi:1) lug'aviy ma'no - ya'ni bu so'zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo'lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi,

---

17 Yuz yil oldin bizning ongimizda Quyosh Yer atrofida aylanardi, hozir esa teskarisi.

avlodini atab kelish; 2) ko'plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma'nolardan birinchisi lug'aviy, leksik ma'no bo'lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma'nodir. Grammatik ma'no juda ko'p so'z uchun bir xil, ya'ni umumiy bo'ladi. Lug'aviy ma'no esa har bir so'zda alohida.

Lug'aviy ma'noning bir necha turi mavjud. Bu turlar o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha juftlikni hosil qiladi.

1. Semema va nutqiy ma'no. Semema va nutqiy ma'no haqida so'z yuritishdan oldin leksema tushunchasiga to'xtalib o'tish joiz.

Sistem yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. SHuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik [stol], [ona], [ruchka], [bormoq], [qizil], [o'n] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongda tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining «buyrug'i»ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida «meros qilib qoldirilgan». So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'llashi mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossasiga ega bo'la oladi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'llanilishi. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman gapidagi kitoblarni so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun [kitob] leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. [kitob] leksemasi ongimizda «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan.

Leksema soʻzdan boyroq va kengroq. Biroq soʻz nutqda turli «begona» – bevosita leksemaga aloqador boʻlgan lisoniy va aloqador boʻlmagan kontekstual hodisalar bilan «boyitilgan», nutqda voqelanish uchun shakllantirilgan boʻladi. Leksemaning «boy»ligi «oʻziniki»dir. Soʻz esa, aytilganidek, oʻz asosidagi leksemaga tegishli boʻlmagan boshqa nolugʻaviy omillar - fonetik, morfologik, sintaktik uslubiy mohiyatlar hamda nolisoniy hodisa zarralarini biriktirib, oʻziga tegishli boʻlmagan hodisalar hisobiga «boyiydi».

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni semema deyiladi. Semema ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan koʻrinishi. Boshqacha aytganda, semema leksemaning ichki jihati.

Birorta leksemaning sememasi ikkinchi leksemaning sememasiga aynan oʻxshash boʻlmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema yoʻq. Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin boʻlishimiz mumkin:

[yuz] - inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha boʻlgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

[bet] - inson boshi old tomonining peshanadan iyakkacha boʻlgan qismining soʻzlashuv uslubiga xos ifodasi.

Koʻrinadiki, birinchi sememadagi «uslubiy betaraf» unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi «soʻzlashuv uslubiga xos» unsuri birinchi sememada yoʻq.

Agar semema aynan boʻlib qolsa, demak, bu ular tavsifida noqislik mavjud deyishga asos boʻladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi soʻz qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan anglaydi.

Har qanday butunlik boʻlakdan tashkil topganligi kabi, semema ham tarkibiy qismdan iborat boʻladi. Masalan, leksema butunlik sifatida nomema va sememadan tashkil topadi.

Nomema butunligini tovush hosil qiladi. Tilshunoslikda sememani tashkil etuvchi unsur sifatida sema ajratiladi. Masalan, [kitob] leksemasi ikki sememali boʻlib, uning bir sememasi «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qoʻlyozma holdagi davriy boʻlmagan oʻquv vositasi» boʻlib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- 1) “varaqlardan tashkil topgan”;
- 2) “o‘quv vositasi”;
- 3) “davriy bo‘lmagan”;
- 4) bosma yoki qo‘lyozma holdagi”;
- 5) “muqovalangan”.

Sememada bir sema almashtirilishi bilan u butunlay boshqa sememaga aylanib ketishi mumkin. Masalan, yuqoridagi «davriy bo‘lmagan» semasini «davriy bo‘lgan» semasiga almashtirsak, u o‘z-o‘zidan [jurnal] leksemasining sememasi bʻyilib qoladi.

Leksemaning semamasini aniqlashda u paradigmadoshi bilan munosabatda tekshiriladi. Deylik, [yuz] leksemasi sememasi ochilayotganda, u [bet], [aft], [chehra], [oraz], [turq], [bashara] va hokazo leksema qurshovida o‘rganiladi. [Kelmoq] leksemasi sememasini [bormoq], [ketmoq] va boshqa leksema sememalarisiz aniqlab bo‘lmaydi.

Sememaning gap, matnda namoyon bo‘ladigan ko‘rinishi nutqiy lug‘aviy ma’no deyiladi. Semema va nutqiy ma’no munosabati, albatta, boshqa lisoniy birlikda bo‘lgani kabi, dialektikaning umumiylik-xususiylilik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat, umuman olganda, zot va tajalli dialektikasini o‘zida aks ettiradi. SHuningdek, barcha lisoniy birlik va ularning nutqiy voqelanishida kuzatilgan tayyor - tayyor emas, ijtimoiy-individual, cheklangan-cheksiz, barqaror-beqaror, takror- betakror umumnisbatli belgisi semema va nutqiy ma’no munosabatida o‘ziga xos tarzda tajallilanadi. Masalan, [yaxshi] leksemasining sememasi “umumiy ijobiy baho” bo‘lib, bu semema yaxshi qiz so‘z birikmasida odobli, yaxshi kitob so‘z birikmasida qiziqarli, yaxshi pichoq so‘z birikmasida o‘tkir, yaxshi o‘qituvchi birikmasida mahoratli degan nutqiy ma’nolar sifatida yuzaga chiqqan. [Yaxshi] leksemasining “umumiy ijobiy baho” sememasi tayyorlik, takrorlanuvchanlik, barqarorlik, ijtimoiylik belgilariga ega bo‘lsa, bu leksemaning nutqiy ma’nolari tayyor emaslik, betakrorlik, o‘tkinchilik, individuallik xususiyatiga ega. Nutqiy ma’no qanchalik cheksizlik kasb etmasin, uning asosidagi semema bittaligicha qolaveradi.

Sema turlari. Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);

### 3) vazifa semasi (funktional sema).

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi soʻzlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi.

Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bogʻlab turadi. Masalan, yuqorida keltirilgan [kitob] leksemasining barcha semasi – atash semasi.

Bir xil yoki oʻxshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada koʻp holda atash semasi bir xil boʻladi. Masalan, [yaxshi], [tuzuk], [durust], [ajoyib] yoki [yuz], [chehra], [oraz], [turq], [aft], [bet] maʼnodoshlik qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. [Yaxshi], [tuzuk], [durust], [ajoyib] leksemalarining atash semalari quyidagilar: 1)«belgi»; 2)«barqaror belgi»; 3)«sifat belgi»; 4)«shaxsiy baho»; 5)«ijobiy»; 6)«ichki-tashqi». SHu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud boʻlib, ular [tuzuk] leksemasida «meʼyordan bir pogʻona pastlik», [yaxshi] leksemasida «meʼyordalik», [ajoyib] leksemasida «meʼyordan bir pogʻona yu-qorilik» semalaridir. [yuz], [chehra], [oraz], [turq], [aft], [bet] leksemalarida esa: 1) «in-son boshi old tomoniga xos»; 2) «peshanadan iyakkacha boʻlgan qism» semasi atash semasi.

Aytilganidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigmada oʻz korrelyanti bilan tekshirilishi lozim. Aks holda leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim boʻlmagan) semasini farqlashning imkoni boʻlmaydi. Masalan, ingliz tilidagi [brother] leksemasining sememasi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» atash semalariga ega. Oʻzbek tilidagi [aka] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda «mendan katta» relevant semasi ham bor. CHunki [aka] leksemasi shu semasi bilan [uka] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Brother] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yoʻq, shu boisdan unda noaniq tabiatli «mendan katta/mendan kichik» semasi mavjud boʻlib, u noaniq boʻlganligi sababli irrelevantdir. Rus tilidagi [kobila] leksemasida «urgʻochi» semasi muhim boʻlib, u oʻzbek tilidagi [baytal] leksemasining ham, [biya] leksemasining ham muqobili boʻla oladi. Biroq [baytal] va [biya] zidlanishida «urgʻochi» semasi emas, «qulunli» ([biya] leksemasida) va «qulunsiz» ([baytal] leksemasida) semasi relevant (muhim).

Koʻrinadiki, leksema sememasi tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememani farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, [yuz] va [bet] leksemasining ifoda semasi o'zaro qiyosda ochiladi:

- [yuz] - inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi.

- [bet] - inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Bu sememalardagi «uslubiy betaraf» ([yuz] leksemasidagi) va «so'zlashuv uslubiga xos» ([bet] leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semasidir.

[Turq] leksemasidagi «salbiy», [jamol] leksemasidagi «ijobiy» semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, [aeroplan] leksemasidagi «arxaik», [komp'yuter] leksemasidagi «neologizm», [xarseb] leksemasidagi «shevaga xos» semasi qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi.

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. SHu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari ingerent konnotativ sema va muhim bo'lmagan ifoda semalari adgerent konnotativ sema deyiladi.

Vazifa semasi leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, [kitob], [daftar], [maktab], [bormoq] kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. [Qat'iy], [keskin], [moviy], [qizg'ish] leksemalarining vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir b'yladi. Masalan, mustaqil leksema atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi. Ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksema atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, [bo'ri] leksemasi odamga nisbatan

qo‘llanganda undagi «hayvon», «itsimonlar oilasiga mansub», «yovvoyi» atash semalari kuchsizlanib, «yirtqich», «vahshiy», «qonxo‘r» ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.

Mustaqil leksema yordamchi so‘z vazifasida qo‘llanganda undagi atash va ifoda semasi kuchsizlanib, vazifa semasi esa kuchayib voqelanadi.

Semaning darajasiga ko‘ra turi. Sema darajasiga ko‘ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o‘xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o‘xshash, ma’noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Masalan, [ota], [ona], [aka], [opa], [uka], [singil] leksemasidagi «qarindosh», «qon-qarindosh», «bevosita» semasi integral sema bo‘lsa, «mendan katta» semasi [ota], [ona], [aka], [opa] leksemalarini o‘zaro birlashtiruvchi, ammo [uka], [singil] leksemalaridan farqlovchi semalardir. «mendan kichik» semasi [uka] va [singil] leksemasini o‘zaro birlashtiruvchi, biroq oldingi leksemadan farqlovchi sema. Ko‘rinadiki, bir sema leksemani bir vaqtning o‘zida nima bilandir birlashtiruvchi, nima bilandir farqlovchi qarama-qarshi tabiatli mohiyatga ega. Birlashtiruvchi sema sistema hosil qiluvchanlik, sistemaga asos bo‘luvchi, farqlovchi sema esa sistemada tug‘iluvchi, paydo bo‘luvchanlik xossasiga ega.

Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzvli tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda, sema ximiyaviy elementga o‘xshaydi. Borliqda ximiyaviy element turi sanoqli bo‘lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad ko‘p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko‘plab semema vujudga keladi.

2. Atash ma’nosi va qo‘shimcha ma’no. So‘zning borliqdagi biror harakat-holat, narsa-predmet, miqdor, belgi-xususiyatni atovchi, nomlovchi ma’nosi atash ma’nosi deyiladi. Atash ma’nosi atash semalarining yigindisidan tashkil topadi. Masalan, [kitob] so‘zining atash ma’nosi «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo‘lyozma holdagi davriy bo‘lmagan o‘quv vositasi»dir. Atash ma’nosi tilshunoslikda denotativ ma’no ham deyiladi.

So‘zning atash ma’nosiga qo‘shimcha tarzda kishining his-tuyg‘u, kayfiyati, turli munosabati va so‘zning turli uslubda qo‘llana olishini ifodalovchi ma’no so‘zning qo‘shimcha ma’nosi deyiladi. Masalan, yuz, bashara, chehra sinonimik qatorida atash ma’nosi bitta – “inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi”. Biroq bu so‘zlarning qo‘shimcha ma’nosi har xil. Yuz so‘zidagi “betaraf”, bashara so‘zidagi “salbiy”, chehra so‘zidagi “ijobiy” ma’no qirrasini – qo‘shimcha

ma'nodir. Qo'shimcha ma'no tilshunoslikda konnotativ ma'no, qo'shimcha ottenka, emotsional-ekspressiv bo'yoq, stilistik belgi kabi atamalar bilan ham yuritiladi.

Qo'shimcha ma'no asosan ikki xil:

a) hissiy ma'no (emotsional-ekspressiv);

b) uslubiy ma'no (stilistik).

So'zlovchining his-tuyg'u, kayfiyati, turli munosabatini bildiruvchi ma'no hissiy ma'no deyiladi. Hissiy ma'no ham o'z navbatida so'zlovchining qanday munosabatini ko'rsatishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

a) ijobiy;

b) salbiy.

Masalan, chehra so'zi yuzni ijobiy ma'no bilan ifodalaydi. Bashara so'zi salbiy munosabatni ifodalaydi.

Uslubiy ma'no so'zning nutq uslubidan biriga mansubligini ko'rsatuvchi, uni nutq uslubiga ko'ra tavsiflovchi xususiyatidir. Masalan, osh, non, yuz, chiroyli, osmon so'zlari uslubiy betaraf bo'lib, samo, jamol, suluv, beshak, bashar, ko'klam, sabo so'zlari badiiy uslubga, ketvorgan, obdon, bop, qittay, maza, urmoq, tushirmoq (yemoq ma'nosida) so'zlari so'zlashuv uslubiga, integral, hujayra, galaktika, kesim, kosiniy kabi so'zlar ilmiy uslubga xos. Uslubiy betaraf so'zni har qanday nutq uslubida qo'llash mumkin. Uslubiy xoslangan so'z ma'lum bir nutq uslubida qo'llanadi.

Leksik ma'no deganda so'z ifoda etadigan tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq va uslubiy belgilar yig'indisi tushuniladi. Demak, tushuncha, hissiy-ta'siriy bo'yoq, uslubiy belgi leksik ma'no komponentlari deyiladi.

3. O'z va ko'chma ma'no. So'z nutqda o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin. So'zning nutqdagi ma'nosi uning sememasiga mos kelsa, bu o'z ma'no deyiladi. Masalan, oltin so'zining sememasi "sariq rangli qimmatbaho metall". Quyidagi gapda oltin so'zi o'z ma'nosida qo'llangan: O'zbekistonda yuqori sifatli oltin qazib olinadi.

So'zning o'zi anglatgan tushunchadan boshqa tushunchani obrazli, ta'sirli tarzda ifodalashi so'zning ko'chma ma'nosi deyiladi. Quyidagi gapda oltin so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan: Yurtimizga oltin kuz kirib keldi. Bu gapda oltin so'zi "to'kin-sochin, farovon" degan ma'noni obrazli, ta'sirchan ifodalagan. Gapdagi oltin so'zini to'kin-sochin so'zi bilan almashtirsak, gapdagi obrazlilik yo'qoladi.

Ko'chma ma'no obrazlilik xususiyatiga ega bo'lganligi bois badiiy nutqda ko'p ishlatiladi:

Bahor to'kib soldi bor bisotini,  
Yashil yaproqlarda, gullarda bahor.  
Tiniq ko'k, sof havo, oltin nurlarda,  
Kumush suv, mayin yel, dillarda bahor. (Uyg'un)

She'rdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan.

4. Zohiriy va botiniy-ramziy ma'no. So'zning hamma uchun tushunarli, ko'zga ko'rinadigan, oddiy, sodda ma'nosi zohiriy ma'no deyiladi. Masalan, suv so'zining "tiniq, rangsiz ichiladigan suyqlik" ma'nosi zohiriy ma'no hisoblanadi.

So'zning hamma uchun tushunarli bo'lmagan, maxsus ma'noda qo'llanishi botiniy-ramziy ma'no deyiladi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi o'zbek, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Umar Xayyom kabi fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari o'z g'azal va dostonlarida so'zning zohiriy ma'nolari bilan birga ramziy, ishorali ma'nolaridan ham foydalanganlar. Ularning asarlarida uchraydigan yor, mahbuba, suyukli, oshiq, gul, bulbul, tikan, soqiy, rind, sharob, may, mayxona kabi ko'pgina so'zlarda islom dini va falsafasi asosida boshqa xil – botiniy-ramziy, ishorali ma'nolar yashiringan. Bu so'zlarning botiniy-ramziy ma'nolari Haqqi mutlaq, yagona va yakka Ollohga ishora qilish, borliqni yaratish sababchisining sifatlarini ramziy timsollar orqali vositasida ifodalashga xizmat qilgan. Ular go'zal yor va ma'shuqa deganda Haqning o'zini, gul deganda uning go'zalligini, may, sharob deganda Haqni topish vositalari – xudoga muhabbat, yaxshilik qilish, o'zni tiyishni tushunganlar. Oshiq, bulbul, majnun kabi so'lar Haqni topishga intiluvchi Haq toliblariga, Haq talablarga ramziy ishora qilib turadi.

So'zlarning botiniy ma'nolarini bilish ma'rifat, ya'ni bilag'onlik, donolik hisoblanadi. Mumtoz adiblarimiz g'azallariga botiniy-ramziy ma'nolar asosida yondashsak, g'azalning oddiy, ishqiy ma'nosi tamoman boshqacha – falsafiy, diniy mazmun kashf etadi. Misol tariqasida Boborahim Mashrabning bir baytini shu nuqtayi nazardan tahlil qilamiz:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?

## Ibrohimdan qolgan ul eski do‘konni na qilay?

Bu baytdagi so‘zlarni zohiriy ma’noda tushunsak, Mashrab bizni aysh-ishratga chorlayotgan, kufr so‘zlarni aytayotgan bo‘lib chiqadi. Chunki yor so‘zining zohiriy ma’nosi “sevgili, ma’shuqa, go‘zal ayol”, boda so‘ziniki esa “may, ichkilik, sharob”dir. Biroq baytdagi yor, boda so‘zlari botiniy-ramziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, yor Haqni, boda esa xudoga muhabbat, e’tiqodni bildirib kelgan. Demak, Mashrab bu baytda: “Ko‘nglingda xudoga muhabbat, e’tiqod bo‘lmasa, Makkaga, ya’ni haj ziyoratiga borishingdan foyda yo‘q” degan ma’rifiy fikrni ifodalagan.

Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar

Tildagi so‘zlar bir ma’noli va ko‘p ma’noli bo‘ladi. Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma’noni ifoda etuvchi o‘zlar bir ma’noli so‘zlar<sup>18</sup> deyiladi. Masalan, kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g‘oya, mimika, qobiliyat, fonema va b.

So‘zlar ba’zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma’noni, gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda boshqa bir ma’no anglatishi mumkin. Masalan, pasaymoq so‘zi gapdan tashqarida olinganda erga tomon yaqinlashmoq ma’nosini bildiradi. Gap tarkibida esa bilimi pasaydi, ko‘rish sezgisi pasaydi kabi boshqa ma’nolarni bildiradi.

Bu so‘zlar birdan ortiq leksik ma’no ifodalayotgani uchun ko‘p ma’noli so‘z sanaladi.

Demak, nutqdan tashqarida bir ma’no, nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda yana boshqa ma’no ifodalovchi so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlar<sup>19</sup> deyiladi.

Ko‘p ma’nolilik til taraqqiyoti davomida kelib chiqadi. Tildagi har qanday so‘z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo‘ladi, ya’ni bir ma’nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so‘z taraqqiyoti ma’no tufayli ko‘p ma’noli so‘zga aylanishi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlarda 2 xil ma’no farqlanadi: 1) bosh (asl, o‘z) ma’no; 2) yasama (ko‘chma) ma’no. Bosh ma’no so‘zning nutqdan tashqarida ifodalagan ma’nosi bo‘lib, u boshqa ma’nolarning kelib chiqishiga asos bo‘ladi. Yasama ma’no bosh ma’noning taraqqiyoti bilan yuzaga keladi. Masalan, og‘iz so‘zining bosh ma’nosi insonning tana a’zosi, g‘orning

---

<sup>18</sup> Bir ma’nolilik – monosemantizm (gr. monos – «bir», sementikos – «belgi», «ma’no») deb yuritiladi.

<sup>19</sup> Ko‘p ma’nolilik – polisemantizm (gr. poli – «ko‘p», sementikos – «belgi», «ma’no») deb yuritiladi.

og‘zi, qopning og‘zi yasama ma’no. So‘zning yasama ma’nosi gapdagi boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda anglashiladi.

So‘z ma’nosining ko‘chishi besh xil bo‘lib, ular quyidagilar: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) kinoya; 5) vazifadoshlik yo‘li bilan ko‘chish.

Metafora (grekcha metaphora – «ko‘chirma») narsa va hodisalar orasidagi o‘xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo‘lgan so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun qo‘llashdir, metaforada shakliy o‘xshashlik: belgi-xususiyat, harakat-holat nazarda tutiladi. SHu tufayli ot, sifat va fe‘l turkumlarida metafora yo‘li bilan ko‘chish hodisasi mavjud. Masalan, tish, engil, pasaydi so‘zlarining ma’nosini kuzating: Tish: 1) odamning tishi (bosh ma’no);

2) arraning tishi (yasama ma’no). Yengil: 1) yengil eshik (bosh ma’no); 2) yengil ta’zim (yasama ma’no). Pasaydi: 1) samolyot pasaydi (bosh ma’no); 2) bilimi pasaydi (yasama ma’no).

Metaforaga quyidagilar asos bo‘ladi:

1) odamning tana a’zolari nomlari: bet, yuz, burun, quloq, ko‘z, lab, tish, elka, oyoq, og‘iz kabi;

2) kiyimlar va ularning biror qismini nomlari: etak, yoqa kabi;

3) hayvon, parranda va hasharotlarning biror a’zosining nomi: qanot, dum, tumshuq;

4) o‘simlik va uning bir qismi nomi: tomir, ildiz;

5) qurol nomi: nayza, pichoq;

6) turli belgi, harakat nomlari bo‘lgan so‘zlar: baland, past, olmoq, chaqmoq kabi.

Metonimiya – narsa, belgi va harakatlar o‘rtasidagi aloqadorlik asosida ma’no ko‘chish hodisasi. Bu aloqadorlik o‘rin va vaqt jihatdan bo‘ladi. Metonimiyada bir predmet bilan ikkinchi predmet orasida doimiy real aloqa mavjud bo‘ladi. Quyidagi gaplardagi so‘zlarning ma’no munosabatini kuzating:

Sinekdoxa. Narsa yoki shaxs qismati nomini aytish bilan o‘zini (butunni) yoki narsaning nomini aytish bilan uning qismini tushunishga asoslangan ma’no ko‘chish hodisasidir. Masalan: Besh qo‘l barobar emas (butun nomi bilan qismni anglash). Dunyoda o‘zimizdan qoladigan tuyog‘imiz... (A.Qodiriy)

Sinekdoxa qism nomini butunni ifodalash uchun (oqsoqol, oqsoch, jigar, tirnoq, tomir), kiyim nomini odam yoki boshqa biror tirik mavjudotni ifodalash uchun (qizilishton), qurol nomini shu qurolni ishlatadigan kishini ifodalash uchun (nayza, qilich, tig‘, ketmon – «jangchi» ma’nosida), hayvonlarning biror a’zosi nomini o’sha hayvonni ifodalash uchun (bosh, tuyuq), meva nomini shu mevani beradigan daraxtni anglatish uchun (yong‘ oq, olma, nok, uzum) qo‘llash yoki, aksincha, butun nomini qismni anglatish uchun (qo‘l so‘zini «barmoq» ma’nosida) qo‘llash kabi miqdor munosabatlariga asoslanadi.

Kinoya – so‘zlarning aks ma’noda qo‘llash hodisasi. Bunday ko‘chishlar yozuvda qo‘sh tirnoqqa olinadi. Masalan: Shunaqa «do‘stlar»ning kamroq bo‘lgani ma’qul.

Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishi – narsalarning bajaradigan vazifasining o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chish hodisasidir. Ma’noning bunday ko‘chishi metaforadagi kabi o‘xshashlikka asoslanadi. Leksik metaforada predmetning sezgi organlariga ta’sir qiladigan material tomoniga – rangi, shakli, harakati kabi belgilariga asoslaniladi. Vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chishida predmetning hayotda bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi. Masalan, o‘q, siyoh, qalam kabi so‘zlarning ma’nolaridagi ko‘chish ular dastlab ifodalagan tushunchalar bilan hozirgilari orasida bajaradigan vazifa jihatdan o‘xshashlikka asoslangan.

Ilgari parranda patidan yoki qamishdan yasalgan yozuv qurolini qalam deb ataganlar. Grafitli yozuv quroli paydo bo‘lgandan so‘ng, uni karandash qalam deb, keyin esa to‘g‘ ridan to‘g‘ ri qalam deb atay berganlar.

O‘q - yoy o‘qi; o‘q - miltiq o‘qi (bular shakl jihatdan emas, balki vazifasi jihatdan o‘xshashdir).

Siyoh so‘zi tojik tilida «qora» degan ma’noni bildiradi. YOzuv quroli sifatida ishlatilgan suyuqlik qora rangda bo‘lgani uchun siyoh deb nomlangan. Hozirgi kunda yozuv uchun qo‘llanadigan turli rangdagi suyuqliklar (qizil, ko‘k, yashil) ham vazifasining o‘xshashligi asosida siyoh deb atalmoqda: qizil siyoh (asl ma’nosi qizil qora), ko‘k siyoh (asl ma’nosi ko‘k qora).

Metafora va metonimiya mahsuldor ko‘chish yo‘li, sinekdoxa, kinoya, vazifadosh asosida ma’no ko‘chishi kam mahsul hodisalardir.

Leksik birliklar lisonida turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat.

Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi.

Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida [yuz]-[bet]-[aft]-[bashara]-[turq] qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «odam boshi old tomoni», «peshonadan iyakkacha». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos. Aniqrog'i, «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo'lgan. U [yuz] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko'rinishida bo'lsa, [turq] leksemasida «o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzida.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat sema;
- 2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: «eskirgan», «yangi», «o'ta yangi», «arxaik», «tarixiy».
- 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va h.

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, [katta]-[ulkan]-[bahaybat] sinonimik qatori «kitobiylik», «ko'tarinkilik» ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), [ulkan] va [katta] leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma'nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o'ziga xos xususiyati bor:

- 1) dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag'alroq» bo'ladi. Qiyoslang: [chiroyli], [go'zal] va [suluv]. Qatordagi [chiroyli] leksemasida [go'zal] va [suluv] leksemasidagi ko'tarinkilik bo'yog'i yo'q;
- 2) dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi;

3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi;

4) ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a'zolari» lug'aviy ma'noviy guruhiga [yuz] dominanta leksemasi kirib, [quloq], [burun], [lab], [qosh], [peshona] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksema «betaraf» bo'lmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va uning betaraf vakili bu huquqqa ega bo'la oladi, xolos.

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi.

Antonimiya leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: [katta]-[kichik], [yosh]-[qari], [mitti]-[ulkan], [oq]-[qora] va hokazo. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim. Masalan, [katta] va [kichik] leksemalari umumiy - «sifat», «ko'lam» semasi bilan birga, qarama-qarshi - «nisbatan ortiq» ([katta]) va «nisbatan katta bo'lmagan» ([kichik]) semasiga ham ega. YOki [qish] - «yilning eng sovuq fasli», [yoz] - «yilning eng issiq fasli», [kirmoq] - «ichkariga harakatlanmoq», [chiqmoq] - «tashqariga harakatlanmoq». Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in'ikosi bo'lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar: [issiq]-[sovuq] (harakat), [katta]-[kichik] (hajm), [erkak]-[ayol] (jins) va hokazolar.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b)komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, [kichik]-[o'rta]-[katta], [yosh]-[o'smir]-[o'rta yosh]-[qari] kabi. Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. YUqoridagi [o'rta] leksemasida [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-

qarshiligi soʻnadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq boʻgʻinsiz boʻladi: [rost]-[yolgʻon], [arzon]-[qimmat], [oson]-[qiyin]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yoʻq.

Antonimlar strukturasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

har xil oʻzakli antonim: [katta]-[kichik], [kirmoq]-[chiqmoq], [muhabbat]-[nafrat];

bir xil oʻzakli antonim: [madaniyatli]-[madaniyatsiz], [aqlli]-[aqlsiz], [ongli]-[ongsiz].

Fanda antonimlar asosan sifat va ravish turkumiga xos degan hamda har xil oʻzaklilarini tan olishdek tor tushunish ham mavjud.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrogʻi, gipo-giperonimiya), yaʼni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi koʻpgina maʼnoni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon boʻluvchi lugʻaviy birlik. Giponim esa maʼlum jins turining nomini hamda oʻzining semantik tarkibida implitsit tarzda jins maʼnosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy boʻlgan lugʻaviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obʼektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bogʻliq. Masalan, [daraxt] giperonimi jins maʼnosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. SHu boisdan [daraxt] leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, [daraxt]-[qayin], [daraxt]-[terak], [daraxt]-[dub], [daraxt]-[archa].

Giponimlar teng huquqli boʻlib, giperonimga munosabati bir xil. Oʻz navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bogʻlanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi [daraxt] nomi dastlab ikki guruhga boʻlinadi: mevali daraxt va manzarali daraxt. Mevali daraxt oʻz mevasining nomi bilan ataladi. SHuning uchun bu leksema koʻp maʼnoli boʻlganligi bois bir tomondan [meva], ikkinchi tomondan [daraxt] giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

[Meva]: [olma]-[oʻrik]-[shaftoli]-[behi].

[Daraxt]: [olma]-[oʻrik]-[shaftoli]-[behi].

[Daraxt] giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu jinsning turini bildiruvchi soʻz bilan bogʻlanadi. [Daraxt] leksemasi uning turi nomi oʻrnida qoʻllanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim oʻrnida qoʻllanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. SHu boisdan oʻz oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: oʻrik daraxti, shaftoli daraxti kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema boʻlib xizmat qiladi. Masalan, [daraxt] giperonim leksemasining sememasi «tanasidan shoxlanuvchi oʻsimlik» boʻlib, «qizil, yashil, yoki sariq rangli yongʻoqdan piyolagacha boʻlgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt» sememasiga ega [olma] leksemasining «daraxt» semasi [daraxt] giperonim leksemasi semasining sememalashgan koʻrinishi.

Giperonimning maʼnosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va «xiraroq» (noaniqroq), giponim leksemaning maʼnosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va «yorqinroq». SHu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning maʼnoviy mohiyati barcha giponimining maʼnoviy mohiyati yigʻindisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga boʻlinadi. Demak, borliqdagi bu boʻlinish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema oʻzbek tilida yoʻq. Demak, giponimning oʻrni boʻsh boʻlib, ular leksik lakuna (boʻsh xona) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik toʻldiraverishi mumkin (Masalan: mevali daraxt va mevasiz daraxt soʻz birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lugʻaviy lakunaga ega boʻladi. Bu boʻsh xona ayni bir jinsning turli belgisi bilan chegaralanmagan miqdorda toʻlib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun oʻzbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lugʻaviy lakuna hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham («mevali daraxt» va «mevasiz daraxt» tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani maʼlum bir kishining bilmasligi) boʻlishi mumkin. Graduonimiya. Lugʻaviy birliklar oʻzaro maʼnoviy munosabatiga koʻra maʼlum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan maʼlum va uning eng yorqin namunasi - [oʻrta] soʻzini oʻz ichiga olgan soʻzlar qatori. Masalan:

[Katta]-[oʻrta]-[kichik]

[Yosh]-[oʻrta]-[qari]

[Uzoq]-[oʻrta]-[yaqin]

[Baland] –[oʻrta]-[past]

[Uzun]-[o'rta]-[qisqa].

Ma'lumki [o'rta] so'zi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir-biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. [O'rta] leksemasi antonimlar oralig'idan o'rin olsa, (katta-o'rta-kichik) darajalanishi kam seziladi. Lekin [o'rta] leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini

a) g'ayrilisoniy asos;

b) sof lisoniy asosga

tayanib ajratish mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson go'daklik, yoshlik, navqironlik, etuklik, qarilik holatini, o'simlik navnihollik, ko'chatlik, etilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi - organizm o'sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo'yoqchilar birgina qora rangning hatto o'ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo'lganligi bois u ongda aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. CHunonchi, [nihol]-[ko'chat]-[daraxt], [ninni]-[chaqaloq], [go'dak]-[bola], [buzoq]-[tana]-[g'unajin]-[sigir] kabi.

Graduonimik lug'aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

a) ma'noviy omil;

b) so'zlararo paradigmatic munosabat.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligi, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, darcha-eshik-darvoza leksemasining «O'zbek tili izohli lug'ati»dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha - ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tavaqali, eshik yoki devorga o'rnatilgan kichkina eshikcha (O'TIL, I, 212.)

2. eshik - uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama (O'TIL, II, 457).

3. Darvoza - hovli, qo'rg'on, qal'a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa (O'TIL I, 209.)

Ajratilgan so'zlar miqdoriy ko'rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu [darcha] leksemasi izohidagi (kichkina) va (eshikcha) so'zlari, [darvoza] leksemasi izohidagi [katta] co'zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: [gulobi]-[pushti]-[qizg'ish]-[qizil]-[ol]-[qirmizi].

Bu leksemalar qayd etilgan lug'atda quyidagicha izohlangan:

1. GULOBI - gulob rangli, pushti (O'TIL, I, 197)
2. PUSHTI - shaftoli guli rangidagi, och qizil (O'TIL, II, 608)
3. QIZG'ISH - qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg'imtir (O'TIL, II, 573) .
4. QIZIL - qon rangidagi, qirmizi, olvali (O'TIL, II, 570)
5. OL - qizil, qirmizi (O'TIL, II, 529)
6. QIRMIZI - qizil rangli, qizil, ol (O'TIL, II, 581)

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o'zining graduonimik tizimidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a'zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo'lishar edi:

1. GULOBI – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo'yoqli rang.
2. PUSHTI – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to'qroq.
3. QIZG'ISH – pushtidan to'qroq, qizildan ochroq, qizg'imtir rang.
4. QIZIL – qon rang.
5. OL - qizildan to'qroq rangli.
6. QIRMIZI – to'q qizil rangli.

Bu leksemalar denotativ ma'nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi.

## «qizillik»

---

|          |          |            |         |      |           |
|----------|----------|------------|---------|------|-----------|
| -3       | -2       | -1         | 0       | + 1  | + 2       |
| [gulobi] | [pushti] | [qizg'ish] | [qizil] | [ol] | [qirmizi] |

Demak, lugʻaviy graduonimik qatorni ajratish uchun maʼnoviy omil oʻzaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada maʼlum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon boʻladi. SHu asosda maʼnoviy omilning oʻzi ikki turga boʻlinadi:

- 1) bir-biriga yaqin va oʻxshash tushunchani ifodalashi;
- 2) ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lugʻaviy paradigmaga qoʻyiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

- 1) lugʻaviy paradigmaning bitta etakchi leksema (dominanti) atrofida birlashishi;
- 2) lugʻaviy paradigmaning ochiqqligi;
- 3) lugʻaviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga etakchi leksema bilangina kirishi;
- 4) lugʻaviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning maʼlum bir belgining oz-koʻpligiga qarab, lugʻaviy maʼnoviy qatorda, tizimda namoyon bʻylishi boʻlib, bunda dominanta va qurshov leksemai farqlanadi.

Lugʻaviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjud:

- a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor oʻzgarishining sifat oʻzgarishiga oʻtishi qonuni tajallilaniadi;

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

v) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir etakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'noviy qatorni - paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Tildagi so'zlar shakl xususiyatiga ko'ra ham o'zaro turli munosabatda bo'ladi. So'zlarning ayrimlari shakl jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, ил, к(ган турли паргдаги сую ба'zilari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Shu xususiyatlariga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Omonim so'zlar. Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonimlar deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: ot - hayvon, ot - uloqtirmoq, ot - ism; og'iz - insonning tana a'zosi, og'iz - yangi tuqqan sigir sutidan tayyorlanadigan taom; chang - to'zon, gard, g'ubor, chang - to'rtburchak, yassi quti shaklidagi torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalinadigan musiqa asbobi; qovoq - insonning tana a'zosi, ot, qovoq - poliz ekini, ot.

Omonim so'zlar turkumiga (yuz - insonning tana a'zosi, ot; yuz - miqdor bildiruvchi son) oid bo'ladi.

Omonimlar 2 turga ajratiladi: 1) lug'aviy omonimlar; 2) grammatik omonimlar. Lug'aviy omonimlar:

1) so'zlar doirasida; 2) iboralar doirasida bo'ladi.

1. Omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) - biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P. Tursun) Kul (fe'l) - zavq shovqini, xursandchilik bildiruvchi tovushlar chiqarmoq. Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi kuladi, ko'zlari yonadi? (H. G'ulom)

2. Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq - qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. SHakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qo'shimchasi bilim - ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi. Kitobim - I

shaxs, birlik qo'shimchasi; -ki (tepki) – ot yasovchi qo'shimcha, -ki (kechki) – sifat yasovchi qo'shimcha.

Ba'zi omonim so'zlar qo'shimchalar olganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladi. Masalan, ter+im, ter+im. Birinchi so'z –ter ot turkumiga oid so'z bo'lib, I shaxs, birlik egalik qo'shimchasini olgan, ikkinchisi fe'l turkumiga oid so'z ot yasovchi –im qo'shimchasini olgan. Bu so'zlar bir xil shaklini saqlab qolgan.

Qo'shimchalar qo'shilganda ham omonimlik shaklini saqlab qoladigan so'zlar omoformalar deyiladi. Omoformalar bir xil so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumiga ham oid bo'ladi. Masalan, 1) bog' - mevazor (ot); 2) bog' - bog'ich (ot). Ularning qo'shimcha olgandan keyingi grammatik shakllari:

1) bog' ni, bog' ning, bog' dan;

2) bog' ni, bog' ning, bog' dan.

Qiyoslang: oq (sifat)+ar – fe'l yasovchi qo'shimcha;

oq (fe'l)+ar – sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha.

Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrida, og'zaki so'zlashuv nutqida so'z o'yinlari, askiyalarda qo'llanadi.

Omonimlar ko'p ma'noli so'zlar ma'nosidagi bog'lanishning yo'qolishi, so'zlardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa tildan so'z o'zlashishi jarayonida yuzaga keladi. Masalan: 1) bog' (mevazor) tojik tilidan kirgan, bog' (bog'ich) o'zbekcha so'z; 2) dam – nafas (o'z ma'nosi), dam - bosqon (ko'chma ma'no), dam - xordiq (ko'chma ma'no). 2-misolda polisemiya hodisasi yo'qolib, omonimiya hodisasi yuzaga keldi.

2. Paronim so'zlar. Birdan ortiq so'zning shakliy o'xshashligi paronimiya deyiladi. Talaffuzi bir-biriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar paronim so'zlar deyiladi. Masalan, asr va asir, afzal va abzal, sher va she'r kabi so'zlar talaffuzda bir xil aytisa-da, yozilishda farq qiladi. Ma'nosi ham butkul boshqa-boshqa. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo'lgan, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan dubletdan farqlash kerak: arava – aroba, shabada – shabboda, benihoya – benihoyat, gado – gadoy kabilar paronim emas, dublet, variantdosh so'zlardir.

Paronimlar talaffuz jihatdan o'xshash bo'lganligi uchun undan qofiya sifatida keng foydalaniladi.

Paronimning uslubiy xususiyati. Paronimni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida xatolik yuz beradi: Chanoqdagi lo'ppi ochilgan paxta quyoshda yarqirab,

kumushdek toblanadi. Bu gapdagi toblanadi soʻzi oʻrnida tovlanadi soʻzi ishlatilishi kerak edi.

Maʼlumki, oʻzbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada boʻlib kelgan. Bu aloqalar oʻzaro aloqada boʻlgan xalqning tiliga maʼlum darajada oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Oʻzaro taʼsir natijasida tilning barcha boʻlimlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda oʻzgarishlar yuz beradi. Tildagi oʻzgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli boʻladi.

Oʻzbek xalqi qardosh boʻlmagan tojiklar bilan qadimdan aloqada boʻldi. SHuning tarixiy sabablar bilan bogʻliq holda arab, ruslar bilan aloqada boʻldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan doʻstona aloqalar oʻrnatgan. Bular oʻzbek tili leksikasiga koʻplab soʻzlarning oʻzlashishiga sabab boʻlmoqda.

Hozirgi oʻzbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. Oʻz qatlam.
2. Oʻzlashgan qatlam.

Oʻz qatlam. Oʻz qatlamga umumturkiy soʻzlar va oʻzbekcha soʻzlar kiradi.

1. Umumturkiy soʻzlar. Koʻpchilik turkum xalqlar tilida qoʻllanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy boʻlgan soʻzlar umumturkiy soʻzlar deyiladi. Bu soʻzlar turkiy qabilalarning goh qoʻshilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub soʻzlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: oʻzbek, qozoq, uygʻur, boshqird, qirgʻiz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, noʻgʻ oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qoʻmiq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud.

Umuturkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi.

Umuturkiy soʻzlar turli sohalarga oid boʻlib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuygʻu bildiradigan soʻzlar kiradi: kishi, oyoq, qoʻl, bosh, koʻz, qosh, qizil, koʻk, yashil, oq, bir, ikki, uch, toʻrt, oʻn, kel, tur, yot, oʻtir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. Oʻzbekcha soʻzlar. Oʻzbek tili sharoitida oʻzbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deyiladi. Oʻzbekcha soʻzlar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari asosida, oʻz qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tildagi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qo'l+lan+ma, o't+kaz+gich, tur+g'un, bola+larcha.

2. Boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan so'zlar: a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: mard+lik, jang+chi, do'st+lik, pul+siz; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li; v) ruscha-internotsional so'zlardan yasalgan so'zlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olinma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid.

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin:

1. Tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimog' , idora kabi.

3. Ruscha-internotsional so'zlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko'plab so'zlar o'zlashdi.

O'zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) so'z kirishi ikki tarixiy davrni o'z ichiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davr.

2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan soʻzlar ikki yoʻl bilan oʻzlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan ogʻzaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), poʻshta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi.

Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular, odatda, internotsional (baynalminal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internotsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: sudya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.

3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi.

4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.

6. Frantsuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, sanʼat, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Hozirgi Yevropa tillaridan soʻzlar bevosita aloqalar orqali oʻzlashmoqda. Masalan, oʻz navbatida soʻzlar oʻzbek tilidan rus tiliga ham oʻzlashmoqda: oʻrik, anjir, somsa (uryuk, injir, samsa) kabi.

Xalqlar orasidagi turli xildagi aloqa tillarning lugʻat tarkibining boyib borishiga xizmat qiladi.

Oʻzbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qoʻllanmaydi. Ayrim soʻz keng jamoatchilik tilida qoʻllansa, baʼzilari esa maʼlum territoriyada yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. SHunga koʻra oʻzbek tilidagi soʻzlar ikki guruhga ajratiladi:

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika.

## 2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika.

O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi.

O'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qo'llanadigan so'zlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar barcha o'zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko'ra ular umumiste'moldagi so'zlar deb ham yuritiladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi.

Boshqa tillardan kirgan so'zlar ham o'zbek xalqining barchasiga tushunarli bo'lsa, ular ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, mag' rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya so'zlari; tojik tilidan o'zlashgan go'sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi so'zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi so'zlar umumxalq tilida qo'llanadi.

Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar o'z qatlamga ham, o'zlashgan qatlamga ham oid bo'lishi mumkin.

Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi so'zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so'zlarning ishlatilishi ma'lum sabablarga ko'ra chegaralangan bo'ladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal so'zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi.

Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga ko'ra chegaralangan so'zlar bo'lib, ular adabiy tilga kirmaydi. Ma'lum bir xududdagi kishilar nutqida qo'llanib, ulargagina tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zlari deyiladi. SHEva so'zlari yig'indisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha so'z bo'lib, dialektos – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. SHuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektlarga xosdir.

Misollar: qorinja (chumoli), g' o'z (yong' oq), karvich (g'isht) – Xorazm; norbon (narvon), bodrak (varrak), poku (ustara) – Buxoro; mishiqlik (mushuk) - Farg'ona; inak (sigir), mo'rcha (chumoli), pishak (mushuk) - Samarqand shevasida.

Shevadagi ba'zi so'zlar adabiy tilda ham bo'lishi mumkin. Lekin ular boshqa-boshqa ma'nolarni bildiradi. Masalan: kosa so'zi Xorazm shevasida «piyola»

ma'nosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan so'zi Xorazm shevasida kir yuvadigan tog' ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» ma'nosini bildiradi.

Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qaeqlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida sheva so'zlardan foydalanadi.

Kasb-hunar leksikasi. O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug'ullanib keladi. SHuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, qashshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog' chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog' och, bandak, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola gazcho'p (asbob) kabi maxsus so'zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo'llanadi va ular uchun tushunarlidir.

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko'rsatishda kasb-hunarga doir so'zlardan foydalanadilar.

Atamalar. Fan-texnika, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so'zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo'llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o'xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo'llanadi va ular bir ma'noli bo'ladi.

Ba'zi atamalar o'zbek tilida so'zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo'llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so'ziga aylanadi. Masalan, o'qituvchi, kitob, daftar, dars kabi.

Jargon va argolar. O'tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o'g' rilar, firibgarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o'zlariga tushunarli so'z va iboralardan foydalanganlar.

Tilda sinfiy ayirmalikni ko'rsatib turadigan bunday so'zlar «sinfiy dialektning so'zlari» - jargonlar deb yuritiladi.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe' qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne'mati jannat (yor, mahbuba), shavaqu' aylang (umid bilan kuting), tanzil (foйда).

O'g' rilar, qimorbozlar orasida qo'llanadigan so'zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsoner), bedana (to'pponcha), xitola (o'g'irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi.

Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo'lgan: yakan (pul), joyi (yo'q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so'm), saru nimsar (bir ming besh yuz so'm), kapara (olti ming so'm). Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 2 qatlamga ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o'zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo'lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so'zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so'zlar tashkil etadi. Bu qatlamdagi so'zlar yangilik bo'yog'iga ham, eskilik bo'yog'iga ham ega bo'lmaydi.

Zamonaviy qatlamda so'zlarning nutqda ko'p yoki kam ishlatilishi, barcha kishilarning ishlatishi yoki ma'lum guruh kishilari nutqidagina ishlatilishi asosga olinmaydi.

Demak, yangilik va eskilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar eskirgan qatlam. So'z ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yo'qolishi, yoki ularning ma'nosini ifodalaydigan boshqa so'zlarning paydo bo'lishi munosabati bilan ayrim so'zlar asta-sekin qo'llanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam qo'llanadi. Ularning ba'zilarini tushunish mumkin, ayrimlarini ko'pchilik tushunmaydi, ular

badiiy va ilmiy adabiyotlarda qo'llansa, izoh talab etadi. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eskirgan leksika deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy so'zlar yoki istorizmlar.

2. Arxaik so'zlar yoki arxaizmlar.

Tarixiy so'zlar o'tmishdagi narsa va hodisalarning nomi bo'lgan, ammo hozir eskirib qolgan so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi. Tarixiy so'zlar jamiyatda yo'q bo'lib ketgan narsalar, shaxslar haqida gap borganda qo'llaniladi. Hozirgi tilda ularning sinonimii yo'q. Masalan: foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km), tosh (8 chaqirim – 8 km), gaz (71 sm), botmon (176, 128 kg), misqol (4,25 g.), miri (5 tiyin).

Ba'zi so'zlar til taraqqiyoti davomida turli xil narsalarni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bunday so'zlarning bir ma'nosi eskirsa, ikkinchi xil ma'nosi zamonaviy qatlamda ishlatiladi.

Masalan: boy so'zining ma'nosini qiyoslang: Boy Yo'lchini zimdan kuzatdi (Oybek). Sen boy bo'laman deb nima ishlarni qilmading, oqibati nima bo'ldi?

Arxaik so'zlar. Hozir mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so'zlar deyiladi. Arxaik so'zlar yig'indisi arxaizmlar deyiladi. Arxaizm – grekcha so'z bo'lib, archaios – «qadimgi» degan ma'noni bildiradi.

Eskirgan so'z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo'lgani uchun uning eskirgan nomini almashmay oladigan zamonaviy qatlamga oid so'z mavjud bo'ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo'lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigan tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigani eskilik bo'yog'iga ega bo'lib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so'zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng ko'lamda qo'llanilyapti. Sekretar so'zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so'zlar so'zlovchining ko'z oldida iste'moldan chiqib ketayotgan so'zlardir revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internotsional).

Masalan: bitik (kitob), ulus, budun (xalq), o'miz (ko'krak) kabi.

So'zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma'nosi arxaiklashishi mumkin. SHunga ko'ra ular: a) leksik arxaizmlar; b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo'ladi.

Leksik arxaizmda so'z eskiradi: gulgun, siymo (obraz).

Semantik arxaizmida ma'no eskiradi: chechak – «gul» ma'nosida eskirgan, bekat – karvonlar to'xtaydigan joy ma'nosida eskirgan, bag'ir – «jigar» ma'nosida eskirgan, davlat – «boylik» ma'nosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatik hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati ko'p, lekin grammatik hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: dasti alif –lom qilib, gardonini ham qilib, yoqasini chop etmoq (iboralar); sifatdashning –din, -mish shakllari, ravishdashning –bon, -ibon shakllari, -dur – kesimlikni ko'rsatuvchi bog'lama eskirgan grammatik shakllardir.

Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo'lib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq).

Neologizmlar. Kundalik hayotimizdagi angi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so'z bo'lib, neos – «yangi» degan ma'noni bildiradi. Neologizm yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: bakalavr, magistratura, komp'yuter, komp'yuter texnologiyasi, marketing, supermarket kabi. Neologizmlar yangi paydo bo'lgan paytda, ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizمنى ma'nosi tushunarlik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va umumxalq so'ziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt va hokazo.

Ba'zi neologizmlar yangiligicha qolib ketishi, ishlatilish doirasi chegaralangan leksikadan o'rin olib qolishi mumkin. Demak, neologizm – nisbiy tushuncha. Chunki har bir davr o'z neologizmiga ega bo'ladi.

So'z yoki so'zning ma'nosi neologizm bo'lishi mumkin.

So'z neologizm bo'lsa, leksik neologizm deb yuritiladi: broker, ...

Leksik neologizmlar tamomila yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlardir. Bunday so'zlar: 1) o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan yangi so'zlardir: etti yillik; 2) boshqa tildan kirgan hali umumxalq tiliga singib o'zlashib ketmagan yangi so'zlardir: magistr, bakalavr.

Leksik ma'nolardan biri yangi bo'lsa, semantik neologizm deb yuritiladi. Masalan: Yo'ldosh (yer yo'ldoshi), payvandchi (metallni ulovchi). Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan birgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy tizimda bu hissiy munosabatni

tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemdir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi.

Bo'yoqsiz leksika. O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Masalan, [bor], [yo'q], [katta], [mazali], [daryo], [urmoq], [chiroyli], [tez], [husn] kabi leksemalar borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol' darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi mumkin. Masalan, [katta] leksemasining lisoniy mohiyati - sememasi bo'yoqsiz. Biroq u nutqda boshqa nolug'aviy tajallilar bilan qorishib, bo'yoq kasb etadi. Dengiz k-a-tta edi gapida fonetik tajalli ta'sirida [katta] leksemasi bo'yoqdor nutqiy birlikka aylangan.

Bo'yoqdor leksika. Bunday leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo'rtib turadi: [ulkan], [badnafis], [qiltiriq], [oniy], [tashrif], [oraz], [yovqur], [mahliqo], [badbashara] va h.

Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra bo'yoqdor leksemalar ijobiy bo'yoqdor leksema va salbiy bo'yoqdor leksemaga bo'linadi.

Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo'ladi. Misollar: 1. Onam deganimda, oqsoch, jafokash munis va mehribon chehrang bo'lar namoyon (G'.G'ul.). 2. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.Ism.). 3. Orazin yopqoch, ko'zimdan sochilur har lahza yosh (Nav.)

Salbiy bo'yoqdor leksema borliq hodisasiga so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo'rtib turadi. Misollar: 1. So'ngra yakkam-dukkam iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi (Oyb.) 2. U bir ko'ngli borib, muttaham qozining tumshug'iga tushirgisi, yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.Ism.)

Ijobiy bo'yoqdor leksema nutqda salbiy bo'yoqdor leksema o'rnida voqelanishi mumkin. 1. Jamolingizni ("basharangizni" ma'nosida) boshqa ko'rmay! 2. Rosa xursand qildingiz ("xafa qildingiz" ma'nosida).

Leksemaning ijobiy va salbiy bo'yog'ini ijobiy va salbiy ma'nodan farqlash kerak. Masalan, [yaxshi] leksemasi ijobiy ma'noga ega, ammo uning ifoda semasi bo'yoqdorlikni ko'rsatmaydi, ya'ni u bo'yoqsizdir. [xunuk] salbiy ma'noga ega bo'yoqsiz leksema.

Uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi

Leksema nutq uslubiga munosabatiga ko'ra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi.

Uslubiy betaraf leksika. Uslubiy betaraf leksema barcha uslublarda birdek va bab-baravar ishlatilaveradi va uning ifoda semalarida uslubga munosabat «uslubiy betaraf» deb beriladi: [kel], [bor], [o't], [ket], [kitob], [qalam], [stol], [mashina], [oq], [qora], [tez], [sovuq], [faqat], [lekin] va h. Lekin nutqda ko'chma ma'noda ishlatilganda, bu ma'nosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, [sovuq] leksemasi «xunuk» ma'nosida (sovuq rangli) faqat so'zlashuv yoki badiiy uslubga xos.

Uslubiy xoslangan leksika. Uslubiy xoslangan leksikani uchga bo'lish mumkin: a) kitobiy leksika; b) badiiy leksika; v) so'zlashuv leksikasi.

Ilmiy, rasmiy va publitsistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, kitobiy leksika deb yuritiladi:

ilmiy leksikaga oid birlik: [integral], [meridian], [tangens], [olmosh], [bo'lish], [ko'paytirish];

rasmiy leksikaga oid birlik: [bayonnoma], [buyruq], [farmon], [qo'mita], [sessiya], [tashkilot];

publitsistik leksikaga oid birlik: [jangovar], [mafkura], [ilg'or], [ittifoq], [jahon], [afkor].

Bunday leksemaning uslubga xoslikni ko'rsatuvchi ifoda semasi «ilmiy nutqqa xos», «rasmiy nutqqa xos», «publitsistik nutqqa xos» deb belgilanadi.

Badiiy leksikaga ifoda semalari sirasida «badiiy nutqqa xos» semasi mavjud, badiiylilik bo'yog'iga ega bo'lgan leksik birliklar kiradi: Mehnat bilan topadi iqbol (YO.Mirz.). Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror (Uyg'). Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar zavq baxsh etar, ko'nglini ko'tarar, sog'lig'ini saqlardi (SHuhr.). Kundan kunga yashnamoqda ko'rking, jamoling. (/ayr.) Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi (SH.Rash.). YAxshi qoling, sevgan yurtu diyorim (Hamz.).

Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publitsistik va soʻzlashuv uslubiga xos birlik ham bemalol ishlatilaveradi.

Soʻzlashuv leksikasiga oddiy soʻzlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qoʻllaniladigan, adabiy til uchun meʼyor boʻlmagan leksema kiradi: [ketvorgan], [poʻrim], [qitday], [mullajiring] kabi. Misollar: Oʻylab koʻrsam, sarkotib odamga shundan bop sovgʻa yoʻq ekan. Ruchkaning poshshaxoni, perosi oltindan (N.Saf.). SHomahdievning qiligʻi maʼlum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani choʻktirishdek mashaqqat (A.Muhid.). Qizlaringizni jerkiysiz, soʻkasiz... Xoʻsh, nima uchun Toʻlani yumshoq paxtaga oʻrab papalaysiz?! (M.Ism.) Jillaqursa juvoldiz bilan qarashay dedim (Oyb.). enang besh-oʻn tanga pul soʻrab yubordi. Boʻlsa, chiqarib ber, boyoqishlar chaynab tursin. (Oyb.) Maza qilib kartoshkani tushirib tursang... (Say.)

Soʻzlashuv leksikasiga kiradigan leksemaning tegishli ifoda semasi «soʻzlashuv nutqiga xos» deb yuritiladi.

Leksemaning uslubiy xoslanganligi ularning boshqa bir uslubda qoʻllanmasligidan dalolat bermaydi. Masalan, soʻzlashuv uslubi erkin uslub sanaladi va unda boshqa uslub unsurini bemalol ishlatish mumkin. Ammo leksemani maʼlum bir uslubda qoʻllash nutq meʼyoriga muvofiq boʻlishi lozim.

**Iboralarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari.** Frazzeologiya (gr. phrasis-ifoda va logos-taʼlimot) atamasi ikki maʼnoda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui.

Frazzeologiyaning oʻrganish predmeti frazeologizmning tabiati va substantSIONAL xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.

Frazzeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema koʻrinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli maʼnoviy tabiatga ega boʻlgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: [tepa sochi tikka boʻldi], [sirkasi suv koʻtarmaydi], [oʻtakasi yorildi], [doʻppisi yarimta], [ikki gapning birida], [boshga koʻtarmoq] va boshqa.

Frazzeologizm ibora, frazeologik birlik, turgʻun birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi.

Frazzeologiya leksikologiya boʻlimining tarkibiy qismidir. Frazzeologizm tashkil etuvchisiga koʻra qoʻshma leksema, soʻz birikmasi va gapga oʻxshaydi. Biroq ular koʻproq qoʻshma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda

yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P. Tur.) 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. (S. Zun.) 3. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi. 4. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak. (As. Mux.) 1- va 2- gaplarda frazeologizmlar gap markazi - kesim mavqeida, 3- gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm: [ko'ngli bo'sh], [enkatingini chiqarmoq], [jig'iga tegmoq], [bel bog'lamoq], [kir izlamoq], [terisiga sig'may ketmoq] va h. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsuli: [istarasi issiq], [ichi qora], [labi-labiga tegmaydi], [ko'ngli ochiq], [tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq], [kapalagi uchib ketdi], [po'konidan el o'tmagan], [tepa sochi tikka bo'lmoq] va h.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: [dardisar], [toshbag'ir], [boshog'riq]. Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri - frazeologizm.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: [me'dasiga tegmoq], [yaxshi ko'rmoq], [holdan toymoq], [sabr kosasi to'lmoq], [tepa sochi tikka bo'lmoq], [og'ziga talqon solmoq], [podadan oldin chang chiqarmoq].

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [ko'ngli bo'sh], [rangi sovuq], [yuragi toza], [avzoyi bejo], [dili siyoh], [kayfi buzuv].

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: [ipidan-ignasigacha], [ikki dunyoda ham], [miridan-sirigacha], [ha-hu deguncha].

So'z - gaplarga mansub frazeologizm: [turgan gap], [shunga qaramay], [katta gap].

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati etarli darajada o'rganilmagan.

Frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologizmi ([holdan toymoql], [shunga qaramay], [ro'yobga chiqmoql]) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega:

- eskirgan frazeologizm: [alifni kaltak demoql], [aliflayloni bir cho'qishda qochiradigan], [dastin aliflom qilib, kallasini ham qilib], [eng silkitmoql];

- dialektal frazeologizm: [alag'da bo'lmoql] (xavotir olmoql), [ko'ngli tob tashladi] (ezildi), [halak bo'lmoql] (ovora bo'lmoql), [qumortqisi quridi] (intiq bo'lmoql);

- ilmiy frazeologizm: [nazar tashlamoql], [ko'zga tashlanmoql], [chambarchas bog'lanmoql], [to'g'ri kelmoql], [imkoniyatlar doirasi], [qulay qurshov];

- badiiy frazeologizm: [sabr-kosasi to'lmoql], [og'zining tanobi qochmoql], [og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoql], [qildan qiyiq axtarmoql], [six ham kuymasini, kabob ham], [boshida yong'oq chaqmoql];

- co'zlashuv nutqi frazeologizmi: [arpasini xom o'rmoql], [erga urmoql], [yuragi qon], [ko'zi tor], [ko'zi och], [boshi ochiq].

Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos.

#### Iboraning semantik tarkibi

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoql, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoql; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoql] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoql] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan

narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [hayron bo'lmoq] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. SHuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [qo'yniga qo'l solmoq] frazeologizmining ma'nosi [qo'yin], [qo'l], [solmoq] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. YOki kishi qo'ltiqib ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'lgan. Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, [aqlini emoq], [ko'zini bo'yamoq], [ko'zi ko'ziga tushdi], [og'zi qulog'ida] frazeologizmlarida (aql), (ko'z), (og'iz) so'zlari o'z ma'nosida, (emoq), (bo'yamoq), (tushmoq), (qulog'ida) so'zlari ko'chma ma'noda.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. SHuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, labiga uchuq toshmoq iboralari ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizm turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi: 1.Uning eriga mening ko‘zim tekkan emish. (I.Rahim) 2.Hammani qo‘yib, sizning soldat o‘g‘lingizga tegaman deb ko‘zim uchib turibdimi? (M.Muham.) 3. «Jabrdiyda»ning ham, guvohlarning ham dumi xurjunda gaplari shunday savollar berilishini talab etardi. (M. Ism.)

Frazeologizm, asosan, bir ma’nodir. Ammo polisemantiklik frazeologizmida ham uchrab turadi. Masalan, [aqli etadi] frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma’nosiga, [bo‘yniga qo‘ymoq] iborasi 3 ta - «aybni birovga to‘nkamoq», «isbotlab e’tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma’nolariga, [qo‘lga olmoq] iborasi esa 4 ta- «o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq», «qo‘qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biror yo‘l bilan o‘z xohishiga bo‘ysunadigan qilmoq» ma’nolariga ega.

Frazeologik polisemiya barcha ma’no ko‘chma bo‘lganligi bois, ularni bosh va hosila ma’nolarga ajratish qiyin.

Iboralarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari

Leksikada bo‘lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi.

Frazeologik sinonimiya. Ma’nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma’nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko‘ra farqlanadi: [yaxshi ko‘rmoq] – [ko‘ngil bermoq], [er bilan yakson qilmoq] – [kulini ko‘kka sovurmoq], [ipidan ignasigacha] – [miridan sirigacha], [qilidan quyrug‘igacha] va h. Ma’nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo‘ladi. Masalan, [ipidan ignasiga] – [miridan sirigacha], [qilidan quyrug‘igacha] kabi iboralarida «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo‘yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantdan farqlash lozim. Sinonim iboralarda ayni bir so‘z bir xil bo‘lishi mumkin. Lekin qolgan so‘zlar sinonim leksemaning ko‘rinishlari bo‘lmasligi lozim. [Jonini hovuchlab] va [yuragini hovuchlab] iboralarida bir xil so‘z mavjud. Ammo [jon] va [yurak] so‘zlari sinonim leksema ko‘rinishi emas. [Ko‘ngliga tugmoq] va [yuragiga tugmoq] iboralari frazeologik variant.

Frazeologik antonimiya. Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: [ko'ngli joyiga tushdi] – [yuragiga g'ulg'ula tushdi], [qoni qaynadi] – [og'zi qulog'iga etdi].

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Misollar: [so'z bermoq I] ("va'da bermoq"), [so'z bermoq II] ("gapirishga ruxsat bermoq"), [boshga ko'tarmoq I] ("ardoqlamoq"), [boshga ko'tarmoq II] ("to'polon qilmoq"), [qo'l ko'tarmoq I] ("ovoz bermoq"), [qo'l ko'tarmoq II] ("urmoq").

Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o'z tadqiqotini kutmoqda.

**Lug'atchilik. Lug'at va uning turlari.** Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifasiga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

- a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalasi bilan shug'ullanadi;
- b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishi bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:  
ona tilini va boshqa tillarni o'rgatish;  
2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish;  
3) tillararo munosabatlarni ta'minlash;  
til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

Lug'at maqsadi va mo'ljali ko'ra ikkiga bo'linadi:  
umumiy lug'at;  
maxsus lug'at.

Umumiy lug'at keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'at esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassisiga mo'ljallangan bo'ladi.

Har ikkala tur lug'at ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:  
ensiklopedik lug'at;  
filologik lug'at.

Demak, lug'atni umumiy ensiklopedik lug'at va maxsus ensiklopedik lug'at, umumiy filologik lug'at va maxsus filologik lug'atga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va qulay.

Umumiy ensiklopedik lug'at (UEL). Ma'lumki, UEL alfavit tartibida bo'lib, ularda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqea, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolasi lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» ana shunday lug'atlardan biri. Unda shunday deyiladi: «O'zME (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi) universal ensiklopediya bo'lganligi uchun fan-texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid ma'lumotlar muxtasar tarzda ifodalanib, u insoniyat sivilizasiyasining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuidan iboratdir». Prezident I.Karimov O'zME ga yozgan so'zboshisida «Ensiklopediyamiz o'zining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitobxonlar orasida obro'-e'tibor topib, jahonning nufuzli qomuslari qatoridan munosib o'rin olishiga ishonchim komil» deb, uning funksiyasini alohida ta'kidlaydi.

Maxsus ensiklopedik lug'at (MEL). Fan-texnika, san'at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun mo'ljallab tavsiflaydi. Bunday lug'at sifatida soha ensiklopedik lug'atlari - «Medisina ensiklopediyasi», «Fizicheskiy ensiklopedicheskiy slovar», «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar» kabilarni misol qilib keltirish mumkin. UELdan farqli ravishda MEL tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi. Masalan, rus tilida yaratilgan «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar»da shunday deyiladi: «Bu lug'at turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin bo'lgan soha vakillari psixologlar, mantiqshunoslar, filosoflar,

etnograf va adabiyotshunoslarga mo'ljallangan». Quyida «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar»dan namuna keltiramiz (Bunday lug'at o'zbek tilida yaratilmagani uchun olingan maqolaning tarjimai berildi).

«AKKOMODASIYA (lat. Accomodatio-moslashish) tovushning kombinator o'zgarishidan biri: qo'shni undosh va unlining qisman moslashuvi. Akkomodasiya shunday hodisaki, keyingi tovushning ekskursiyasi (artikulyasiyasining boshlanishi) oldingi tovushning rekursiya (artikulyasiyasining tugashi)ga moslashadi (progressiv akkomodasiya) yoki oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Ayrim tillarga unlining undoshga moslashishi xosdir, masalan, rus tilida [a], [o], [u] unlilari yumshoq undoshdan keyin til oldi unlilariga aylanadi (ularning artikulyasiyasi ekskursiyaga intilgan). Qiyoslang: «mat»-«myat», «mol»-«myol», «luk»-«lyuk». Boshqa tillarda esa undoshning unliga akkomodasiyasi kuzatiladi, masalan, fors tilida til oldi unlisidan oldin kelgan undosh tanglaylashadi». (22-bet)

Ko'rinadiki, maxsus ensiklopedik lug'at soha mutaxassislari uchungina zarur bo'lgan tushunchani ana shu soha ilmiy uslubiga xos ifoda bilan tasvirlaydi.

Umumiy filologik lug'at barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga mo'ljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lug'atidir. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (O'TIL), «Ruscha-o'zbekcha lug'at» (RO'L) ana shunday lug'atlar sirasiga kiradi. Shu boisdan O'TIL da shunday deyiladi: «Lug'at keng o'quvchilar ommasiga – tilshunoslar, o'rta va oliy maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, yozuvchilar, jurnalistlar, gazeta va nashriyot xodimlari va o'zbek tiliga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.» (1-tom, 5-bet) Izohli lug'at so'zning ma'nosini shu tilda sharhlaydi, izohlaydi va shu ma'nosi bilan nutq tarkibida beradi. Misollar:

BAQIRLAMOQ Baqir-buqur ovoz chiqarib qattiq qaynamoq. [Hamrobibi] dasturxon yozdi, baqirlab qaynayotgan samovarni keltirib, qopqoqlab qo'ydi. R.Fayziy. El mehri.

YOz 1 Yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli. Laylak keldi - yoz bo'ldi. Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.

2 ko'chma Umrning eng gullagan yaxshi davri. YOzim o'tdi, chiroyingizga to'q bu quvnoq ko'ngil. G'ayratiy.

Ko'ngli yoz bo'ldi. Ortiq sevinib, bahri dili ochildi. Negadir otashin ko'ngli yoz bo'lib ketdi. O'.Umarbekov. CHaros.

Umumiy izohli lug'atda lug'aviy birlikning barcha - grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan o'zlashganlik belgilari ko'rsatiladi.

O'zbek tilining bu tipdagi lug'ati birinchi marta 1981 yilda Moskvada nashr etildi. «Boy leksikografik an'analarning davomi sifatida o'tgan asrning 50-80 - yillari mobaynida o'zbek tilshunosligida erishilgan va o'zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyati tufayli yuzaga kelgan» (1-tom, 5-bet) «O'zbek tilining izohli lug'ati» o'zbek xalqi tarixi va ma'naviyati taraqqiyotida ulkan hodisa bo'ldi. «Lug'atning asosiy vazifasi o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga, uning me'yorini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va ishlatish me'yorlari tavsiya etildi» (1-tom, 5-bet).

Demak, o'zbek tilining ilk izohli lug'ati o'z oldiga qo'yilgan o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash hamda uning me'yorini belgilashdan iborat tarixiy vazifasini bajardi. Biroq tilshunoslik fanining rivoji, o'rganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qo'yiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keladi .

Leksemalarning lug'aviy ma'nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so'zga xos barqaror lisoniy va o'tkinchi nutqiy jihatni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisa cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinning ob'ekti bo'la olmaydi. Lug'at so'zga xos barqaror jihatnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil substansial tadqiqotlar lug'atni tartiblashtirishda muhim tayanch omil bo'lib, leksikografni cheksiz nutqiy ma'nolarni tartibga keltirish, lug'atga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lug'aviy ma'noda qorishgan o'zga hodisalar tajallilarini e'tibordan soqit qilish, ushbu birlik (leksema)ning mohiyatiga daxldor bo'lgan unurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega.

Imlo lug'ati so'zlarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Demak, bunday lug'at hammabop va amaliy tabiatga ega bo'ladi va unga S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning 1956, 1964 yillarda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan» nashr etilgan, S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning 1976 yilda «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan kirill yozuviga doir imlo lug'atlarini kiritish mumkin.

1995 yilda Sh. Rahmatullayev va A.Hojiyev tuzgan lotin imlosidagi imlo lug'ati «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etildi.

Orfoepik lugʻatda soʻzning toʻgʻri adabiy talaffuzi koʻrsatiladi. Bunday lugʻat birinchi marta kichik hajmda M.Sodiqova va Oʻ.Usmonova tomonidan «Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati» nomi bilan 1977 yilda «Oʻqituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi.

Maxsus filologik lugʻat tor oʻquvchilar ommasi – tilshunoslik bilan shugʻullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga moʻljallangan boʻladi. Oʻzbek tilining morfem, chastotali, ters, oʻzlashma soʻzlar, frazeologizm, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektizm, terminologik, etimologik lugʻatlar shular jumlasidan.

Morfem lugʻatda leksik birlikning tarkibi-morfemik strukturasini koʻrsatiladi. Bunday lugʻat birinchi marta A.Gʻulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qoʻngʻurov tomonidan tuzilib, 1977 yilda «Oʻqituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Chastotali lugʻatda soʻzning qoʻllanish darajasi haqida maʼlumot beriladi. I.A.Kissen muallifligida chop etilgan «Slovar naiboleye upotrebitelnix slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika» (Tashkent, 1970) lugʻati chastotali lugʻat boʻlib, unda maʼlum bir tanlangan matnlarda soʻzlarning qoʻllanilish chastotasi (takrorlanganlik miqdori) koʻrsatiladi. Bunday lugʻat S.Rizayev, Z.Hamidov, N.Axmatov, N.Mamadaliyeva, R.Zohidov tomonidan alohida asarlar boʻyicha tuzilgan.

Ters lugʻatda soʻz teskari tomondan oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Bu ham lingvistik lugʻat boʻlib, R.Qoʻngʻurov va A.Tixonov tomonidan «Obratniy slovar uzbekskogo yazika» nomi bilan 1969 yilda Samarqandda chop etilgan. Undan namuna keltiramiz:

serharajat

hujjat

xat-hujjat

behujjat

murojaat

Hojat

muhofazat

ijozat

Oʻzlashma soʻzlar lugʻatida oʻzbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan soʻz izohlanadi. Bu tipdagi lugʻat izohli lugʻatning bir koʻrinishi. Ular qaysi tildan oʻzlashgan soʻzlarni izohlashiga koʻra turlicha nomlanadi. Masalan, O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan 1965 yilda nashr etilgan «Ruscha-internasional soʻzlar izohli lugʻati»da rus va boshqa yevropa tillaridan kirib kelgan soʻzlar izohlangan.

Frazeologik lugʻat ham maxsus lingvistik lugʻatning bir turi boʻlib, Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati» (Toshkent, 1978) bunday lugʻatning mukammal namunasi. Undan misollar keltiramiz.

«Qulogʻ(i)ga chalinmoq nima kimning? Biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitmoq. Oʻxshashi: qulogʻ(i)ga kirmoq. Erkaklar orasidagi gap Asalbining qulogʻiga chalingan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Uzoqdan traktorning guvillagan ovozi quloqqa chalindi. R.Fayziy. Choʻlga bahor keldi». (294-bet)

«Qurimoq - yostigʻini quritmoq: yostigʻi quridi: tinka-madori quridi: tinkasini quritmoq: esim qursin» (375-bet)

Onomastik lugʻat oʻzbek leksikografiyasining alohida sohasiga aylandi. Bunday lugʻatda atoqli ot (onomosionim), toponim yoki antroponim izohlanadi va ular etimologik lugʻatning oʻziga xos koʻrinishi. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy Oʻzbekiston toponimlarining izohli lugʻati»ni, S.Qorayevning «Joy nomlarining izohli lugʻati»ni misol qilib keltirish mumkin.

Dialektal lugʻat oʻzbek tilining dialekt va shevalariga xos boʻlgan leksik birliklarni qayd qiladi. Bunday lugʻat, umuman, oʻzbek tilining barcha shevalariga xos yoki maʼlum bir sheva soʻzini izohlashga moʻljallangan boʻlishi mumkin. 1971 yilda mualliflar jamoasi tomonidan «Fan» nashriyatida chop etilgan «Oʻzbek xalq shevalari lugʻati»ni bunga misol qilib keltirish mumkin. Lugʻatdan misol keltiramiz:

Govara (Buxoro) beshik

Gavdoʻsha (Buxoro) xurmo

Gajdim (Nayman) chayon (62- bet)

Terminologik lugʻatlar maʼlum bir sohaga tegishli soʻzni izohlaydi. Terminologik lugʻat izohli yoki tarjima koʻrinishiga ega boʻladi. Demak, terminologik lugʻatni bir tilli va koʻp tilli lugʻatga boʻlish mumkin. Quyida A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lugʻati» (Toshkent, «Oʻqituvchi», 1985) dan namuna keltiramiz:

«Kriptologiya. Maxfiy tillar, ularni tuzish qonuniyatlarini, rasshifrovka qilish usullarini oʻrganuvchi fan.

Koʻmakchili aloqa. Soʻzlar oʻrtasida koʻmakchilar vositasida yuzaga keladigan aloqa: qalam bilan yozmoq, uyga qadar yugurmoq kabi.»

Tarjima lugʻatlar bir tildagi soʻz maʼnosining boshqa tilda ifodalanishi, berilishini koʻrsatadi. Ruscha-oʻzbekcha lugʻatdan misol:

RAZBOGATETʻ sov, (nesov, bogatet) boyimoq, boyib ketmoq, davlat orttirmoq.

SAREVNA j. r. mn.-ven. malika, shohbekach (podshohning qizi)

Tarjima lugʻati ikki tilli yoki koʻptilli boʻlib, lugʻatlarda soʻz ikkitadan ortiq tilda beriladi. Bunday lugʻatlar juda kam.

Tarjima lugʻatlari qanday birliklarni ifodalashiga koʻra turlicha boʻladi:

leksik birliklar lugʻati;

frazologizmlar lugʻati;

har ikkala birliklar lugʻati;

maqollar lugʻati.

1984 yilda Toshkentda nashr etilgan ikki tomli «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat» leksik birliklar lugʻatidir.

Frazologik birliklar tarjima lugʻatiga M.Sodiqovanning «Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻati» (Toshkent, 1972) namuna boʻladi. Undan ayrim misollar keltiramiz:

Axnut ne uspel - koʻz ochib-yumguncha, bir zumda: ogʻiz ochib bir narsa deguncha ham boʻladi: bir ogʻiz ham gap aytolmay qoldi.(14-bet).

Bez zadnix nog - s.t. juda charchab holdan toygan, sulayib qolish (82-bet).

Oʻzbek lugʻatchiligi axborot texnologiyalari asosida rivojlanish bosqichiga qadam qoʻymoqda.Hozirgi kunda oʻzbek tilining oʻquv lugʻatlari ona tili taʼlimida muhim ahamiyat kasb etmoqda, ularni tuzish esa leksikografiyaning alohida tarmogʻiga aylanmoqda. Buning sababi shuki, lugʻat til va olamning dunyoqarash bilan bogʻliq manzarasi haqidagi bilimlarni umumlashtirish va qayd qilishning eng qulay shakli boʻlibgina qolmay taʼlim berishning eng muhim vositasi hamdir. Modomiki oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish ona tili mashgʻulotlarining asosiy vazifasi ekan, ularni turli lugʻatlar bilan tanishtirish va bu lugʻatlardan foydalanish malakalarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Lugʻat imlo savodxonligini oshirish, soʻz boyligini oshirishning muhim manbayi, oʻquvchining asosiy maslahatchisidir.

Oʻquv lugʻati nima? Oʻquv lugʻatchiligining umumiy (akademik) lugʻatchilikdan farqi nimada?

Oʻquv lugʻatchiligi akademik lugʻatchilikka nisbatan kichik shakllar va koʻproq taʼlimiy yoʻnaltirilganlikka ega boʻlgan lugʻatchilik sifatida taʼriflanadi. Oʻquv lugʻatlari oʻqish-oʻqitish maqsadi bilan tuziladi, talabalar yoki maktab oʻquvchilari uchun moʻljallanadi. Bunday lugʻatlar tanlangan leksik materialning hajmi, tanlash yoʻli, muayyan oʻquv das-turini nazarda tutishi, oʻquvchi kitobxonlarning bilim darajasini hisobga olishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Biroq baʼzan “oʻquv lugʻatchiligi” tushunchasining hajmi kengaytiriladi: unga faqat maxsus oʻquv lugʻatlari (kichik hajmdagi) emas, darsliklardagi yordamchi lugʻatchalar, shuningdek leksik minimumlar, yaʼni muayyan bosqichda oʻrgatish tavsiya etiladigan soʻzlar roʻyxati, hatto oʻzlashtirish qiyin soʻzlarni oʻrgatishga moʻljallangan lugʻat koʻrinishidagi oʻquv qoʻllanmalari ham kiritiladi. Shunday qilib oʻquv lugʻati termini ikki maʼnoda ishlatiladi: 1) taʼlim berishga moʻljallangan har qanday turdagi lugʻat maʼnosida, 2) har bir soʻzga oʻquvchiga tushunarli izoh, grammatik tavsif, asosiy paradigmatic va sintagmatic aloqalari berilgan leksika boʻyicha har qanday qoʻllanma.

SHundan kelib chiqib oʻquv leksikografiyasiga “leksikani taʼlimiy maqsadlarda nazariy va amaliy jihatdan tavsiflaydigan alohida lingvometodik soha” (V. V. Morkovkin) deb taʼrif berish mumkin.

Bu taʼrif oʻquv leksikografiyasining eng muhim jihatlari eʼtibor qaratishga imkon beradi: oʻquv lugʻati oddiy lugʻatdan nimasi bilan farq qiladi, bunday lugʻat uchun soʻzlarni qay tarzda tanlash kerak, soʻzni izohlashning qaysi usullari oʻquv lugʻatining vazifalarga koʻproq javob beradi va h. k. YUqoridagi taʼrif oʻquv lugʻatlarini shunchaki umumiy leksikografiya tarkibiga kiritibgina qolmay, balki uning chegaraviy xususiyatini, yaʼni u ikki fan: anʼanaviy leksikografiya va til oʻqitish metodikasi tutashgan joyda tugʻilganini ham aks ettiradi.

SHunday qilib oʻquv lugʻatlari bir qator oʻziga xos belgilarga ega: 1) metodik yoʻnaltirilganligi va qatʼiy ravishda taʼlimining muayyan bosqichiga moʻljallanganligi, 2) til materialini oʻquv-metodik maqsadga muvofiqlik mezoniga javob berishi lozim boʻlgan tarzda oʻziga xos tanlab olish, 3) nutqiy amalning barcha tsiklini qamrab olishi, nutqiy faoliyatning barcha turini oʻrgatish.

Binobarin oʻquv lugʻatlarini tuzish “katta” lugʻatlarni mexanik tarzda qisqartirishdan iborat emas, u aytib oʻtilgan barcha leksikografik tushunchalarni qayta koʻrib chiqishni talab qiladi.

Yuqorida aytilganidek didaktik (taʼlimiy) element har qanday lugʻatga, ayniqsa meʼyoriy lugʻatga xos, biroq maxsus oʻquv lugʻatlarida u juda kuchayadi, chunki unda koʻrsatma berish, qatʼiy belgilash jihati maʼlumot berish jihatidan ustunlik qiladi.

O'quv lug'atining barcha turida lug'atning pedagogik nutqiga, ya'ni didaktik yo'naltirilgan leksikografik nutqqa katta e'tibor beriladi. Bunday lug'atning tili o'qituvchining pedagogik nutqi yoki darslikning didaktik tili bilan bir xil tabiatga ega bo'ladi.

Har bir o'quv lug'atining asosiy muammolaridan biri so'zlikni shakllantirishdir. Bunday lug'at o'zbek tilining ko'p qo'llanadigan va muhim leksikasini aks ettirishi kerak: unga tilning leksik yadrosini tashkil qiluvchi so'zlar bilan birga turli nutq vaziyatini qamrab oladigan, turli mavzuda va har qanday holatda muloqot qilish uchun etarli bo'lgan so'zlar, zarur leksik minimum ham kiradi.

O'quv lug'atining o'ziga xosligi leksik birliklarni izohlashda ham namoyon bo'ladi. U sodda, tushunarli, qisqa va aniq bo'lishi kerak. So'z ma'nosini o'quv maqsadida izohlashning bir necha juda samarali usuli mavjud: umumiy tushunchani xususiy, soddaroq tushuncha orqali izohlash (hasharot – ari, chumoli, qo'ng'iz), mazmunan yaqin tushunchalarni o'ziga xos farqli belgisi orqali chegaralash (qalin ko'ndalang – o'lchami katta, yo'g'on – ko'ndalang kesimi katta), ma'noni surat, chizma yordamida izohlash, so'zlar birikuvchanligi orqali izohlash (yashirin izohlash) va h. k.

O'quv lug'atida so'zning paradigmaticasi (sinonim, antonim, leksik-semantik va mavzuviy guruhlar) muntazam va aniq ko'rsatilishi lozim. SHuning uchun o'quv leksikografiyasida mavzuviy (ideografik) lug'atlar tuzish dolzarb masaladir.

O'quv lug'atining so'z maqolasi tuzilishi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Unda so'z haqidagi lingvistik – grammatik, semantik, orfoepik va h. k. axborot yanada qat'iyroq bir xillikka olib kelinishi lozim. O'quv lug'atining lug'at maqolasida so'z, uning shakllari, nutqda qo'llanishi haqida, ya'ni o'quvchiga o'zbek tilidan faol foydalanishga yordam beradigan barcha narsa haqida to'liq ma'lumot berilishi lozim.

Shunday qilib o'quv lug'ati metodik talablarga javob beradigan, odatda kichik formatdagi bitta jild ko'rinishida tayyorlanadigan va ma'lumotni tez va oson olishni ta'minlaydigan u yoki bu tamoyil asosida tartib berilgan so'zlarning ular haqida lisoniy ma'lumot berilgan ro'yxatidir.

O'quv lug'atlari zarurligi haqida ko'p gapirib va yozib kelinmoqda. O'quv lug'atlari yaratilmas, o'quvchilarning stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari turmas, buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi.

Mamlakatimizda o'quv lug'atchiligi sohasi eng oqsoq sohalardan. Uning etarli darajada shakllanmaganligi lug'atlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bog'liq ilmiy va moliyalashtirish tizimi yaratilmaganligi bilan bog'liq.

O'zbek o'quv lug'atchiligining yo'lga qo'yilishi quyidagi muammolar echimi bilan bog'liq:

o'zbek leksikografiyasi negizida o'quv lug'atchiligi tarmog'ini tashkil qilish;

o'quv lug'atchiligining nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanadigan Doimiy anjuman tashkil etish;

o'quv lug'atlarining lingvistik va pedagogik asoslarini yaratish;

o'quv lug'atlarini tuzish tamoyillarini ishlab chiqish;

o'quv lug'atlarini tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil qilish;

lug'atlarni nashr qilishni moliyalashtirish;

o'quv lug'atlarining elektron versiyalarini yaratishni yo'lga qo'yish.

Bu muammolarning yechimi ona tili ta'limidagi ulkan bo'shliqning to'ldirilishiga olib keladi.

## 6-mavzu: Morfemika va so'z yasalishi

### Reja:

1. **Morfemika haqida.**
2. **So'z yasalishi va uning turlari**

Morfemika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, tildagi ma'noli qismlar haqida ta'limot beradi.

Tildagi bo'linmas, eng kichik ma'noli qism morfema deyiladi.

**Aqli** so'zi ikki morfemadan tashkil topgan: aql+li. **Aql** o'zak morfema bo'lib, so'zning asosiy leksik ma'nosini ifodalaydi. **-li** morfemasi esa o'zak morfema orqali ifodalangan belgi yoki predmetga egalik ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, morfemalar ikki ko'rinishga ega:

1. O'zak morfema.
2. qo'shimcha morfema (qo'shimcha).

So'zda, albatta, ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalaydigan morfema o'zak morfema deyiladi. O'zak morfema so'z yasash uchun qam, forma yasash uchun ham asos bo'la oladi. Chog'ishtiring: ish+chi, paxta+zor, ish+ga, paxta+da.

Mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemalar qo'shimcha morfema deyiladi: kuch+li, ish+la (so'z yasayapti), uy+lar, uy+ga (shakl yasayapti).

So'zlarni o'zak va qo'shimcha morfemalarga ajratishda bu morfemalarning ma'no ifodalay olishiga e'tibor berish kerak bo'ladi: **quloqchin** so'zida **-chin** elementi ma'no ifodalaydi; tiril, tirik so'zlarida esa "tir" qismi ma'noga ega emas. Shuningdek -xona, -noma, -xo'r, -boy kabilar aniq o'zak morfema ma'nosidan uzoqlashib, qo'shimcha morfemaga aylangan. Morflar turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Masalan: ishla so'zidagi -la elementi hayda so'zida -da shaklida kelgan (lekin hay-hayla fe'lida yana -la tusida qo'llangan), hozir ajralmaydigan **unda** so'zida ham aslida shu -da qo'shimchasi bor (un ovoz). Bu -la va -da ko'rinishlari umumiy tarzda morfema deyiladi. Buning har bir ko'rinishi esa morf (allomorf) sanaladi. Bu turli ko'rinishdagi qismlar, morflar bir-biriga nisbatan allomorf sanaladi. Bu hol o'zak morfemalarda ham ko'rinadi: **tashqi** so'zidagi **tash** elementi **tish** tusida ko'p uchraydi. Yana: *kuchuk uvladi - bo'ri ulidi* (uv va u).

Morfemalar vazifasiga ko'ra so'z yasalishiga ham, shakl yasalishiga ham aloqador. Masalan, **temirchi** (qo'shimcha orqali so'z yasash), **temirni** (qo'shimcha orqali shakl yasash).

**Qo'shimcha morfemalarning ayrim xususiyatlari.** Qo'shimcha mustaqil qo'llanmaydigan, ammo o'zakka qo'shib uning leksik va grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir.

qo'shimchalar tashqi tomonlari, ma'nolari, vazifasi va qo'llanishi jihatidan bir qancha xususiyatga ega.

qo'shimchalar tashqi tomondan fonetik strukturasiga ko'ra bir unli (tinch+i), bir undosh (tila+k, tuga+l), unli va undosh (daftar+im), undosh va unli (xato+si), undosh - unli -undosh (yaxshi+lik) va boshqalarga bo'linadi.

**qo'shimchalarning kelib chiqishi.** Bu hodisa so'zlarning taraqqiyot yo'li bilan bog'liq.

1. qo'shimcha mustaqil so'zdan kelib chiqqan (boradigan -borib turgan -turgan -digan; -dir<tur).

2. Bir qo'shimchaning fonetik varianti bora-bora ma'no va vazifa jihatidan farqlanib ikki qo'shimcha tug'ilgan (-gan sifatdosh uchun, -qin ot va sifat uchun: qochqin, toshqin, qizg'in, yong'in).

3. Bir qo'shimchaning urchib, ikki qo'shimcha bo'lib ketishi kitobcha (kichik kitob), mingtacha (taxmin: -cha urg'usiz).

4. qo'shimchalarning qo'shilishidan (-chilik: mo'lhilik, -garchilik: yog'ingarchilik). Ko'pgina qo'shimchalarning paydo bo'lish yo'llari hali aniq emas.

Boshqa tillardan ham qo'shimchalar olinadi (-zor, -bon, -don tojik tilidan olingan).

**Prefikslar haqida.** qo'shimchalar o'zbek tilida suffiks xarakteridadir. O'zak ketiga qo'shiladi. Prefikslar boshqa tillardan kirgan (antifashist, beish, noto'g'ri kabi). qop-qora, kap-katta kabi so'zlarning bosh qismi (kop, kap) prefiks emas. Ular aslida o'sha o'zakning bir qismining takrorlanishidir. O'zbek tilida infiks (o'zak ichiga qo'shiladigan qo'shimcha) yo'q. Demak, qo'llanish o'rniga ko'ra qo'shimchalar ikkiga bo'linadi: suffikslar va prefikslar.

**Affiksoidlar.** Ba'zi so'zlar qo'shimcha vazifasini bajarib, ergash morfemaga aylana boshlagan bo'lsa ham, hali qo'shimchaga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular affiksoid sanaladi. Masalan, Bu uyda to'rt xona bor. Biz ishxonaga bordik. Misollardagi xona elementi o'ni bilan so'z bo'lib ham, qo'shimcha bo'lib ham qo'llangan. U bir o'rinda o'zak morfema, boshqa o'rinda ergash morfema. Keyingi holda o'rin bildiradigan qo'shimchaga juda yaqin. Chog'ishtiring: muzxona-muzlik, sartaroshxona-sartaroshlik. -jon, -xon, -oy elementlari ham xuddi shunday: jon qizlar-qizlarjon, jonim otam-otajonim kabi. Qo'shimchalarning har biri o'ziga xos ma'noga ega: -chi so'z yasovchi, -lar ko'plik, -ga kelishik va h.k. Ammo ular bajaradigan **vazifasiga ko'ra** ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar.

2. Shakl yasovchi qo'shimchalar.

Yangi leksik ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi: ish+la, ish+chi, kurs+dosh.

So'z yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari "So'z yasalishi" bobida batafsil bayon etiladi.

Soʻzning grammatik maʼnosini hosil qiluvchi qoʻshimchalar shakl (forma) yasovchi qoʻshimchalar deyiladi: gullarga soʻzidagi -lar koʻplik maʼnosini, -ga kelishik (joʻnalish) maʼnosini hosil qilayotgan shakllardir. **Ishlamayapti** soʻzida -ma inkor, -yap zamon, -ti shaxs -son maʼnolarini ifodalayapti.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar soʻzning material qismiga, leksik maʼno ifodalovchi qismiga kiradi. Shakl yasovchilar esa soʻzning formal qismida boʻladi:

Masalan: terimchilarga soʻzida terimchi-material qism, -larga formal qism -soʻz shakli hisoblanadi.

Shakl yasovchi qoʻshimchalar asosiy xususiyatlariga koʻra ikki turga boʻlinadi:

1. Kategorial shaklni yasovchi qoʻshimchalar.
2. Nokategorial shaklni yasovchi qoʻshimchalar.

Maʼlum soʻz turkumidagi biror grammatik kategoriyaga xos shakl yasash uchun xizmat qiladigan qoʻshimchalar kategorial shakl yasovchi qoʻshimchalar deyiladi: otlardagi koʻplik, egalik va kelishik shaklini yasovchi qoʻshimchalar, feʼlning mayl, zamon shaxs -son shaklini yasovchi qoʻshimchalar bunga misol boʻla oladi,

Grammatik kategoriyaga oid boʻlmagan maʼnoni ifodalovchi, maʼlum sintaktik vazifaga xoslangan soʻz shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalar nokategorial shakl (funktional shakl) yasovchi qoʻshimchalar deyiladi: otning kichraytirish, erkalash shakli, feʼlning sifatdosh, ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalar (-cha, -choq, -chak, -ar, -ib).

Bu oʻrinda soʻzning morfema strukturasi va soʻzning morfologik strukturasi tushunchalarini izohlash ham oʻrinli. Soʻzning morfema strukturasi – soʻzning morfemalardan iboratligi: ish+chi+lar.

Soʻzning morfologik strukturasi soʻzning shakl yasalishi uchun asos boʻladigan qism bilan shakl yasovchi qismdan iborat strukturasi: terimchi+lar, ishchi+ga, kitob+dan.

Soʻz tarkibi yoki soʻz strukturasi uch nuqtay nazardan yondashiladi:

1. Morfema strukturasi - necha morfemadan iborat: ish+chi soʻzi ikki morfemali.
2. Soʻz yasalish strukturasi - yasalish asosi va yasovchi: ish+chi, terim+chi.
3. Shakl yasalish strukturasi yoki morfologik strukturasi -yasalish asosi va shakl yasovchi: ish+lar, ishchi+lar.

**Qoʻshimchalarning tuzilishi.** Qoʻshimchalar tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: sodda qoʻshimchalar va qoʻshma qoʻshimchalar.

Birgina maʼnoli qismdan iborat boʻlgan qoʻshimcha morfema sodda qoʻshimcha deyiladi: -chi, -zor, -dosh, -ga, -da, -dan, -roq kabi.

Birdan ortiq qo'shimchalarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan qo'shimcha morfemalar qo'shma qo'shimcha deyiladi: -chilik, -garchilik, -garlik, -moqda kabi. qo'shma qo'shimchalarda ergash morfemalar bir-biridan ajralmaydi: kosibchilik, ikki tomonlama, yog'ingarchilik kabi.

O'zbek tilidagi qo'shma qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari A.Berdialiyev tomonidan maxsus tadqiq qilingan.

So'zlardagi kabi qo'shimchalarda ham **polisemiya, sinonimiya, antonimiya** va **omonimiya** hodisalari mavjud.

**qo'shimchalar omonimiyasi.** Semantik tomondan o'zaro bog'liq bo'lmagan, turli ma'nolarni bildiruvchi har xil qo'shimchalarning tashqi jihatdan bir xil bo'lishi qo'shimcha **omonimiyasi** deyiladi. Masalan: yotoq, o'roq, qo'rqq, qochoq so'zlaridagi -oq qo'shimchasi fonetik tomondan o'xshash bo'lsa ham, bular to'rtta har xil qo'shimchadir.

qo'shimchalar omonimiyasi turli tipdagi ergash morfemalar orasida uchraydi: 1. So'z yasovchi qo'shimchalarning o'z doirasida: to'plam (-m qo'shimchasi harakat natijasi oti yasaydi), o'rim (-im qo'shimchasi proses nomi yasaydi). 2. So'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimcha orasida: tinchi (-i fe'l yasovchi qo'shimchasi **u tinchidi**; uchinchi shaxsni ko'rsatuvchi egalik qo'shimchasi -i ham shu formada bo'ladi -kitobi). 3. Shakl yasovchi qo'shimchalarning o'z doirasida: oqish – sifat (-ish belgining o'zligini bildiradi), chopish – fe'l (-ish fe'lning funksional shaklini hosil qiladi.)

4. Omonim qo'shimchalar urg'u orqali farqlanadi: urg'uli -ma qo'shimchasi ot, sifat yasaydi, urg'usiz -ma qo'shimchasi fe'l yasaydi va h.k.

qo'shimchalar omonimiyasi hodisasining o'ziga xos xususiyatlari M. Jo'raboyeva tomonidan tadqiq etilgan.

**Qo'shimchalar sinonimiyasi.** Shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shimchalar sinonim qo'shimcha deyiladi: -yap, -yotir, -moqda qo'shimchalari hozirgi zamon davom fe'lini yasaydi. -li va -dor qo'shimchalari egalikni ifodalaydi: homilali, homilador. -giz, -dir qo'shimchalari fe'lning orttirma nisbatini yasaydi: oldir – olg'iz, kiydir – kiygiz kabi.

Sinonim absolyut tenglikka ega emas. Ular ma'nosi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanish doirasi bilan o'zaro farqlanib turadi. Bu farqlarga e'tibor qilish orqali mazmunni ochiq, nozik ottenkalarni hamda emotsiyalarni aniq berishga, umuman, uslubiy jihatdan savodli bo'lishga erishiladi.

Sinonim qo'shimchalar boshqa tillardan, shevalardan qo'shimchalar olish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Sinonim qo'shimchalar so'z yasovchilarda ham (unumli, unumdor), shakl yasovchilarda ham (oqish, oqimtir, aytingiz, aytinglar) uchraydi.

Sinonim qo‘shimchalarning o‘ziga xos xususiyatlari Y.Tojiyev tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

**Qo‘shimchalar antonimiyasi.** qarama-qarshi ma’no bildiruvchi qo‘shimchalar antonim qo‘shimcha deyiladi. qo‘shimchalar antonimiyasi, asosan, so‘z yasovchi qo‘shimchalar doirasida uchraydi: -li, -siz: aqlli, aqlsiz; -li, be-: suvli, besuv; be-, ba-: bedavlat, badavlat.

qo‘shimchalar antonimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari B.Isabekov tomonidan ilmiy tekshirilgan.

**Qo‘shimchalar polisemiyasi.** Birdan ortiq leksik yoki grammatik ma’noni hosil qiluvchi qo‘shimcha ko‘p ma’noli qo‘shimcha deyiladi. Masalan, -chilik qo‘shimchasi quyidagi ma’nodagi otlar yasaydi:

1. Asosdan anglashilgan narsani yetishtiradigan sohani ifodalovchi ot: paxtachilik, uzumchilik, urug‘chilik. 2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiradi: pishiqchilik, arzonchilik. 3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan ishni anglatadi: ulfatchilik, o‘rtoqchilik.

Jo‘nalish kelishigi shakli -ga: 1. Harakat yo‘naltirilgan tomonni ifodalaydi: uyga. 2. Atalganlik ma’nosini anglatadi: ukamga oldim. 3. Payt ma’nosini bildiradi: yozga chiqdi.

**SO‘Z YASALISHI. SO‘Z TURKUMLARIDA SO‘Z YASALISHI.** So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi so‘z yasalishi va so‘z yasash usullarini o‘rgatadi. So‘z yasalishi morfologiya va leksikologiya bilan o‘zaro bog‘liq.

"So‘z yasalishi" atamasi ikki hodisani nomlash uchun ishlatiladi:

1. So‘z yasalishi, ya’ni so‘z hosil qilish.

2. Tilshunoslikning bir bo‘limi nomi.

So‘z yasash har qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilish demakdir: ishchi, hozirjavob, besh yillik.

Ma’lum so‘z negizidan ma’no va grammatik jihatdan undan farq qiladigan yangi so‘z hosil qilish so‘z yasash deyiladi. So‘z yasash leksik ma’noning o‘zgarishini nazarda tutadi. Bunda avvalgi so‘zning shakli ham o‘zgaradi: yetak - yetakchi-yetakla.

Turmushda predmetlar, hodisalarni nomlash uchun yangi so‘zlar hosil qilinadi. Yangi so‘z til birligi hisoblanadi. U til birligi sifatida lug‘at tarkibini boyitadi.

Har bir tilning yasama so‘zlari shu tildagi so‘z yasash modellari: o‘zak+suffiks, prefiks+o‘zak, so‘z+so‘z holatida yuzaga keladi: chopiq, besuv, qo‘lqop. Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor. Yasalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal (tashqi) jihatdan ham aloqador: o‘roq-chi, ish-chi yasama so‘zlarining ma’nosi yasovchi so‘zning ma’nosiga asoslanadi: yasama o‘zakning ma’nosini

rivojlantiradi, o'shandan kelib chiqadi. Masalan: o'roq yasalmasining ma'nosi o'rish harakati bilan asoslaniladi (motivlovchi). Shunga ko'ra birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala elementning orasidagi munosabat motivatsiya munosabati sanaladi. Demak, "motivlashgan" so'zi "yasalgan" degan ma'noni ifodalaydi.

So'z yasovchi o'zlashgan qo'shimchani baholashda uning o'zbek tilida ham yangi so'z yasash uchun xizmat qilishi yoki qilmasligini hisobga olish muhimdir. Binobarin, bunday qo'shimchalar yangi so'z yasab, o'zbek tili leksikasini boyitishi kerak. Aks holda bular o'zlashma so'z yasovchi qo'shimcha sanalmaydi (-ik, -ak, -izm, -ist) kabi.

**So'z yasash yo'llari.** Leksika doimiy harakatda bo'lib, uning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil. Leksika, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki imkoniyat asosida yangi so'z yasash bilan boyib boradi. Yangi so'z, odatda, tildagi bor materialdan yaratiladi. Eritma so'zining (eri+t+ma) materiali va modeli, vositasi avvaldan ma'lum, lekin hosil bo'lgan so'z yangidir.

O'zbek tilida so'z yasashning bir necha usuli bor:

1. Semantik usul.
2. Fonetik usul.
3. Sintaktik usul.
4. Affiksatsiya usuli.
5. Kompozitsiya usuli.

**Semantik usul.** Tilda bor bo'lgan so'zning ma'nosi o'zgarishi natijasida yangi so'z hosil bo'lishi semantik usul bilan so'z yasash deyiladi: kun – quyosh – (planeta), kun - sutkaning yorug' qismi, kunduzi.

Semantik usul bilan so'z yasashga so'z ma'nosining o'zgarishi, konversiya (ko'chish), polisemiya asosida omonimlarning vujudga kelishi kiradi. Kechasi -ot (vaqt nomi); kechasi - otdan yuzaga kelgan ravish so'z ma'nosining o'zgarishi), oldingilar (sifatdan otga ko'chirish: oldingi odamlar). Tosh – jism, ot yoki biror narsaning toshib ichidan sirtiga chiqishi -fe'l. Ich- (ichki qism) ot, ich (ichiga yutish) -fe'l (polisemiya asosida omonim vujudga kelgan).

**Fonetik usul-** tilda tovush o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan yangi so'zlar fonetik usul bilan so'z yasash deyiladi:

1. So'z tarkibida fonetik o'zgarish orqali: tun-kun, aka-uka.

2. Urg'uning o'rnini o'zgartish orqali: yangi-yangi. Prof. A.G'ulomov "Ichki o'zgarish yo'li bilan so'z yasash" (Nauchnaya sessiya AN UzSSR, Toshkent, 1947. 338-392-betlar) maqolasida fonetik usul bilan so'z yasashni juda qadimgi usul deb hisoblaydi. Uni affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdan ilgari hodisa deb aytadi. A. G'ulomov ichki o'zgarish faqat tovushlarning o'zgarishi bilan emas, tovushlarning ikkilanishi, tovush tushib qolishi va tovushlarning o'rin almashtirishi usullari bo'lganligini aytadi va quyidagi misollarni keltiradi: ko'z-ko'r, tosh-tesh, aka-uka, siq-suq tovush almashish usuli; silamoq-siylamoq, o't-trava, o't-jeloch tovushlarni cho'zish

orqali soʻz yasash; qatiq-qattiq tovushlarni ikkilantirish usuli bilan, sol-ol, togʻa-ogʻa, toshmoq-oshmoq tovushlarning birini tushirish bilan; siq-qis, choʻk-koʻch tovushlarning oʻrnini almashtirish va h.k.

Prof. S.Usmonov "Soʻz yasash formasi" maqolasida (Nizomiy nomli pedinstituti asarlari, 42-tom, Toshkent, 1964, 349-b.) "Turkiy tillarda ichki fleksiya masalasi juda munozarali" deb fonetik usul bilan soʻz yasashiga shubha bildiradi.

**Sintaktik - leksik usul.** Soʻz birikmasining soʻzga aylanishi yoʻli bilan soʻz yasash sintaktik - leksik usul deyiladi. Vaqtlar oʻtishi bilan maʼlum tipdagi soʻz birikmalari bir soʻzga aylanib, bir leksik maʼno anglatadigan boʻlib qoladi: asalari, tokqaychi, joʻxoripoya, mingboshi.

**Affiksatsiya usuli** -Soʻzga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi: ishchi, oʻrmonchi, oʻyla, yopiq, ochiq. Bu usul eng faol usuldir. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilish oʻrniga koʻra suffiks va prefiks xarakteridadir: betinim, tinimsiz. Soʻz yasovchi qoʻshimcha birdan ortiq qoʻshilishi mumkin: bil+im+don+lik. Agar qoʻshimcha oʻzbek tili soʻzlariga ham, boshqa til soʻzlariga ham qoʻshilib yangi soʻz yasasa, u soʻz yasovchi hisoblanadi: oilaviy, texnikaviy, mafkuraviy, fizikaviy kabi. Faqat oʻzlashma soʻz tarkibidagina uchrasa, bu soʻz yasovchi hisoblanmaydi: -ist: kommunist; -yat: majburiyat.

Soʻz yasovchi qoʻshimcha sodda yoki qoʻshma boʻlishi mumkin: -chi, -la, -k, -sodda; -chilik, -garchilik qoʻshma.

Soʻz yasash darajasiga koʻra qoʻshimchalar uchga boʻlinadi:

1. Unumli. 2. Kam unum. 3. Unumsiz.

Unumli qoʻshimchalar: -chi, -la, -lik, -li, -chi, -dor.

Kam unum: -dosh, -ma, -ch, -don.

Unumsiz: -kash, -gʻon, -gar, -vul; -xona, -noma kabi qoʻshimchaoidlar ham soʻz yasash uchun xizmat qiladi: choyxona, ishxona, tabriknoma.

Etimologik jihatdan soʻz yasovchilarning asosiy qismi oʻzbekchadir.

**Kompozitsiya usuli**-Birdan ortiq oʻzak morfemalarni qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish kompozitsiya usuli deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan qoʻshma soʻz hosil qilinadi: tuyaqush, oybolta, havorang, sotib ol, olib bor. Kompozita - qoʻshma soʻz demakdir. Sodda soʻzda mustaqil maʼnoli morfema bitta boʻlsa, qoʻshma soʻzda birdan ortiq boʻladi. Chogʻishtiring: temirchi, tortinchoq, boshla, belbogʻ, qoʻlqop, asalari.

Agar qoʻshma soʻz tarkibidagi bir morfema oʻz maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, sodda soʻz sanalaveradi: kechqurun, quloqchin.

Oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning morfemalari oʻzbek tili uchun uqilmasa, sodda soʻz sanaladi: odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr.

qo'shma so'z so'z birikmasidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1. qo'shma so'zning komponentlari - morfema; so'z birikmasining komponentlari so'zlardir.

2. qo'shma so'z komponentlari birikib, yaxlitligicha bir ma'no ifodalaydi. So'z birikmalarida komponentlar leksik mustaqilligini saqlaydi. Chog'ishtiring: tuyaqush, oybolta; qora portfelli, o'n besh qavatli.

3. Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qo'shma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan: o'qib bermoq, yoza boshlamoq, yotib qolmoq kabilar qo'shma so'z emas. So'z birikmasi ham emas. Chunki bularning ikkinchisi o'z ma'nosini saqlamagan. Bular fe'lning analitik formalaridir.

4. qo'shma so'z stabil bo'lib, nutqda tayyor bo'ladi. So'z birikmasi nutq jarayonida yaratiladi: shakarkon (qo'shma so'z) - shakarning koni (so'z birikmasi).

5. qo'shma so'z turg'un birikmaga o'xshaydi. Ammo turg'un birikmalar ko'chma ma'no ifodalaydi: yer yong'oq, bosh barmoq (qo'shma so'z) - zangori olov (gaz), zangori kema (mashina), gapning tuzi (ma'nosi), ko'zi ochildi (tushundi).

6. qo'shma so'z so'z birikmasi bilan omonimlik tashkil qiladi: oqqovun (qovun turi) - oq qovun (rang ifodasi), qizil urug' (rang ifodasi) – qizilurug' (qovun turi).

7. qo'shma otlarning bir qismi (bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zlarning boshqa kategoriyaga ko'chishi) konversiya hodisasi bilan bog'liq: muz yorar (muzni yorib o'tadigan paroxod), qo'sh quloq (qo'sh quloqli idish).

8. qo'shma so'zning komponentlari o'z turg'un tartibiga ega. Masalan otlarda, odatda, aniqlovchi aniqlanmish: tishcho'tka, kirsovun.

So'z yasash borasida qo'shma so'z atamasi juft so'zlarni: yosh-qari (hamma) qovun-tarvuz (poliz), erta - kech (doim); qisqartmalarni (BMT, XXR), shuningdek, so'z takrori yo'li bilan hosil qilingan so'zlarni ham o'z ichiga oladi.

Abbreviatsiya yo'li bilan so'z yasash o'zbek tilining keyingi davrda erishgan yutuqlaridan biridir. Abbreviatura qo'shma qisqartma so'zlar bo'lib, ular bir so'z kabi qo'llanadi. O'zi maxsus qo'shimchalar ham oladi: Rayijrokomdan keldi. So'z yasashning bu turi ot turkumiga xosdir.

Takror yo'li bilan so'z yasash (paqpaq, bibip, kuku) qadimgi ko'rinishdir.

Takror ikki xil:

1. Odatdagi takror.

2. Ikkilanish (udvoyeniya).

Oddiy takror ma'noni kuchaytiradi, ekspressivlik beradi: tezroq-tezroq yur. O'ylab-o'ylab bir fikrga keldi. Ikkilanish so'z qo'shishning bir ko'rinishi bo'lib takrorlanayotgan elementlarining bir xilligi bilan xarakterlanadi: Tur-turi boshlandi, bibip kelyapti, qoch-qoch tugadi.

Takror so'z yasash vositasi bo'lganida, so'z qo'shish hodisasi bilan o'xshashlik tug'diradi. qiyoslang: Kuku (qush), Ko'ksuv (joy oti). Grammatik vosita bo'lganida esa affiksatsiya bilan yaqinlashadi: Kim-kim keldi? - Kimlar keldi? – ko'plik ma'nosi ifodalanadi.

Takror yo'li bilan yasash bir qancha ko'rinishlarga ega.

1. Taqlid so'z ikkilanib, shu tovush bilan xarakterlanadigan predmetning nomi hosil qilinadi: shaqshaq (qush), tutu (tovuq), pat-pat (motosikl).

2. Ot turkumiga xos so'zlar ikkilanib, shu so'z ifodalagan predmet bilan bog'langan o'yin nomi hosil qilinadi: ot-ot, xola-xola, kino-kino.

Juft so'zlar strukturasiga ko'ra ikkilanish yo'li bilan yasalgan so'zlarga ancha o'xshasa qam, aniqlovchilik tipidagi qo'shma so'zlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilar:

1. Juft so'zlar orasidagi bog'lanish tenglanish asosida, qo'shma so'zlarda esa tobelanish asosidadir. Chog'ishtiring: eski-yangi eski va yangi (har xil), katta-kichik, katta va kichik (hamma); belbog', ko'zoynak.

2. Juft so'zlar bir turkum doirasida bo'ladi. qo'shma so'zlar turli so'z turkumlaridan ifodalangan bo'lishi mumkin. Chog'ishtiring: qovun-tarvuz, eski-yangi, beshotar, oqtepa.

3. qo'shma so'z bir bosh urg'uga ega bo'ladi, juft so'zlarda har ikki komponent ham urg'uli bo'ladi.

Juft so'zlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamlikni bildirishdir: erta-kech (doim), olma-o'rik (ho'l mevalar), jiyya-mayiz (quruq mevalar).

Demak, juft usuldagi so'z yasalişida birinchidan, juftlangan so'z yangi ma'no berishi kerak. Ikkinchidan, shu tilda umumlashtiruvchi leksik ma'no ifodalashi kerak: ota-ona, er-xotin, kelin-kuyov juft so'z yasalişı emas. Ular rus tilida roditeli, suprugı, molodojyoni ma'nosini beradi. Bularda umumlashtiruvchi leksik ma'no yo'q.

## **7- mavzu. Gramatika.Punkuatsiya. Uslubiyat**

### **Reja:**

#### **1. Gramatika haqida.**

#### **2. Punkuatsiya. Uslubiyat**

Grammatika (grekcha: harf, o'qish va yozish san'ati) tilshunoslik fanining bir qismi bo'lib, tilning grammatik qurilishini tekshiradi.

Grammatika (m-s) so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning birikuvi haqidagi qoidalar yig'indisidir.

Grammatika so'zlarning qo'shimchalar vositasi bilan o'zgarishini, so'zlarning o'zaro bog'lanib gap bo'lib kelishini, gapni to'g'ri, savodli tuzish qoidalarini ham o'rgatadi,

Lug'at tarkibidagi so'zlar o'z holicha fikr mazmunini ifodalamaydi. Chunki so'zlar faqat ma'no (tushuncha) bildiradi. So'zlar, iboralar grammatika qonun-qoidalar asosida tegishli qo'shimchalar yoki yordamchi vositalar bilan o'zaro ma'lum tartibda birikib kelgan taqdirdagina fikr ifodalovchi gaplar shakllanadi: Bolalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishida o'qituvchilarning ham roli kattadir.

Agar biz yuqorida keltirilgan gapdagi so'zlarni lug'atdagi holatida, ya'ni grammatik jihatdan uyushmagan tarzda keltirsak (bola, Vatan, muhabbat, ruh, tarbiyalash, ish, o'qituvchi, ham, rol, katta deb aytsak), biror fikr kelib chiqmaydi. Demak, so'zlar vositasi bilan fikrni maqsadga muvofiq ifoda etishda, mazmunli nutqni vujudga keltirishda grammatika va grammatik formalarning ahamiyati g'oyat muhimdir,

O'rganish obyekti, materiali va vazifasi nuqtayi nazaridan grammatikaning bir necha tipi farqlanadi: 1) tarixiy grammatika, 2) tasviriy grammatika, 3) qiyosiy grammatika. Biz bu kursda tasviriy grammatikani o'rganamiz.

Har bir tilning o'ziga xosligini uning fonetik, leksik va grammatik strukturalari aks ettiradi. Bu strukturalarning hammasi bir butun sistemani hosil qiladi. Demak, tilning grammatik qurilishi uning fonetik qurilishi hamda leksik sistemasi bilan uzviy bog'liqdir. Grammatika so'zlarni shakllantiradi, biriktiradi, ularning fikr anglatish vositasi sistemasidagi vazifasini ro'yobga chiqaradi. Bu ma'lum qoidalar, normalar asosida bo'ladi: Bola yugurdi. qiz kuyladi. Bedana sayradi. gaplarining hammasi bir yagona qoida – model asosida tuzilgan gaplardir.

Ko'pgina tillarning grammatik qurilishida o'xshashlik va farqlar mavjud. Tillarning grammatik qurilishidagi o'xshashlik nisbatan sintaksisda kuchli (ayniqsa, qo'shma gaplar strukturasida), farqlanish esa so'z formalarida kuchlidir.

Tilning grammatik va tovush tomoni o‘zaro yaqin munosabatda. Har bir grammatik hodisaning tovush bilan ifodalanishi grammatikaning fonetika bilan munosabatini ko‘rsatadi. qiyoslang: gapning xarakterli belgilaridan biri — intonatsiyadir. Yoki so‘z urg‘usining turli bo‘g‘inlarga tushishi uning turkumini o‘zgartiradi: qushcha - ot, kichraytish, qushcha ravish, -day, -dek shakli. Hozir — tayyor, hozir payt ma’nosida — ravish.

Tilning grammatik qurilishi va lug‘at tarkibi o‘zaro munosabatda. So‘zning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi ta’limot grammatikaning asosidir. So‘zning leksik-grammatik xususiyatlari jihatidan o‘xshashliklari ot, sifat fe’l kabi so‘z turkumlarning ajralishiga asos bo‘ladi. So‘z ma’lum shaklga kiradi va boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirishadi.

Grammatikaning asosini so‘z turkumlari va gap haqidagi ta’limot tashkil qiladi. Bu grammatikaning ikki qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Morfologiya (grekcha: morfe — shakl va logos—so‘z, ta’limot) so‘zning grammatik shakllari haqidagi ta’limotdir. Morfologiyada so‘zlarning turkumlanishi, grammatik o‘zgarishi, so‘z formalarining hosil bo‘lish yo‘llari o‘rganiladi. Fonetikaning asosini unli-undosh, jarangli-jarangsiz kabi fonetik oppozitsiyalar tashkil qilganidek, morfologiya asosini bir-biriga zid, lekin o‘zaro bog‘langan, shartlangan grammatik oppozitsiyalar tashkil qiladi (birlik - ko‘plik, bo‘lishli - bo‘lishsizlik kabi).

Morfologiya va sintaksis bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Sintaksis (grekcha: sintaksis — tuzish, qurish) so‘zlarning birikishini, gap va uning tuzilishini hamda turlarini tekshiradi. Tilning qurilishi yaxlit bir sistema bo‘lib, u morfologik va sintaktik hodisalarning o‘zaro bir butun sistemani hosil qilishdan tashkil topadi. Chog‘ishtiring: so‘zlar o‘zaro bog‘lanish talabi bilan, demak, sintaktik xususiyat natijasida, turli formalarga kiradi: teatrning binosi, teatrga bordik kabi. Gap bo‘laklari bilan so‘z turkumlari orasida bog‘lanish bor. Jumladan, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarning vazifasi sintaktikdir. So‘zlarni ot, sifat, fe’l turkumlariga ajratishda bir asos sintaktik funksiyadir.

### Grammatik ma’no

Demak, so‘z fonetikada ham, leksikologiyada ham tekshirilgan ekan. Leksikologiyada, asosan, so‘zning leksik ma’nosi, grammatikada so‘zning grammatik ma’nolari o‘rganiladi.

Soʻzning ob'yektiv borliq (narsa, belgi, harakat kabilar) haqidagi tushunchani anglatishi uning leksik maʼnosidir.

Grammatik maʼno deganda nima tushuniladi?

Grammatik maʼno deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruriy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy koʻrinishlar bilan beriladigan umumlashgan maʼnolar tushuniladi.

Chunonchi, "Bolalar qiziqarli kitobni oʻqiydi" gapini olsak, "Bolalar" soʻzida 2 xil maʼno ajralib turadi: 1) lugʻaviy maʼno - yaʼni bu soʻzning borliqdagi odam jinsiga mansub boʻlgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish; 2) koʻplik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu maʼnolardan birinchisi lugʻaviy, leksik maʼno boʻlsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan maʼnodir. Grammatik maʼnolar har bir tilda oʻziga xos boʻladi va rang-barang shakliy usullar bilan ifodalanadi.

Tabiatan agglyutinativ va sintetik boʻlgan oʻzbek tilida qoʻshimchalardan aloqa-munosabat qoʻshimchalari va lugʻaviy shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar, asosan, grammatik maʼno ifodalaydi. Masalan, kitobi soʻz shakliga eʼtibor bersak. Bu shakidagi -i qoʻshimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishliligini ifodalasa, "Oʻlgan kimlar" kitobi" birikmasida tur va jins norhini oʻzaro bogʻlab birikma hosil qilyapti. Shu maʼnolar -i qoʻshimchasida mujassamlangan va shu maʼno ushbu qoʻshimcha morfema orqali yuzaga chiqmoqda.

Kelishik qoʻshimchalari grammatik maʼno ifodalaydi. Masalan, "Javondagi kitoblardan oldi" gapida -dan qoʻshimchasi maʼlum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "Vijdondan qoʻrqing" gapida -dan vijdon va "qoʻrqmoq soʻzlarini bir-biriga bogʻlashga xizmat qilyapti, "Anvar uydan chiqdi" gapida esa Anvar degan shaxsning chiqish joyini koʻrsatmoqda. Yuqorida keltirgan misollarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammatik maʼno lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl (qolip)da mujassainlangan mavhum inʼikosidir. Chunki, yuqoridagi kitobi soʻzidagi -i qoʻshimchasida, "Javondagi kitoblardan oldi" gapidagi -dan qoʻshimchasida nolisoniy munosabat yotsa, "Oʻtgan kimlar" kitobi" birikmasidagi -i va "Vijdondan qoʻrqing" gapidagi -dan qoʻshimchasida sof lisoniy munosabat mujassamlangan. Shuning uchun grammatik maʼno tarkiban murakkab boʻlib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar inʼikosiriling birikishidan iboratdir.

Feʼl zamonlari ham grammatik maʼno ifodafaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi soʻzlarning qaysi zamonga oid ekanini koʻrsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir boʻladigan voqea va hodisalarning

qachon bo‘lib o‘tganini, ya’ni aynan gapirilayotgan vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oidin yo keyin sodir bo‘layotganligini ifodaiash uchun ham xizmat qiladi: Lola o‘qidi; Lola o‘qiydi; Lola o‘qiyotir.

Sifat darajalari ham grammatik ma’no anglaladi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi:

tor/ torroq /eng tor; go‘zal/ go‘zalroq/ eng go‘zal.

Mana shunday ma’lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur be'lgan umumlashgan, lug‘aviy ma’no ustidagi ustama ma’no grammatik ma’no sanaladi.

### Grammatik shakl (so‘z formasi)

So‘zning ma’lum bir grammatik ma’no ifodalovchi shakli (ko‘rinishi) so‘zning grammatik formasi deyiladi.

Grammatik ma’no aytib o‘tganimizdek, rang barang usullar bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida, jumladan, grammatik ma’nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya.
2. Yordamchi so‘zlar.
3. So‘z tartibi.
4. Takror.
5. Ohang.
6. Juftlash.
7. Ichki fleksiya.
8. Urg‘u.
9. Suppletivizm.

Biz bu usullarni tilimizda tarqalganlik doirasiga ko‘ra joylashtirdik. Usullar mohiyati sizga "Tilshunoslikka kirish" kursidan ma’lum.

1. Affiksatsiya tilimizda grammatik ma’noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo‘lib, tilimizga xos bo‘lgan grammatik ma’nolarning deyarli

barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir bo'lish usuli), bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl-zamon, shaxs-son affikslar-qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida, asosan, suffikslar, ya'ni o'zak yoki asosdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ishlatiladi. Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator be-, bo-, ser-, no-, ba- kabi prefikslar-o'zak va asosdan oldin keladigan qo'shimchalar ham o'zlashib qolgan. Lug'aviy shakl va aloqa- munosabat qo'shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda **s i n t e t i k** shakllar deb aytiladi. Chunonchi, kitoblar, akamga, uylarimizda, kelmasaydingiz, yaxshiroq, o'nta kabi shakllar sintetik shakl sanaladi.

2. Yordamchi so'zlar. Bular ham grammatik ma'no-ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Ko'makchi otlar, ma'nosi toraygan so'zlar bilan birga ketib, o'zi aloqador bo'lgan so'zni boshqa so'z bilan munosabatga kiritadi: Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz (A.q.) – holat ma'nosi voqelangan; Telefon orqali gaplashdim – vosita ma'nosi voqelangan; Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bolib kelgan (O'.U.) – atalgahlik ma'nosi voqelangan. O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta guruhni tashkil etib, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning yarim bog'lovchi, yarim ko'makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo'lib, bunday so'zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma'noga ega. Chunonchi, Ishning boshida Abdurahim turar edi.

Yordamchi so'zlar sifatida o'zbek tilida juda, eng, bag'oyat, nihoyatda, o'ta, sal, birmuncha kabi ravishlar ham, olmoq, bernoq, qolmoq, o'tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bolmoq kabi 40 dan ortiq fe'llar ham keng qo'llaniladi. Yordamchi so'zlar vositasida yasalgan shakllar analitik shakllar deb ataladi. Tilimizda juda ko'p holatlarda ayni bir grammatik ma'no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, Kitobni akamga (akam uchun / akamga deb / akamga atab / akamga mo'ljallab / ...) oldim.

3. Takror (reduplikatsiya) - bir so'zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma'nolar hosil qilinadi: predmetning ko'pligi, belgining oshirilishi, ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi,

etak-etak paxta- miqdoriy ko'plik;

ayta- ayta charchamoq- harakat davomiyligi.

Tilimizda bu usulning to'liq takror (etak- etak paxla) va qisman takror (qip-qizil, ko'm- ko'k, yam-yashil) va tilimizgagina xos bo'lib, fanda "sadodosh takror" (slovo-exo) deb atalgan ko'rinishi ham keng tarqalgan (mayda-chuyda, she'r-pe'r, kitob-mitob, ko'k-mo'k, qizil-pizil).

4. Soʻz tartibi - grammatik maʼno anglatishning yana bir vositasi. Soʻzlarning gapda maʼlum tartibda oldinma - keyin joylashtirilishi ham grammatik maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda baʼzan shu vosita orqali soʻzning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. Soʻz tartibi soʻz birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, keng dalalar (soʻz birikmasi) - Dalalar keng (gap). Soʻz tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish koʻradi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, bir, ikki kitob va bir- ikki kitob birikmalarining ohangi har xildir.

5. Ohang ham grammatik maʼno ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yordamida

a) gapning turini ajratish mumkin: Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!

b) gap boʻlaklarini ajratish mumkin:

Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi. Birinchi gapda "Gulnora" va "singlim" soʻzlari uyushib kelgan boʻlsa, ikkinchi gapda "Gulnora" soʻzi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa ism maʼnosida kelgan. Ohangning soʻz tartibi, soʻzlarni bir-biriga bogʻlash bilan uzviy aloqa-dor-likda voqelanishini takroran eslatib oʻtish joiz. Yuqoridagilar buning yorqin dalilidir.

6. Juftlash har xil soʻzlarni - maʼnodoshlarni (baxt-saodat), zid maʼnolilarni (yaxshi-yomori), giponimlarni ulov (ot-eshak), darajalanuvchilarni (qoy-qoʻzi), umumisteʼmol soʻz va arxaizmlarni (bola-chaqa, choʻpon-choliq) oʻzaro qoʻshish orqali har xil grammatik maʼnolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan olti usul tilimizning ichki qurilishiga xos boʻlgan grammatik maʼnolarni ifodalashning yetakchi usulidir. Shular bilan birga tilimizda juda kam qoʻllaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (men-biz, sen-siz; eski oʻzbek tilida u- alar, anga, anda, ani, aning), arabcha soʻzlar orqali oʻzlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob -kutubxona

xabar -axbor fikr -afkor

ilm -ulum

taraf-atrof va boshqalar.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik maʼnoni alohida til hodisasi sifatida oʻrganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik maʼno grammatik shaklning

bir tomoni sifatida o'rganilib kelindi. Grammatik ma'noni ifodalashning rang - barang usullarini ko'rib o'tgach, biz ayta olamizki. ayni bir grammatik ma'no xilma- xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin.

Chunonchi, son ma'nosi o'zbek tilida affiksatsiya a/-lar, ya'ni birlik/ko'plik son shakllari paradigmasi doirasida ko'rib chiqilgan. Son shakllarining ma'nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutligan. Tilimizda son ma'nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro'yobga chiqadi. Chunonchi, ko'plik ma'nosi takror, juft so'zlar bilan ham, birlik ma'nosi juz'iy reduplikatsiya (takror) yoki so'z-so'zsimon (kitoh-mitob, non-pon, meva-cheva) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma'nolarining o'xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "Kitobni akam uchun oldim" va "Kitobni akamga deb / atab oldim" kabi hosilalar orasidagi ma'no farqlari deyarli o'rganilmagan. Ya'ni ayni bir ma'noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo'llari fanimizning o'rganilmagan, muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir.

#### So'zning morfologik strukturasi

So'zning morfologik strukturasi so'zning forma yasalishi uchun asos bo'ladigan komponenti bilan shakl yasovchi komponentlaridan iborat strukturasi: paxta+lar, paxtakor+lar+ra. Paxta — forma yasalish asosi, -lar ko'plik shakli, paxtakor — forma yasalish asosi, -lar, -ga ko'plik va jo'nalish kelishigi shakllari.

So'z formasining asosi tub, yasama, qo'shma so'z bo'lishi hatto so'z birikmasiga teng bo'lishi ham mumkin: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida.

Bir so'zda birdan ortiq shakl yasovchi ishtirok etishi mumkin: temirchi+lar+ni Bunda tushum kelishigi uchun shakl yasovchi asos temirchilardir. Ko'plik uchun asos temirchidir.

#### Grammatik kategoriya. Grammatik kategoriyalar tasnifi

Grammatik kategoriya (GK) va grammatik shakl masalasi grammatika fanida ko'p tilshunoslarni o'ylovga qo'ygan masalalardandir. GK mohiyati nimadan iborat? Bu savolga tilshunoslar turlicha javob beradi. Buning mohiyatini bilish uchun dastlab kategoriya atamasining o'zi nimaligi haqida fikr yuritaylik. Bu atama falsafadan tilshunoslikka kirib kelgan bo'lib, falsafada bu tushuncha

quyidagicha izohlanadi: "...ob'yektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha".

Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va yakkaalik mavjud bolishi shart va zarur. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun-qism; yakkaalikni borliq, miqdor, makon tashkli etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida qat'iy zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

GK bo'lishi uchun aloqa va aloqaga tushuvchi birliklar zarur. Muayyan ma'no umumiyligi asosida birlashgan va o'zaro zidlanuvchi shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK deganda, asosan, morfologik kategoriyalar (MK) anglahsiladi.

GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlikdir. Shuning uchun grammatik kategoriya o'zi uchun xos bo'lgan umumiy ma'noga ega, bu ma'no shu kategoriya shakllarida ma'lum ko'rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi. Shuning uchun kategoriya UGMsi bilan shu kategoriya birliklari shakllari XGMLari o'zaro tur-jins munosabatlarida turadi. Masalan, o'zbek tilida ravishdoshlarning UGMsi " fe'lni fe'l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi. Lekin ravishdoshlarning xususiy ko'rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

- I. 1. -gach - boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko'rsatish;
2. -guncha - boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ifodalash;
3. -ganda - boshqa bir harakat sodir bo'lish fonini ifodalash;
- II. 4. -b/-ib - davomli va davomsiz harakatni fe'l bilan bog'lash;
5. -a/-y -davomli harakatni fe'l bilan bog'lash;
- III. 6.-gani/-gali - maqsad ma'noli harakatni boshqa harakat bilan bog' lash.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma'nosi mavjud: fe'lni fe'lga bog'laydi. Lekin bu uch qatorning xususiy ma'nolari ham bor: birinchi qatorda payt-zamon, ikkinchi qatorda davomli-davomsizlik, uchinchi qatorda sabab-maqsad UGMLari mujassamlangan. Keyingi tadqiqot ishlarida (qarang: Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. ND. Buxoro, 1994) yuqorida ko'rsatib o'tilgan (-gach,-guncha, -ganda, -b/-ib,-a/-y, -gani/-gali) shakllar ravishdoshlarning turli zamon yoki tarz formolari emas, balki har xil zamon va tarz kategoriyalarining ravishdoshlarda ko'rinishi sifatida talqin qilingan. Boshqacha qilib aytganda, zamon ma'nolari ravishdoshlarga va ravishdoshlik vazifasi zamon ichiga singib

ketgan. Bunday hodisalarni o'rganish bugungi tilshunosligimiz oldiga ko'ndalang qilib qo'yilgan.

Sh.Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni o'rganar ekan, o'zbek tilida ularning quyidagi turlarini beradi:

1. Son kategoriyasi - 0: -lar
2. Egalik kategoriyasi - 0: -i/m:-i/ng...
3. Kelishik kategoriyasi -0: -ning:-ni:...
4. Subyektiv munosabat kategoriyasi - 0: -jon:-xon...
5. qiyoslash kategoriyasi -0:-roq...
6. Nisbat kategoriyasi -0:-t/-dir:-il...
7. O'zgalovchi kategoriyasi -0:-ish:-i/b:-gan...
8. Kesimlik kategoriyasi - 0 aniqlik, buyruq, shart mayli...

Ushbu grammatik kategoriyalar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma'noviy tarkibiga ko'ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)larning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan.
3. MK sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra.

Endi shular ustida qisqacha to'xtab o'taylik. Birinchi tasnifga ko'ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, sub'yektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, faqat bir kategoriyaga mansub bo'lgan ma'noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning formalarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin. Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan bo'iadi:

a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma'no);

b) shaxs ma'nosi (nokategorial ma'no);

d) son ma'nosi (nokategorial ma'no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq-inkor, mayli-zamon, shaxs-son ma'nolari birlashgan bo'lib, ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada ro'yobga chiqadi. Masalan, "Olmani ol" gapida "ol" so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma'nolarini voqelantirib kelmoqda va bu ma'nolar 0 bilan ifodalanmoqda. "Kitobni olmadingiz" gapida inkor ma'nosi -ma qo'shimchasi bilan, ma'yl, zamon ma'nosi -di bilan, ko'plik ma'nosi -iz bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriya ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifat-dosh va harakat nomi shakllari ma'nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko'ra MKlar ikkiga bo'linadi: leksik-morfologik va funksional - morfologik. Leksik-morfologik kategoriyalar so'zlarning ayrim guruhlariga xos. Bular sirasiga son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga, qiyoslash, daraja kategoriyalari sifatlarga, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik -morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi.

Funksional - grammatik kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi - kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo'laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so'z birikmasi qurilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

MKlar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra tasnifida "birin ketinlik", ya'ni grammatik kategoriyalarning sintaktik qobiliyatlarining "oldingisi bilan" va "keyingisi bilan" sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, "kitobning" so'z shaklidagi \-ning\ o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, "kitobi" so'zidagi \-i\ bu so'zshaklidan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari so'zshaklning "oldingisi bilan" aloqalarini ko'rsatsa, kelishik kategoriyasi so'zshaklning "keyingisi bilan" aloqasini ko'rsatadi. Shaxsiy baho shakllari bu jihatdan mo'tadildir.